


F.U. QODIROVA, D.A. PULATOVA, M.G. DEHQANOVA,
SH.N. IBADULLAYEVA

SURDOPSIXOLOGIYA



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**F.U.QODIROVA, D.A.PULATOVA, M.G'.DEHQANOVA,
SH.N.IBADULLAYEVA**

SURDOPSIXOLOGIYA

(O'quv qo'llanma)

Toshkent
«Yangi chirchiq prints»
2023

UO'K 376;37.015.3

KBK 74.3;88.44

Q-66

E.U.QODIROVA, D.A.PULATOVA, M.G'.DEHQANOVA,
SH.N.IBADULLAYEVA. SURDOPSIXOLOGIYA [O'quv qo'llanma]: -
Toshkent. Yangi chirchiq prints - 2023.- 178 bet.

Taqrizchilar:

Sh.Shokirova - *TDPU, Logopediya kafedrası dotsenti.*

Sh.A.Abdujalilova - *Maxsus pedagogika kafedrası dotsenti.*

Ushbu o'quv qo'llanmada maxsus pedagogika yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalarni surdopsixologiya moduli bo'yicha eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar ruhiy rivojlanishining o'ziga xosligi, ular sezgisi, idroki, tasavvur va tafakkuri, diqqati, xotirasining xususiyatlari hamda kar bolalarning og'zaki nutqiga psixologik tavsif kabi ma'lumotlar bayon etilgan.

Qo'llanmadan bo'lajak surdopedagoglar va defektologlar, tarbiyachilar, ta'lim muassasa psixologlari va eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ota-onalari foydalanishlari mumkin.

ISBN 978-9910-9595-4-7

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI

KIRISH

Bolalarning jamiyatning turli ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy munosabatlarida faol ishtirok etishlari, farovon turmush kechirishlari hamda turli hayotiy vaziyatlarga samarali ijtimoiy moslashuvini ta'minlashda, ularning maktabgacha bo'lgan davrning ahamiyati kattaligi bois, aynan maktabgacha maxsus ta'limni isloh qilish masalasi ham maxsus pedagogika va xalq ta'limi tizimi olidida turgan dolzarb vazifalardan sanalmoqda. Nogironligi bo'lgan bolalarning jamiyatning kundalik hayotiga jalb qilinishi va faol ishtirokini ta'minlovchi maxsus va inklyuziv ta'lim tizimi mazmuni va shakllari takomillashtirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 dekabrda "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5270-sonli, 2019 yil 29 aprelda "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimining 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712 sonli farmonlari va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar mazmunida aholining ehtiyojmand qatlamlariga ta'lim xizmatining moslashgan turlarini, differensial yondashuvlarga asoslangan tizimni joriy etish belgilab qo'yilgan. Aholining ehtiyojmand qatlamlarini ijtimoiy himoya qilish, nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni kuchaytirishga alohida e'tibor berilgan. Natijada imkoniyati cheklangan bolalarni ilk davrdan tashxis qilish, tashxis natijalari asosida mos ta'limga jalb etish, sifatli ta'lim olishini ta'minlash, ijtimoiy hayotga moslashuvini ta'minlashga yo'naltirilgan kompleks ta'sirni o'z vaqtida maqsadli amalga oshirish uchun zaruriy infratuzilma hamda kadrlar masalasini hal etish imkoniyati kengaydi. Sog'lom bolalar kabi imkoniyati cheklangan bolalarning ta'limga jalb etilgan ilk davrdan, ya'ni maktabgacha ta'lim tashkilotida tashkil etilgan pedagogik jarayon davomida ijtimoiylashish uchun zarur bilim, ko'nikma va malakalar hamda elementar kompetensiyalar bilan qurollantirishning imkoniyatlarini asoslab berish hamda ularni tibbiy-pedagogik jihatdan o'rganish usullarini takomillashtirish

maqsadida ushbu o'quv qo'llanmani hozirgi kunning muhim adabiyotlaridan biridir.

O'tgan davr mobaynida mamlakatimizda o'sib borayotgan avlodni sog'lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta'limning samarali tizimini tashkil etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi.

Shu bilan birga, olib borilgan tahlil, bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrovini ta'minlash, maktabgacha ta'lim muassasalarini zamonaviy o'quv-metodik materiallar va badiiy adabiyotlar bilan to'ldirish, sohaga malakali pedagog va boshqaruv kadrlarini jalb qilish masalalarini hal etish zarurligini ko'rsatmoqda.

SURDOPSIXOLOGIYANING NAZARIY ASOSLARI.

Reja:

1. Surdopsixologiya fanining maqsad va vazifalari.
2. Surdopsixologiya fanining obyekti va predmeti.
3. Surdopsixologiyaning rivojlanish tarixiga oid ma'lumotlar.

Tayanch so'zlar: Surdopsixologiya, obyekt, predmet, tadqiqot, zaif eshituvchi.

Butunjahon bolalariga xos bo'lgan bolalar huquqi haqidagi Konvensiya O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va boshqa me'yoriy hujjatlarda ko'rsatilishicha, barcha bolalar, shu jumladan, jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bor aloxida yordamga muxtoj bolalar ham mehnat qilish, ta'lim olish, hayotda o'z o'rnini topib ketish huquqlariga egadirlar. "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunga rioya etilishini ta'minlash uchun uzluksiz ta'lim tizimida faoliyat yurituvchi barcha mutaxassislar alohida yordamga muhtoj kishilar haqida tushunchaga ega bo'lib, ularga ta'lim-tarbiya jarayonida qulay shart-sharoitlar yaratib, kerak bo'lsa, individuallashtirgan dasturlar asosida integratsiyalashgan inklyuziv sharoitda me'yorda rivojlangan tengdoshlari orasida hamma qatori ta'lim olish imkoniyatlarini yoki maxsus muassasalarda ta'lim olishiga yordam berishi zarur. Buning uchun har bir pedagog korreksion pedagogika fanining asoslarini egallagan bo'lishi kerak.

Surdopsixologiya psixologiyaning maxsus bo'limi bo'lib, eshitishda nuqsoni mavjud bolalarning ruhiyatini shakllanishi xususiyatlarini tahlil qilinishni ko'zda tutadi.

Surdopsixologiya predmeti eshitishda nuqsoni mavjud shaxslar ruhiyatini o'ziga xosligini o'rganish va turli murakkablikdagi nuqsonlarni yo'llarini aniqlashni qamrab oladi.

Surdopsixologiya vazifalari quyidagilar bilan belgilanadi: -eshitishda nuqsoni mavjud shakllarning ruhiy

rivojlanishning umumiy va maxsus qonun-qoidalarini aniqlash;
-eshitishda nuqsoni mavjud shaxslar bilish faoliyatini rivojlanish xususiyatlarini o'rganish;

-ular shaxsini rivojlanish xususiyatlarini tadqiq etish;

-eshitishda nuqsoni mavjud shaxslar ruhiy rivojlanish xususiyatlarini psixologik korreksiyasi va diagnostikasi metodlarini ishlab chiqish;

-eshitishda nuqsoni mavjud shaxslarga pedagogik ta'sir usullarni psixologik asoslash.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan shaxslar ruhiy xususiyatlar XIX asr o'rtalaridanoq pedagog va vrach-psixologlar e'tiborini o'ziga jalb etib kelgan. V.I.Fleri, F.A.Ostrogradskiy, I.M.Logovskiy, F.A.Rau kabi olimlarning pedagogik faoliyati va tadqiqotlari surdopsixologiyaning rivojiga katta qissa qo'shgan. Ularning ilmiy ishlarida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning ruhiy xususiyatlarini kuzatish va aniqlashga doir fikrlar beriladi. Xususan, V.I. Fleri eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar harakat ko'nikmalar xususiyatlarini ta'riflab, noto'g'ri koordinatsiya, harakatlarning ishonchsizligi kuzatilishini ta'kidlaydi.

N.M.Logovskiy, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar eshitish idrokini faollashtirish va rivojlantirish mumkinligini e'tirof etadi. Ushbu olim karlikda ruhiy rivojlanish buzilishini kompensatsiyasida ko'ruv idrokining ahamiyatini alohida ta'kidlaydi.

XX asrning 20-yillariga kelib L.S.Vigotskiy boshchiligidagi maxsus psixologiyaning dolzarb muammolarini tizimli tadqiq etish jarayoni amalga oshirildi. Olim o'z ilmiy foliyatida turli nuqsonlari mavjud kar, ko'r, aqli zaif bolalar hamda ularning ta'limi muammolarini o'rganadi. 1924-1926 yillarda bu muammoga bag'ishlangan dastlabki ilmiy ishlar chop etiladi.

L.S.Vigotskiy genetik tamoyillar tahlili asosida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar ruhiyatining xususiyatlarini yoritib beradi. Kar bolaning rivojlanishi ijtimoiy sharoiti psixologik yangi holatlar kuzatilishini asoslashini e'tirof etadi. L.Vigotskiyning fikr-mulohazalari maxsus pedagogikaning rivojiga katta qissa qo'shdi, rivojlanishida nuqsoni mavjud

bolalarni tabaqalab o'qitish muammolariga o'zgacha qarash imkonini beradi. Uning nazariy ta'limoti eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni kompensator imkoniyatlarini tadqiq etuvchi eksperimental psixologik tadqiqotlarga stimulator sharoitida ta'sir etgan. L.S.Vigotskiy safdoshlari L.K.Zankov va Sh.M. Solovev rivojlanishida nuqsoni mavjud xususan, eshitishda nuqson bor bolalar idrokini xotirasi va nutqi rivojlanish xususiyatlarini o'rganuvchi psixologik tadqiqotlar o'tkazdilar va tadqiqot natijalarini 1940 yilda nashr etilgan.

"Kar bola psixologiyasi bo'yicha" monografiyasida jamladilar. 1930-40 yilda eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar bilish faoliyatini o'rganuvchi qator tadqiqotlar o'tkazildi, xususan K.I.Veressotskaya eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni predmetlarni idrok etish, L.V.Zonkov va D.R.Maynts ko'rgazmali materialni eslab qolish malakasini, M.M.Nudelman kar o'quvchilar tassavurlarini, Z.S.Beyn ko'ruv idrokini konstantligini, N.I.Shif eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni ranglarni idrok etish xususiyatlari, M.E.Vottsev kar o'quvchilarni yozma nutqi va o'qish malakalarini tadqiq etganlar. Bu yillarda olib borilgan tadqiqotlar bilish jarayonlari xarakteriga ega edi, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar eshituvchi yoki aqli zaif bolalar bilan o'zaro qiyoslashib tekshirilar edi. Bunday yondashuv barcha kategoriyadagi bolalar bilan samarali ishlash imkonini beruvchi tavsiyalar ishlab chiqish imkonini berar edi.

Eshitishda nuqsoni mavjud bolalar ruhiyatini o'rganishda psixologiyaning asosiy va yordamchi metodlari qo'llaniladi. Asosiy metodlari turkumi *kuzatish* va *psixologik eksperiment* metodlarini qamrab oladi. Yordamchi metodlar *faoliyat natijalarini tahlil qilish*, *test metodi*, *anketa metodlarini* o'zida namoyon qiladi.

Psixologiyada kuzatish metodi xodisalarning keng doirasi munosabatiga ko'ra qo'llaniladi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar maxsus psixologiyasida bu metod katta ahamiyatga egallashini ta'kidlash joizdir. Kuzatish predmeti faoliyatning tashqi komponentlari – harakat, nutqiy akt, pantomima va mimikaning o'ziga xosligi, vegetativ reaksiyalarni yuzaga kelishi

bo'lishi mumkin. Bunda bolalar xulqiga kuzatuvchi mavjudligi salbiy ta'sir ko'rsatish, uni tabiiyligi buzilishi mumkin. Yuqorida ta'kidlangan holatni amalga oshmasligi uchun (kino, video syomka) qayd etuvchi apparatni qo'llash yaxshi natija beradi.

Xulosa va umumlashmalar uchun zaruriy material olish uchun bolalarning turli faoliyatda o'yin, o'qish, uy vazifalarini bajarish, takrorlanuvchi, o'zgaruvchi sharoitlarda kuzatish maqsadga muvofiqdir. Bola nutqiy rivojlanishining umumiy sharoitida kuzatilayotgan xodisalarning xususiy tomonlarini aniqlash imkoni yuzaga keladi.

Eshituvchi ona va kar bola muloqotini o'rganishda kuzatish metodini qo'llashga doir Amerika psixologlarining tadqiqotini keltirish mumkin. Ular 13 oy mobaynida turli sharoitda ona va bola o'zaro munosabatini video registratsiya yordamida kuzatganlar. Registratsiya turli holatlarda va kunlarda olib borilgan. Olimlarni quyidagi ko'rsatkichlar bilan qiziqqanlar: kimning tashabbusi bo'yicha muloqotga kirishildi, nutqiy muloqot doirasi va xususiyatlari qay tarzda amalga oshdi (gap turi so'rov, undov, buyruq, his-hayajon). Olimlar ba'zi sharoitlardagi muloqotda ona tashabbuskor bo'lganini (kitob o'qish, kesa alifbo bilan ishlash) holda amalga oshgan. Bola tashabbuskor bo'lgan holatlarni ham (o'yinchoq o'ynash) kuzatganlar. Turli sharoitlarda muloqot miqdor va sifat jihatdan farqlangan holatlari namoyon bo'ldi.

Psixologik ekspert ham psixologiyada ahamiyatga molik metodlaridan biri sanaladi. Surdopsixologiyada psixologik eksperiment metodi muhim o'rin tutadi. Bu metod tekshiruvchining ijodiy yondashuvini ko'zda tutadi va inson xulqidagi o'zgarishlarni qayd etadi. Eksperimental tadqiqot bir qancha bosqichlardan tashkil etadi:

- a. maqsadni belgilash, bu tadqiqot gipotezasini ko'zda tutadi;
- b. rejalashtirish;
- c. tadqiqotni o'tkazish;
- d. statistik gipotezalarni tekshirishni ko'zlovchi natijalar tahlili;

e. xulosa chiqarish.

Eshitishda nuqsoni bor bolalar bilan psixologik tadqiqotlarni o'tkazishda muhim holatlarni hisobga olish darkor. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bola berilgan topshiriq tushunganligini nazorat qilish talab etiladi.

Bu jarayonni yengillashtirish uchun imo-ishora nutqidan foydalanish yaxshi samara beradi. Shuningdek surdopsixologiyaning bu metodini qo'llashda ko'rgazmali namoyish etish, so'zlashuv metodlaridan birgalikda foydalanish kar bolani unga berilgan topshiriqni to'liq tushunishga sabab bo'ladi. Kar bola birinchi topshiriqni tushunib bajargach, ikkinchi topshiriqga o'tish mumkin. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlashda bu imkoniyatni hisobga olish darkor. Bolaning ta'lim-tarbiya sharoiti, eshitishni buzilish vaqti va darajasi eshitishni buzilish sababi unda mavjud nutq shakllari (og'zaki, yozma, daktil, imo-ishora) o'zlashtirish darajasi, oila tipi hisobga olinadi. Sog'lom va eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni qiyosiy o'rganish uchun yosh tamoyiliga ko'ra olinadi, tekshiriluvchilar bir yoshda to'lish kerak. Bu ularni ruhiy rivojlanishini qiyosiy o'rganishga yordam beradi.

Kar o'quvchilar psixologik xususiyatlari o'rgatishda psixologik eksperimentning barcha turlaridan foydalaniladi. Bu laborator eksperiment va tabiiy eksperiment turlarini o'ziga jamlaydi. Laborator eksperimentda o'rganilayotgan xodisa qat'iy nazorat qilinadi. Tabiiy eksperiment kuzatishining ijobiy qirralari va eksperiment qirralari jipslashadi va namoyon bo'ladi. Oxiri davrlarda surdopsixologiya ta'limiy eksperiment ham eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni o'rganishda ijobiy samara bermoqda. Bu metod yordamida tekshiriluvchining nafaqat bilimi, malakasi balki uni shakllanish holati ham o'rganiladi. Shuningdek, kombinatsiyalangan nuqsonlar (eshitish buzilishi, ruhiy rivojlanish orqada qolgan va aqli zaiflik) o'rganish va aniqlashda ham muhim samara beradi. Ta'limiy eksperiment maxsus psixologiyada keng o'rinda qo'llaniladi. T.V. Rozonova va L.I. Tigranova shu metodni qo'llagan holda eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar bilan sog'lom bolalarning ruhiy xususiyatlarini

tekshirganlar. Yordamchi topshiriqlar vositasida faoliyat natijalari tahlili muhim o'rin tutadi. Ruxiy rivojlanish bosqichida bolalar faoliyati natijalari tahlili muhim o'rin tutadi.

19-asr oxiri va 20-asr boshlarida yozilgan, aqlizaiif bolalarni eksperimental klinik, psixologik va pedagogik tadqiqotlaridan farqli o'laroq, ular orasida katta fundamental ishlar olib borilgan, shuningdek, kar va soqov bolalarni o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar ancha kam bo'lgan. Ushbu davrda kar-soqovlarni klinik, psixologik va pedagogik o'rganishga bag'ishlangan biron bir fundamental ilmiy asar yozilmagan. Bu buzilishning o'ziga xos xususiyatlari bilan Rossiyada eshitishida nuqsoni bor shaxslarga yordam berish tarixi bilan ham bog'liq. Nogiron bolalarning boshqa toifalaridan farqli o'laroq, kar va soqov bolalarga pedagogik yordam 19-asrning boshlaridan olib borilgan. Ushbu toifadagi bolalar bilan pedagogik ishlashning ko'plab usullari ishlab chiqilgan. Ularni tarbiyalash va o'qitish bo'yicha bir qator ishlar va darsliklar tayyorlandi. Surdopedagogika 20-asrning boshlarida Rossiyada maxsus pedagogikaning eng rivojlangan tarmoqlaridan biri edi. Kar va soqovlarga ta'sir qilishning haqiqiy pedagogik usullarini ishlab chiqishdan farqli o'laroq, kar va soqov bolalar hali to'liq o'rganib chiqilmagan edi. Kar va soqov bolalarning bir nechta muhim eksperimental va psixologik tadqiqotlari va bir nechta klinik va pedagogik tadqiqotlar mavjud edi.

Kar va soqov bolalarning birinchi eksperimental va pedagogik tadqiqotlaridan biri bu A.V.Vladimirskiyning "Maktab kunining turli soatlarida aqliy ishlash. Sankt-Peterburg kar va soqovlar maktabi o'quvchilari ustida eksperimental tadqiqotlar". A.V.Vladimirskiy 20-asrning boshlarida pedologik tadqiqotlarda faol ishtirok etgan taniqli shifokor va defektolog edi. 1908-yildan boshla V.M.Bexterov rahbarligida psixonevrologik institutda ishlagan. Keyinchalik u ushbu institutda tashkil etilgan yordamchi maktabni boshqargan. Subyektlarning turli toifalarini — kar va soqovligi bo'lgan turli yoshdagi bolalarni taqqoslaydi, ammo ularning faoliyatining turli bo'g'inlarida o'rganilgan turli xil sharoitlarda joylashtirilgan. Tajribalardagi bunday modifikatsiyalar

tadqiqotchiga turli omillarning o'rganilayotgan jarayonning borishi va natijalariga ta'sirini aniqlashga imkon beradi. Turli ko'rsatkichlar bo'yicha kar va soqovligi bo'lgan bolalarning kunning turli qismlarida ishlash xususiyatlarini tavsiflash mumkin edi, kun davomida ularning faoliyatining turli tomonlarining notekis tebranishlari ko'rsatildi, ta'limdan mehnat faoliyatiga o'tishning ta'siri aniqlandi. Kar va soqovlarning aqliy qobiliyatdagi eshituvchilardan orqada qolishi, ularga diqqatni jamlash ancha qiyin shuningdek, kar-soqovlarning aqliy faoliyatining ushbu xususiyatlari o'quv jarayonida asta-sekin tekislanadi. A.B.Vladimirskiy uchun katta ahamiyatga ega bo'ldi, chunki unda katta materiallar to'plangan va tizimlashtirilgan edi, kar va soqovlarning aqliy faoliyati eksperimental ravishda o'rganilmagan edi. Normal rivojlanayotgan bolalar va kar-soqovlarni taqqoslash usulidan foydalanishga e'tibor qaratiladi. Ish muhim va xarakterlidir, chunki u kar va soqovlarning psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda erishish mumkin bo'lgan ta'limni takomillashtirish imkoniyatlarini ko'rsatadi, va buning uchun ushbu yo'nalishda ko'plab tadqiqotlar talab etiladi. A.N.Porosyatnikovning "Maktab yoshidagi kar va soqov bolalarda vizual idrok va yodlash qobiliyatini qiyosiy o'rganish" (1910) asarida muallif kar va soqovlarning aqliy rivojlanishini o'rganish muammosining rivojlanmaganligini ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra, bu muammo aniq ishlab chiqilgan, chunki u o'qituvchilar, psixologlar va shifokorlar uchun katta qiziqish uyg'otadi. Mening bilishimcha, kar va soqovlarning ruhiy hayotini o'rganish hali deyarli amalga oshirilmagan. Ayni paytda, ushbu ish shuni ko'rsatadiki, bu sohada nafaqat kar va soqovlarning o'qituvchilari mutaxassisleri, balki psixologlar va shifokorlar uchun ham juda ko'p qiziqarli narsalar mavjud. Shuning uchun, ushbu tadqiqot muallifi, agar uning ishida boshqa ilg'or usullardan foydalangan holda tekshiruv tadqiqotlari orqali uni tekshirishga turtki bergan bo'lsa yoki kar-soqovlarning pedagogikasi va umuman ilm-fan manfaatlariga yaqin bo'lganlarga eslatsa, o'zini juda mamnun deb biladi. A.V.Vladimirskiy singari, A.N.Porosyatnikov ham normal rivojlanayotgan bolalar va kar va soqovlarni

taqqoslash usulidan foydalanadi. Tadqiqotda turli yoshdagi va jinsdagi 227ta eshitishda nuqsoni bo'lgan va 196ta kar va soqov o'quvchilar ishtirok etishdi. Ikki usul ishlatilgan: "idrok qilish" va "ijro etish". Birinchi usul shundan iborat ediki, sub'ektlarga ko'rish orqali nimani idrok etish kerakligi ko'rsatildi va shundan so'ng qabul qilingan narsa yozma ravishda takrorlanishi kerak edi. Ikkinchi usulda vizual ravishda qabul qilingan mavzu shunga o'xshash mavzular orasida tan olinishi kerak edi. Vizual material 12 ta harf chizilgan jadvaldan va ustiga geometrik shakllar chizilgan jadvaldan iborat edi. Tadqiqot natijasida muallif quyidagi xulosalarga keladi. Kar-soqovlarni vizual idrok etish, eshitish qobiliyati bilan bir xil bo'lib, uning sifatini belgilaydigan tarkib jihatidan ancha past; kar-soqovlarni vizual idrok etishning past sifati uning aniqligi, mazmunining aniqligi va turli xil odamlarda ushbu ikkinchisining xilma-xilligiga ta'sir qiladi; kar-soqovlarda xotira jarayoni ustunlik qiladi. Muallif ta'lim muassasalarida kar va soqovlarning vizual idrokini rivojlantirish va kuzatishni va uni muhim kompensatsion vosita sifatida rivojlantirishni tavsiya qiladi. A.N.Porosyatnikovning ishini o'sha davrning yetakchi surdopedagoglari qo'llab-quvvatladilar va tan oldilar: N.M.Lagovskiy, F.A.Rau va boshqa kar-soqovlarni o'qitish, tarbiyalash va mukofotlash bo'yicha Butunrossiya Kongressida qatnashgan boshqa kar-soqovlar va otorinolaringologlar, bu yerda tadqiqot natijalari xabar qilindi.

Savol va topshiriqlar

1. Surdopsixologiya fanining maqsadi haqida gapirib bering.
2. Surdopsixologiya fanining vazifasini sanab bering.
3. Surdopsixologiya fanining tamoyillariga qaysi tamoyillar kiradi?
4. Surdopsixologiya fanining rivojlanishiga hissa qo'shgan olimlar.
5. Surdopsixologiya fanining rivojlanish tarixi so'zlab bering.

ESHITISHDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR RUXIY RIVOJLANISHINING O'ZIGA XOSLIGI

Reja:

1. Eshitishda nuqsoni mavjud bolalar ruhiy rivojlanish xususiyatlarini.
2. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda yuzaga keladigan ruhiy rivojlanish buzilishlari.
3. Barcha bolalar ruhiy rivojlanishidagi umumiy qonuniyat.

Tayanch iboralar: *Infeksion-yuqumli kasalliklar, ruhiy rivojlanish, eshitish analizatori.*

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning ruhiy rivojlanishi tashqi olam bilan aloqa sharoitida amalga oshuvchi rivojlanishning o'ziga xos yo'lidir. Ko'pincha eshituv analizatorining funksiyasi buzilganligi eshituv bilan bog'liq bir qator funksiyalarni to'liq rivojlanmasligiga olib keladi. Xususi ruhiy rivojlanishini buzulishi kar va zaif eshituvchi bolaning ruhiy rivojlanishini tormozlaydi. Bu qisqa saqlanilgan tizimda pertseptiv tizimlarni rivojlanmaganligida namoyon bo'ladi.

Eshitishda nuqsoni mavjud bolalarning ruhiy rivojlanishi eshituvchi bolalarning ruhiy rivojlanishi qonun-qoidalariga bo'ysunadi. Bu umumiy qonun-qoidalar quyidagi qoidalar bilan xarakterlanadi:

Surdopsixologiyada bolaning ruhiy rivojlanishida biologik va ijtimoiy omillarning o'zaro aloqadorligi ta'limoti muxim o'ringa ega. Biologik omillarga nerv tizimining xususiyati temperament tiplari, qobiliyat kiradi. Bolaning tug'ulishgacha xayotida – xomila davridagi bosqichni davom etishi ona kasalligi, u qabul qilgan dorilar, tug'ish travmalari xam biologik omil turkumiga kiradi. Ijtimoiy omillar bola yashab, rivojlanayotgan jamiyat-siyosat, ideologiya tipi, madaniyat, fan va san'at rivojlanish darajasidir. Ijtimoiy muxit shu jamiytdan qabul qilingan ta'lim-tarbiya tizimini belgilari, inson rivojlanishining manbai sanaladi. Ijtimoiy tajribani egallash passiv idrok etish

bilan emas, balki faol formada faoliyatning turli ko'rinishlari-o'yin, muloqot, mehnat, bilim olishda namoyon bo'ladi. Bolalar bu tajribani kattalar yordamida egallaydilar.

Eshitishning buzulishi biologik omillar, asosida tug'ruq patologiyasi, ximik zararlanish asosida amalga oshishi mumkin. Bolalik davrining xususiyatlari kattalarga nisbatan miya strukturasining to'liqsizligi, ruhiyat komponentlarini shakllanmaganligi, nervtizimining plastikligi va kompensatsiyaga moyilligi bilan asoslanadi. Eshitishni buzulishida kompensatsiya rolini ijtimoiy omillar – oilaviy tarbiya, emotsional tarbiya, ota – onaning ta'limi darajasi, ularni mutaxassislar bilan munosabati, korreksion ishdagi ishtiroki katta ahamiyatga ega.

Barcha bolalarni ruxiy rivojlanishidagi umumiy qonuniyat uni vaqt bo'yicha tashkillashtirish hisoblanadi: bola xayotining turli bosqichlarida o'zgaruvchi ritmi shakllanish xususiyatlari bilan belgilanuvchi mazmun bolaning ta'lim tarbiyasi jarayoni xisoblanadi. Ruxiy rivojlanishni bir bosqichidan ikkinchisiga o'tishi ruhiy komponentlarini chuqur shakllanishi, psixologik davr-ontogenizmning o'ziga xosligi o'zida namoyon qiladi.

Bolalar ruxiy rivojlanishi hayot bosqichida miyaning faol shakllanishi bilan asoslanadi.

Bir yoshdan ikkinchisiga o'tishda funksional aloqalarning murakkabligi kuzatiladi. Shuning uchun yosh davri turli pedagogik ta'sirlarga yuqori ta'sirchanligi bilan xarakterlanadi. Bu bosqichlar senzitiv deb nomlanadi har bir yosh davrida aloqa va munosabatlar, psixik funksiyalar qayta qurulishi amalga oshiriladi.

Senzitiv bosqichlar mavjudligi, endi shakllanayotgan ruxiy funksiyalarga ta'lim ta'siri kuchli bo'lishi bilan xarakterlanadi. Nutqni rivojlanishidagi senzitiv bosqichi (yoshdan 3 yoshgacha) eshitishda nuqsoni mavjud bolalarni ruxiy korreksiyasida muxim o'rin tutadi. Bola psixikasi xar bir yosh etapida o'ziga xosdir, bu bola rivojlanishdagi integratsion jarayonlar funksional munosabatlar natijasi o'laroq maydonga chiqadi. Evalyutsiya va invalyutsiya jarayonini birlashishi yangi bosqichda oldingi bosqichdagilarni yangilanishi yoki mavjud

bo'lmasligini asoslaydi. Yuqori ruxiy funksiyalarni rivojlantirish sanaladi. Bu boshqa odamlar, kattalar bilan xamkorlik shakli sifatida namoyon bo'lib, asta – sekin bolaning ichki funksiyasiga aylanib boradi. Yuqori ruxiy funksiyalar-murakkab tuzilmalar bo'lib, kelib chiqishiga ko'ra ijtimoiy xodisadir. Ular maxsus tashkil etilgan vositalar bilan jamiyatni tarixiy rivojlanishi bosqichida shakllanib boradi. "Natural" psixik funksiyalarning oldingi strukturasini o'zgaradi, ular madaniylashib, ongliylik, ixtiyoriylik, asoslanganlik sifatlariga ega bo'la boshlandi.

Eshitishda nuqsoni mavjud bolalarning ruxiy rivojlanishi qonuniyatlari ruxiy rivojlanishdan orqada qolgan bolalar psixik rivojlanishi qonuniyatlariga xos bo'ladi. Rivojlanishda nuqsoni mavjud bolalar atrof muxit bilan muloqotda qiyinchiliklarga duch keladilar, ularda shaxs va o'z – o'zini anglashni rivojlanishi xususiyatlari namoyon bo'la boshlaydi. Turli buzulish, nuqsonlarga ega bolalarning ruxiy rivojlanishi taxlili, L.V.Vigotskiy ta'rifi bilan aytganda nuqson strukturasidan tuzilgan taxlildan kelib chiqadi. Birlamchi nuqson bu o'rinda – eshitishning buzulishi ikkilamchi, uchlamchi nuqsonlarga olib keladi. Ikkilamchi buzulishlar turli sabablarga ko'ra chaqaloqlik, maktabgacha bo'lgan davrda o'xshash xolatda namoyon bo'ladi. Ikkilamchi nuqsonlar tizimli xarakterga ega bo'ladi, funksional o'zaro munosabatlar strukturasini o'zgartiradi. Ikkilamchi nuqson qanchalik birinchisiga yaqin bo'lsa, uni korreksiyalash shunchalik murakkabdir. Masalan, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar talaffuz nuqsoni eshitish buzulishi bilan bog'liq bo'lib, uni korreksiyalash mushkul vazifadir, nutqning boshqa jixatlarini rivojlantirish xali eshitish buzulishi bilan u qadar yaqin aloqada emas, shu sababli ularni korreksiyalash bir muncha yengil kechadi. Ikkilamchi nuqsonlar eshitishdagi buzulishidagi psixo-logo - pedagogik korreksiyaning asosiy obyekti hisoblanadi. Bola ruxiy rivojlanishi o'ziga xosligi ikkilamchi nuqsonlarni erta korreksiyalash lozimligi dalillandi.

Eshitishda nuqsoni mavjud bolalar ta'lim – tarbiyasida tushurib qoldirilgan yillar, yuqori sinflarida kompensatsiya qilina olmaydi, buzulishlarni bartaraf qilinishi uchun uzoq

muddat, kuch talab etadi. Ta'lim jarayonidagi dastlabki to'siq – bu birlamchi nuqson sanaladi. Keyingi bosqichlarda psixik rivojlanishi buzulishdagi ikkilamchi nuqsonlar bolaning ijtimoiy adaptatsiyasiga to'sqinlik qila boshlaydi. Buzilishlarning barcha tiplarida bolaning ruxiy rivojlanishida o'ziga xos qonun – qoidalarni tasniflash mumkin (B.I.Lubovskiy). Buzulishning barcha tiplarida ma'lumotni qabul qilish, qayta ishlash, saqlash va qo'llash qobiliyatini pastligi kuzatiladi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar ruhiy tuzilishlarini bartaraf etish, uning birlamchi nuqsonni ikkilamchi va uchlamchi nuqsonni yuzaga keltirilganligi maxsus tashkil etilgan ta'lim tarbiya jarayonida amalga oshadi.

Savol va topshiriqlar

1. Barcha bolalar ruxiy rivojlanishidagi umumiy qonuniyatni gapirib bering.

2. Eshitishda nuqsoni mavjud bolalarning o'ziga hos ruhiy rivojlanishi xususiyatlarini sanab bering.

ESHITISHDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARNING PEDAGOGIK TASNIFI.

Reja:

1. Italiya olimi D.Kardano karlarni alohida guruhlarga ajratgan.

2. J.Itar karlarni tovush va nutqlarni eshitishiga qarab ajratgan.

3. L.V.Neyman tomonidan eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun yaratilgan tasnif.

4. R.M.Boskis tomonidan eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun tuzilgan pedagogik tasnif.

Tayanch tushunchalar: *Pedagogik tasnif, maktab-internat, nutq, tovush, audiometr.*

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitish amaliyoti shuni ko'rsatadiki, eshitishda nuqsoni bo'lgan har xil guruhdagi bolalarni birgalikda o'qitish yaxshi natijalar bermadi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning defferentsial tashkil etish uchun har xil tamoyilli tasniflash mavjud. Buni ilmiy tadqiqot institutlari xodimlari, O'zbekistonning qator maxsus maktab-internatlari ishlarida o'rgana boshladilar. Ushbu maktab o'qituvchilarini o'rganish, shuni ko'rsatdiki, bu maktablarda o'qitish ishlari asosan birlamchi nuqsonni hisobga olgan holdagina olib borilar ekan.

Ushbu toifa bolalarning rivojlanishida faqatgina birlamchi nuqsonning holati asosiy rol o'ynamaydi, balki qator omillar muhim bo'lib maydonga chiqdi. Birinchi tasniflash XVI asrlarga to'g'ri keladi. Undan Italiya olimi D.Kardano 3 guruh karlarni ajratgan, karlikni vujudga kelish vaqtiga bog'liqligi va nutqiy rivojlanish darajasiga asoslangan:

1) Tug'ma karlar;

2) Erta kar bo'lgan (nutqi rivojlangunga qadar);

3) Kech kar bo'lganlar (nutqi saqlanib qolganlar).

XVIII asr Fransuz pedagogi R.A.Sikar eshitish nuqsoni

har xil bo'lgan bolalarni guruhlarga bo'lishni va ularni bo'lak holda o'qitishni taklif qilgan. XIX asrning birinchi yarmida rus surdopedagogi V.I. Fleri kar va zaif eshituvchi o'quvchilarni, kech kar bo'lib qolganlarni va zaif eshituvchini bo'lak holda o'qitishni taklif qilgan. Parijdagi kar va zaif eshituvchi o'quvchilar instituti vrachi J.Itar besh guruh karlarni, ularning tovushlari va nutqlarning eshitishiga qarab ajratgan:

a. Yuqori nutq va tovushlarni qulog'ining yaqinida eshituvchilar;

b. Unli va undoshlilarni ajratuvchilar;

c. Ayrim unli va undoshlarni ajratuvchilar;

d. Nutqlarni eshitmaydigan lekin baland tovushlarni eshitadiganlar;

e. Umuman eshitishda nuqsoni bo'lganlar.

Biroq, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning differentsatsiyasi, faqat turli darajadagi eshitish qobiliyatini yo'qotganlarni o'qitish bilan ijobiy natijalar bermadi. XIX asr ikkinchi yarmida Peterburg kar va zaif eshituvchi o'quvchilar universiteti Ya.T.Speshnev ikkita bo'linma tuzdi:

- turli xildagi nutqlarga ega bo'lgan eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun;

- imo-ishora asosida muloqot qiluvchilar uchun.

Y.T.Speshnevtomonidan eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar nutq saviyasini yaxshilash bo'yicha differentsatsiyalanadi, asosiy nuqson darajasi hisobga olinmaydi, bunda esa ularni o'qitish mobaynida kerakli samara bermaydi. Eshitish qobiliyati juda nuqsonli bo'lgan bolalarning yuqori o'zlashtiruvchanliklari boshqa tomondan eshitish qobiliyati saqlangan bolalarning nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni intellekti bo'yicha ajratib o'qitishga majbur qiladi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning tasnifini ilmiy tushuntirish zarurati vujudga keldi.

L.V.Neyman bolalik davrida eshitish qobiliyatining buzilishini o'rganish va tasnifini yaratish tarixida uch bosqichni belgilaydi:

1. Kar va zaif eshituvchi o'quvchilarda eshitish qobiliyati tekshirishni tizimlashtirish boshlang'ich ilinishidan, toki

amaliyotda eshitish o'lchagich uskunasi qo'llash – kamerton to'plamidan foydalanishni amaliyotda qo'llash;

2. Kamertondan toki audiometr gacha davr;

3. Yangi hozirgi talabga javob beradigan amaliyotga kiritilgan audiometr.

Eshitish funksiyasining qanchalik zararlanganligini aniqlash uchun u tomonidan karlar va zaif eshituvchilarning eshitish qobiliyatini tonal audiometriya va nutq orqali tekshirish ishlari olib borilgan. L.V.Neyman eshitish chastotalari maydoni yordamida qabul qilish diapozoniga asoslanib karlarni to'rtta guruhga ajratadi:

1-guruhda eng nuqsonli bo'lgan chastotalarni qabul qiladiganlar 125-250 Gk. Bu bolalar tovushlarning birortasini ham ajrata olmaydilar, faqat quloq oldida baland ovozni eshitadilar.

2-guruh 125-250-500 Gk chastotalarni qabul qiladi. Bu bolalarni faqatgina eshitibgina qolmay, "o", "u" unlilarni ajratadilar. Yaqin masafada atrof muhitdagi tovushlarni eshitadilar.

3-guruh nutqsonli bo'lgan va o'rta 125-250-500-1000 Gk chastotalarni qabul qiladi. Bu guruh bolalari quloq oldida so'zlashuvchi balandligidagi ovozlarga e'tibor beradilar, 3-4 unlilarni angaydilar, ularning ko'pchiligi ba'zi tanish so'zlarni anglashadi.

4 guruh 125-2000 Gk. Bu guruhdagi ko'pchilik bolalar quloq oldida va uzoq bo'lmagan masafadagi gaplarni eshitadilar. Tanish gaplarni va so'zlarni, unli va undoshlarni ajratadilar.

Zaif eshituvchilarda mustaqil nutq qiyinlashuvi, eshitish qobiliyatining pasayishi 15-20 dB da qosil bo'ladi. Buni L.V.Neyman yaxshi eshituvchilar bilan zaif eshituvchilar o'rtasidagi taxminiy chegara deb qabul qilishni taklif etadi.

Zaif eshituvchilar bilan karlar o'rtasidagi taxminiy chegarasi esa 80 dB dir.

L.V.Neyman tomonidan yaratilgan eshitish nuqsoni tasnifi, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning pedagogik tasnifi ilmiy tasniflashga ko'ra, maxsus differentsatsiyalab o'qitish kerakligini

tasdiqlaydi.

Funksional holda shikastlanganlarga yaqin bo'lganlar boshqalarga ko'ra ko'proq jabrlanadilar. Biror-bir analizatori qanchalik shikastlangan organlar bilan kamroq bog'liq bo'lsa, shunchalik u yaxshi ishlaydi.

R.M.Boskis tomonidan tuzilgan pedagogik tasnif eshitish qobiliyatini nutq bilan psixologik bog'lanishiga asoslangan. Tasnifning nazariy asosini quyidagi holatlar tashkil etadi:

- a. Eshitish qobiliyatining buzilish darajasi;
- b. Eshitish nuqsoni yuzaga kelgan vaqti;
- c. Eshitishning yo'qolganidan so'ng bolaning qaysi pedagogik sharoitlarda bo'lishi;
- d. Bolaning individual xususiyatlari.

Yuqoridagilardan tashqari R.M.Boskis eshitishda nuqsonlari bo'lgan bolalarni ikkita asosiy toifaga bo'lgan: karlar va zaif eshituvchilar. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar sarasiga tug'ma yoki o'rta yoshda orttirgan karlik natijasida nutqni mustaqil egallay olmaydigan bolalar kiritilgan. Zaif eshituvchi bolalar qatoriga esa, eshitish qobiliyati pasaygan bo'lsa-da, minimal darajada nutqni mustaqil egallay oladigan bolalar kiritilgan. Bu toifalar asosida R.M.Boskis bolalarni ikki guruhga bo'ladi:

Erta kar bo'lib qolganlar (2-3 yoshgacha). Buning natijasida ular umuman nutq malakalariga ega bo'lolmaydilar.

Kech kar bo'lib qolganlar. Karlik kelib chiqishidan oldin ular ma'lum nutq malakalarini egallashga muvassar bo'lganlar va bu malakalarining ma'lum darajasi saqlangan bo'ladi.

Erta yoshda zaif eshituvchi bo'lib qolgan bolalarning nutqiy rivojlanishini eshitish qoldiqlari asosida tabiiy sharoitda ya'ni tabiiy muloqotda olib borish mumkin.

Yuqorida aytilganidek, R.M.Boskisning eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning pedagogik tasniflanish, eshitish va nutqning psixologik urganishlar asosida qurilgan. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolaning rivojlanishida o'ziga xos ko'rsatgichda, quyidagi nazariy taqsimlanishlarga asoslangan.

Yosh boladagi eshitish analizatori faoliyatining buzilishi

kattalarning o'xshash nuqsonidan farqli ravishda quriladi. Katta odamda paydo bo'lganga qadar nutq, idrok va barcha shaxsiyatlar shakllangan bo'ladi. Bolalik davrida eshitishni yo'qotish esa, bolaning psixik rivojlantirishda salbiy ta'sir ko'rsatib, bir qator ikkilamchi nuqsonlarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Eshitishda kamchiligi bo'lgan bolalarning nuqsonli rivojlanishini to'g'ri tushunish uchun shu holatdagi eshitish kamchiligida nutqni mustaqil egallay olish imkoniyatini inobatga olish katta ahamiyatga ega. Bir tomondan eshitishning buzilish nutqning me'yoriy rivojlanishiga to'sqinlik qilsa, boshqa tomondan eshitishning me'yoriy rivojlanish to'g'ri nutqning rivojlanishi darajasiga aloqador bo'ladi. Bolada nutqning qanchalik darajasi yuqori bo'lsa, eshitish qoldiqlarini ishlatish imkoni shunchalik samarali bo'ladi.

Karlik – eshitish qobiliyatining umuman yo'qolganligidir. Bundan nutqni mustaqil egallay olmasligi hamda o'zgalar nutqini faqat eng yaqin masafada idrok etish holatlari mavjud. Total karlik kam uchraydi.

Zaif eshituvchi – eshitish qobiliyatining pasayishi. Bunda zaif eshituvchi eshitish funksiyasi saqlangan holda ma'lum bir minimal nutqiy zaxirani mustaqil egallay olish imkoniyatiga ega.

Savol va topshiriqlar

1. Mamlakarimizda qaysi olimning eshitishda nuqsoni bor bolalar uchun yaratgan pedagogik tasnifi keng tarqalgan?
2. Italiya olimi D.Kardano karlarni qanday guruhlariga ajratgan?
3. J.Itar karlarni tovush va nutqlarni eshitishiga qarab qanday guruhlariga ajratgan?

ESHITISHDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR SEZGISINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Reja:

1. Sezgi haqida tushuncha.
2. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar sezgisining o'ziga xosligi.
3. I.P.Pavlovning tajribasi.
4. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar sezgisini rivojlantirishga oid tadqiqot. ishlarini olib borgan olimlar.

Tayanch tushunchalar: *Sezgi, idrok, sensor retseptorlar, fiziologik, reflektor, retseptor.*

Sezgi – inson sezgi organlariga ta'sir qiluvchi predmet va qodisalarining eng sodda ruhiy jarayonidir. Inson sezgisi tovush, rang, shakl dunyosi haqida ma'lumot beradi. Sezgidan farqli o'laroq idrok predmet va qodisalar yaxlit obrazini o'zida namoyon qiladi. har qanday anglash jarayoni idrok etish va sezishdan boshlanadi. Bu uning dastlabki sezgi bosqichidir. Lekin idrok atrofdagi olam haqida to'liq tasavvur berolmaydi. Meteriyani biz bevosita idrok etolmaydigan xossalari mavjud. Tashqi olamni anglash va aks etishning eng yuqori formasi tafakkurdir.

Ma'lumki bizni o'rab turgan tashqi olamdagi narsa va hodisalarning juda ko'p belgi va xususiyatlari mavjud. Masalan, narsalarning rangi, ta'mi, hidi, qattiq yoki yumshoqligi, g'adir-budur yoki tekisligi, harorat va boshqalar. Ana shu narsa va hodisalarning turli xil belgi, xususiyatlarini biz ham turlicha sezgi a'zolarimiz orqali ongimizda aks ettiramiz.

Tashqi olamdan bizni tanamizga milliardlab ko'zga ko'rinmas zararli narsalar hujum qiladi. Bizning qorong'i ichki dunyoimizda esa sirli miyamiz ishlaydi. Bu fakt esa psixologiyaning yuqori ming yildan ortiq fundamental muammosini ko'taradi. Zamonaviy tilda esa uni quyidagicha talqin qilsa bo'ladi: tashqi olam xaqidagi tasavvurlarimizni

qanday tuzishimiz; lagerdagi gulxanni yonishidan chiqayotgan tutunining aktiv neyron zanjirlariga aylanishi? Qanday qilib biz tirikneyroximiyadan olovning to'liqini, temperaturasini hamda olovni tutuni hidini anglaymiz? Miyamizda dunyoni rasmini aks ettirishimiz uchun, tashqi dunyoni fizikaviy energiyasini bilishimiz va uni nerv signallari shaklida kodlashimiz, va bu jarayon an'anaviy sezgi deyiladi. So'ng esa biz buni olib biz o'z sezgilarimizni tashkil qilishimiz va sharxlashimiz, va bu jarayon an'anaviy idrok deyiladi. Bizning kundalik amaliyotimizda sezgi va idrok uzilmas bir jarayonga aytiladi.

Miyasi shikastlangan bemorlarda ham qandaydir sezgi va idrok zanjirlari bor. Miya po'stlog'ining chakka qismi buzilganda, inson yuzini tanish javobgarligi yo'qoladi va bu kasallik prosopagnoziya deb nomlanadi. Unda sezgilari normal, lekin idroki normal emas. U ma'lumotlarni ko'rib qabul qila oladi va insonni yuz tuzilishini xarakterlab bera oladi, lekin uni taniy olmaydi. Unga notanish chexrani ko'rsatishganda u bunga e'tibor beraydi. Unga tanish chexrani ko'rsatishganda, avtonom nerv sistemasi reaksiyasi shuni ko'rsatadiki u xavotirlanadi va terlashni boshlaydi, lekin bu inson kimligini aytib bera olmaydi. U o'z chexrasini ko'zguda ko'rganda, yana shu chalkashlikga keladi. Miyani buzilganligi sababli, u ma'lumotlarni sxema bo'yicha tepadan pastga qrab ishlolmaydi – to'plangan bilimlarni sensor ma'lumotlar bilan bog'lay olmaydi.

Tevarak-atrofimizdagi narsa va hodisalarning turli xil belgi hamda xususiyatlari har doim ham bizning sezgi a'zolarimizga ta'sir etib turadi. Natijada bizda turli sezgilar hosil bo'ladi. Chunonchi, nurlarning ko'zimizga ta'sir qilishi natijasida ko'rish sezgisi, har xil tezlik va kuchlanishdagi havo to'liqlarining qulog'imizga ta'sir etishi natijasida eshitish sezgisi, nafas olish paytida havo bilan birga burun bo'shlig'iga kirgan har turli modda zarrachalarining ta'siri natijasida hid sezgisi, biror narsani qo'limiz yoki badanimizga tegib ta'sir etish natijasida teri (taktil – biror narsaning terimizga tegishi) yoki bosim sezgisi va shu kabi sezgilar har doim hosil bo'ladi.

Demak, sezgi deb, atrofimizdagi narsa va hodisalarning

sezgi a'zolarimizga bevosita ta'sir etishi natijasida ularning ayrim belgi va xususiyatlarini miyamizda aks ettirilishini aytamiz.

Sezgi bilish jarayonlari ichida oddiy psixologik jarayon bo'lib, tashqi olamdagi narsa va hodisalarni aks ettiradi. Tashqi olamdan kelayotgan qo'zg'atuvchilarning muayyan retseptorlarga bevosita ta'sir etish orqali ayrim belgi va xususiyatlarni va organizm ichki holatini aks ettiradi. Ma'lumki, insondan sezishning dastlabki bosqichi hissiy bilishdan boshlanib, keyinchalik u mantiqiy bilishga o'tadi. Sezgi ham oddiy psixologik jarayon bo'lgani bilan uning yuzaga kelishi o'z-o'zidan hosil bo'lmaydi. Ular jumlasiga quyidagilar kiradi:

Sezgi a'zolariga ta'sir etadigan narsa va hodisaning bo'lishi.

Sezuvchi apparat, ya'ni analizatorning mavjud bo'lishi. Masalan, havoning sovuqligini, temirning qattiqligini, qorning yumshoqligi va boshqalarni sezamiz.

Sezgi idrok bilan bog'liq bo'ladi, lekin narsa va hodisani idrok qilishdan oldin uni sezish lozim, shu bois sezgilar materiyaning sezgi a'zolarimizga ta'siri natijasidir. Sezgi axborotlarini qabul qilib, tanlab, to'plab, har bir sekundda axborotlar oqimini qabul qilib va qayta ishlab miyaga etkazib beradi. Natijada tevarak - atrofdagi tashqi olamni va organizm o'z ichki holatini adekvat "mos" aks ettirishi hosil bo'ladi. Sezgi a'zolari tashqi olamning inson ongiga olib kiradigan yo'llaridan biridir.

Ma'lumki, sezgilar faqatgina tashqi ta'sirlar natijasida hosil bo'lmay, balki organizmning ichki holatida ham amalga oshiriladi. Sezgi nerv tizimining u yoki bu qo'zg'atuvchidan ta'sirlanuvchi reaksiyalari tarzida hosil bo'ladi va har qanday psixik hodisa kabi reflektorlik xususiyatiga egadir. Sezgilarning nerv - fiziologik asosini qo'zg'atuvchining o'ziga aynan o'xshaydigan analizatorga ta'siri natijasida hosil bo'ladigan nerv jarayoni tashkil qiladi. Shuningdek, sezgilarning nerv fiziologik asosini o'rganishda I.P.Pavlov ta'biri bilan aytganda analizator apparati tashkil etadi.

Analizator - tashqi va ichki muhitdan keladigan ta'sirotlarni qabul qilib olib, fiziologik jarayon bo'lgan qo'zg'alishni psixik jarayonga, ya'ni sezgilarga aylantiruvchi nerv mexanizmlari tizimi.

Analizator apparati 3 qismdan tashkil topgan bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- periferik (retseptor) - tashqi quvvatni nerv jarayoniga o'tkazadigan maxsus transformator qismi;

- analizatorning periferik bo'limining markaziy analizator bilan bog'laydigan yo'llarni ochadigan afferent (markazga intiluvchi) va efferent (markazdan qochuvchi) nervlar;

- analizatorning periferik bo'limlaridan keladigan nerv signallarining qayta ishlanishi sodir bo'ladigan qobiq osti va qobiq bo'limlari.

Analizatorning qobiq bo'limida retseptor hujayralarining asosiy qismi jamlangan o'zak, ya'ni markaziy qism va qobiqning turli joylarida ma'lum miqdorda mavjud tarqoq hujayra qismlaridan tarkib topgan tashqi qism bo'ladi. Analizatorning o'zak qismida retseptordan markazga intiluvchi nervlar joylashgan bo'lib, ko'plab hujayralardan iborat. Mazkur analizatorning periferik, ya'ni tarqalib ketgan qismlari boshqa analizatorlarning o'zaklari bilan yondosh sohalariga kiradi va alohida narsalarni izlash jarayonida butun bosh miya qobig'ining katta qismi ishtirok etishiga erishiladi. Analizatorning o'zagi analiz va sintez qilish funksiyasini bajaradi, masalan, tovushlarning balandligi.

Tarqoq qismlar dag'al analiz funksiyalarni, masalan musiqiy ohang va tovushlarni farqlash bilan bog'liq bo'ladi.

Analizator nerv jarayonlarining yoxud reflektor yoyining butun yo'li manbasi va eng muhim qismini tashkil etadi. Reflektor yoyi retseptordan ta'sirotni miyaga olib boruvchi nerv yo'llari va effektordan tarkib topgandir. Reflektor yoyi elementlarning o'zaro munosabati murakkab organizmning tevarak-atrofdagi olamda to'g'ri mo'ljal olishning organizmning yashash sharoitlariga muvofiq tarzidagi faoliyatining negizini ta'minlaydi.

Rivojlanishda nuqsoni mavjud bolalar sezgisi atrof muhitni ob'ektiv aks ettiradi va predmet hamda hodisalarni anglashning muhim bosqichi sanaladi. Kar bola idrok va sezgi asosida atrofda predmetlar rangi, mazasi, qidi, shakli haqida ma'lumot oladi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar sezgisi va idroki shakllanishining umumiy qonuniyatlari bilan birga spetsifik xususiyatlarga ega bo'ladi. Avvalombor, bu bolalarda asosiy sezgi turlaridan biri eshituv sezgisi mavjud bo'lmaydi. Bizning organizmimizga doimo tovush ta'sirotlari ta'sir ko'rsatadi. Rivojlanayotgan bola asosiy bilim manbaini eshituv sezgisi, idroki orqali qabul qiladi. U atrofda qabul qiladigan muloqotga kirishib, radio, musiqa eshitib, kino, teatrlarni tomosha qilib, ko'p ma'lumotga ega bo'ladilar. Kar bola bunday imkoniyatlardan chegaralangan bo'ladi. Bu atrofni anglash jarayonini qiyinlashtiradi va kompensatsiyani talab etadi.

O'z navbatida bu ko'ruv, harakat, hidlash sezgisi va idroki rivojlanishga salbiy ta'sir ko'rsatadi quyida biz bu sezgi va idrok turlarining o'ziga xos xususiyatlarini ko'rib chiqamiz.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda eshituv sezgisi mavjud emas degan fikr noto'g'ridir. Yangi okustik apparatlar yordamida o'tkazilgan tadqiqotlar natijalari ko'rsatishicha, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning 40 %da eshituv sezgisi qoldiqlari mavjudligini ko'rsatdi. Ulardan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish mumkin. XIX asrda I.I.Fleri, so'ng N.M. Lagovskiy va boshqa tadqiqotchilar ham karlar eshituv qoldiqi mavjudligini e'tirof etadilar. N.M.Lagovskiy ta'kidlashicha, bu eshituv qoldiqini faollashtirish, rivojlantirish mumkin. Gartmani tadqiqotlariga tayanib, N.M. Lagovskiy eshituv idroki darajasiga ko'ra bir necha guruhlarini tasniflaydi. Bu guruhlardan biriga kiruvchi bolalarda eshituv idroki ma'lum darajada mavjud bo'lib, u nonutqiy tovushlarni farqlash imkonini beradi. Boshqa bolalarda eshituv idrokining darajasi balandroq bo'lib, u unli tovush, bo'g'in, so'zlarni farqlash imkonini beradi.

Yaxshi ishlangan tadqiqot uslubiyoti va takomillashgan apparaturani qo'llash chaqaloqlik yoshida bolaning eshituv

funktsiyasi holatini o'rganish imkonini beradi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar maktabida pedagogik jarayonda eshituv qoldiqidan foydalanish imkonini beruvchi tovush kuchaytiruvchi apparatlar bilan jihozlangan maxsus eshituv xonalari mavjud bo'ladi. Tadqiqotlar natijalari ko'rsatishicha, eshituv qoldiqi mavjud bolalar nutqining umumiy ritmi, so'zli va mantiqiy urg'ularni oson egallaydilar, bu ular nutqini tushunarli va yaxlit bo'lishga sabab bo'ladi.

Davomiy mashg'ulotlar mashqlar jarayonida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar eshituv idroki faollashtiriladi. Bunda eshituv idrokining rivojlanishi anotomo-fiziologik mexanizmining tiklanishi evaziga emas, balki eshituv idrokini faollash yo'li bilan amalga oshadi.

Savol va topshiriqlar

1. Sezgi haqida qanday tushunchaga egasiz?
2. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar sezgisining o'ziga xosligini gapirib bering.
3. I.P.Pavlov qanday tajriba olib borgan?
4. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar sezgisini rivojlantirishga oid qaysi olimlar tadqiqot ishlarini olib borgan?

ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR IDROKINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Reja:

1. Idrok haqida tushuncha.
2. L.V.Zankov, I.M.Solovev, K.I.Veretsotskoy tadqiqotlarida idrok haqidagi fikrlari.
3. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar idrokining o'ziga xosligi.

Tayanch tushunchalar:Idrok, ong, taqqoslash, anglash, jarayon, mimika, daktilologiya.

Idrok — tirik organizmning ma'lumotlarni qabul qilib, qayta ishlash jarayoni; organizmga obyektiv reallikni aks ettirish va tashqi olamdagi yangidan-yangi vaziyatlarni baholab, shunga yarasha harakat qilish imkonini beradi.

Idrok ongning , miyaning ijodiy jarayonidir. Idrokning fiziologik asosi bosh miya yarim sharlari po'stlog'ining analiz va sintez faoliyatidan iborat. Bu faoliyat sezgi a'zolarimizga ta'sir qilib turgan narsalarning bitta xususiyati bilan emas, balki jami xususiyatlarining ta'siri bilan bog'liq. Idrok ana shu barcha xususiyatlar o'rtasidagi muvaqqat bog'lanish natijasida yuzaga keladi. Inson miyasining umumlashtiruvchi faoliyatiga asoslangan idrok jarayoniga kishining tajribasi, bilim, abstrakt tafakkurning faoliyati va boshqalar ham ishtirok etadi. Shuning uchun kishilarayni bir narsa yoki hodisa niyoshlari, ma'lumotlari, turmush tajribalari, kasblari, ijtimoiy kelib chiqishlari, xarakteri, qobiliyati va qiziqishlarida ko'rinadigan shaxsiy xususiyatlariga qarab har xil idrok qiladilar. Masalan, tegishli ixtisosi bo'lmagan kishining birorta yangi mashinani idrok qilishi ixtisosi bor odamning idrokiga qaraganda tor va yuzaki bo'ladi. Idrokning muhim xususiyatlaridan biri barqarorligidir. Inson bir vaqtda idrok qilgan narsani o'z xotirasida saqlab qolish va uni qayta tiklash qobiliyatiga ega. Bir narsaning ana shunday qayta tiklangan timsoli idrok jarayonining ajralmas

qismi. Idrokning xususiyati ko'p jihatdan hissiy kechinmalarga (shodlik, g'amginlik, tajanglik va h.k.) ham bog'liq. Masalan, kishining ta'bi xira vaqtida tabiat manzaralari unga allaqanday ko'rinsa, ta'bi chog' vaqtida u butunlay boshqacha ko'rinadi.

Kar bolada eshituv sezgisi va idrokini yo'qolishi sababli ko'ruv sezgisi va idroki asosiy o'rin tuta boshlaydi. Kar bolaning ko'ruv analizatori atrofdagi olamni anglashda asosiy ahamiyatga ega bo'ladi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalardagi ko'ruv sezgisi va idroki eshituvchi bolalar darajasida bo'lishi L.V.Zankov, I.M. Solovev, K.I. Veretsotskoy, tadqiqotlarida dalillangan.

Xattoki, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda ko'ruv sezgisi va idroki faollashtirilishi haqida ma'lumot berilgan. Shu sababli eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar eshituvchi bola ahamiyat bermaydigan tashqi olam xususiyatlari va nozikliklariga ahamiyat beradi. Eshituvchi bolalar karlarga nisbatan yashil, slyohrang, qizil, sabzi ranglar ko'p almashtiradilar. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar ranglarni nozik farqlaydilar. L.V.Zankov va I.M. Solovev ta'kidlashicha, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar chizgan rasmlarda, eshituvchi bolalar chizgan rasmlarga nisbatan ko'p detal va qismlarni qamrab olgan bo'ladi. Kar va eshituvchi bolalar rasmlari taqqoslanganda eshituvchi bolalar rasmlarida predmetlarning muhim qismlarini tasvirlarda mavjud emasligi ko'rinadi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar rasmlarida bunday kamchiliklar kam bo'ladi, lekin ular fazoviy munosabatlar ifodalangan rasmlarni qiyinchilik bilan chizadilar. L.V.Zankov va I.M.Solovo'v ta'kidlashicha ko'ruv idroki jarayonida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar eshituvchilarga nisbatan predmetning qo'shimcha detallariga ko'p ahamiyat beradilar. Shu sababi, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda idrokning analitik tipii sintetik tipidan ustun turadi, deb ko'rsatish mumkin. I.M.Solovo'v bu holat eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda eshituvchi bolalarga nisbatan ko'ruv sezgisi ustun degan xulosaga olib kelmaydi, deb e'tirof etadi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning nutqi shakllanishida ko'ruv idroki katta ahamiyatga egadir. Eshituvchi bola eshituv

va ko'ruv sezgisi va idrokiga tayanib, gapirishni o'rganadi.

Nutqi mavjud bo'lmagan eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar ta'limning boshlang'ich bosqichlarida idrok etilganini umumlashtirish va sintezlashda, tasniflashda qiyinchilik sezadilar (Masalan: boshlang'ich sinfdagi eshitishda nuqsoni bo'lgan bolaga qizil qalamni ko'rsatib, bu nima deb savol berilganda, u qizil deb javob beradi). Bu rang va predmet tushunchasi bola idrokida yetarli darajada taqsimlanmaganligidan dalolat beradi. Bunday differentsial va taqsimlash eshitishda nuqsoni bo'lgan bola nutq egallaganida, uning nutqida predmet va sezgi ma'nosini ifodalovchi so'zlar uning lug'atida shakllanganida imkon tug'iladi.

Shunday qilib, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda ko'ruv idroki va sezgisi atrof-olamni anglashda katta ahamiyatga ega ekan. Eshituv sezgisini yo'qotish bilan eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda ko'ruv sezgisi faollashadi, o'tkirlanadi. Ko'ruv idrokidan tashqari, anglash jarayonida hidlash va xarakat sezgilari ham muhim o'ringa egadir. Xarakat sezgilari inson badani, qismlari, nutqiy organlar xarakati haqida signal beradi. Eshituv analizatori funksiyasini buzilishda nutqiy xarakatlar aniqligi, differentsiallanganligi buziladi. I.M.Solovyov va boshqa olimlar eshituvning yo'qolishini nafaqat artikul apparat sezgisi, balki nafas olish apparatining xarakat sezgisiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Chunonchi, mimika, daktilologiya kabi nutq shakllari harkat va ko'ruv sezgilari asosida shakllanadi. Teri sezgilari taktil va temperatura sezgilarini qamrab oladi. Ular birligi premet, uning shakli, kattaligini ifodalovchi materialni anglash imkonini beradi. Bu sezgilar retseptorlari bormoq uchlarida, til uchida joylashgan bo'ladi. Sezgilar faol faoliyatni talab etadi va retseptorlarni ta'sirlovchilar bilan kontakti davomida yuzaga keladi. Teri sezgilari, idrok boshqalar bilan birga predmetni to'liq idrok etishga yordam beradi. Teri sezgilari predmetni ko'rish orqali idrok etishni to'ldiradi. Asosan predmetlarni hajmi va fazoviy joylashuvida idrok etishda, predmetlarni tashqi qatlamini sezishda teri sezgilarining ahamiyati kattadir. U materialni ko'rish orqali anglashga ko'rish ega o'z navbatida

sezishga yordam beradi. Biz sezgilarni o'rganish nafaqat maxsus psixologiya, balki umumiy psixologiya uchun ham katta ahamiyat kasb etadi.

Savol va topshiriqlar

1. Idrok haqida tushuntirib bering.
2. L.V.Zankov, I.M. Solovevlar eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar idrokining o'ziga xosligi
3. K.I. Veresotskoy, idrok haqida qanday g'oyani ilgari surgan.
4. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar idrokining o'ziga xosligi nimalardan iborat.

ESHITISH QOBILIYATI BUZILGAN SHAXSLARNING DIQQAT XUSUSIYATLARI

Reja:

1. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar diqqati haqida tushunchalar.
2. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar diqqatning turlari.
3. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning diqqatini tekshirish.
4. Diqqatni tekshirish metodikalari.
5. Zaif eshituvchi va kar bolalarning diqqati haqidagi olimlarning fikrlari.

Tayanch tushunchalar: *Diqqat, subyekt, aktiv, passiv, ong, qo'zg'atuvchi.*

Diqqat haqida umumiy psixologiyada bir qancha ma'lumotlar mavjud. Shularga qaramasdan diqqatga oid so'nggi ma'lumotlar, xulosaviy fikrlar yetarli emas. «Diqqat-ongimizning muayyan ob'ektga yo'naltirilishi va unda to'planishidan iborat psixik holat. Diqqat ixtiyorsiz, ixtiyoriy va ixtiyoriydan keyingi turlarga ajratiladi»- deb bayon etilgan izoqli lug'atda. Diqqat – subyekt faoliyatining biror ob'ekt yoki hodisaga jalb qilinishi. U har qanday ongli faoliyat samaradorligining zarur shartidir. Bosh miya po'stlog'ining muayyan joylaridagi optimal qo'zg'alish manbalari diqqatning fiziologik asosini tashkil qiladi. Diqqat ikki turga bo'linadi: ixtiyorsiz (passiv) diqqat va ixtiyoriy (aktiv) diqqat ixtiyorsiz diqqat biron tashqi sabab ta'sirida kishi xohishidan qat'i nazar hosil bo'ladi. Bunday diqqat odamdanda iroda kuchini talab qilmaydi. Diqqatni jalb qilish uchun qo'zg'atuvchining kuchi katta ahamiyatga ega; narsaning chiroyliligi, yorqinligi, o'tkir hidliligi va b. xususiyatlari diqqatni beixtiyor tortadi. Ixtiyoriy diqqat va psixik faoliyat oldindan belgilangan maqsad bilan muayyan narsaga ongli ravishda jalb etiladi. Diqqatning bu turi iroda kuchini talab qiladi; shuning uchun bu diqqat irodaviy

diqqat deb ham ataladi. Insonning butun ongli faoliyati asosan ixtiyoriy diqqat vositasida amalga oshiriladi. Diqqatning barqarorlik, ko'chuvchanlik, bo'linuvchilik kabi xususiyatlari, ko'lami bor. Diqqatning barqarorligi uning yagona, umumiy (masalan, kitob o'qish, masala yechish kabi) ishga xizmat qiluvchi narsa yoki hodisaga uzoq muddat jalb bo'la olishidan iborat. Bunda harakat obyektlari (masalan, kitob matni, masalada berilgan sonlar va shu kabilar) hamda harakatning o'zi (masalan, masalani yechish yo'llari) o'zgarib turishi mumkin, lekin faoliyatning umumiy yo'nalishi o'zgarmay saqlanishi lozim. Ko'chuvchan diqqat bir faoliyatdan yoki narsadan boshqa faoliyat yoki narsaga tez jalb bo'ladi. Bu xususiyat diqqatning avvalgi narsaga qay darajada qaratilganligiga va yangi faoliyatning xususiyatiga (uning diqqatni qanchalik qarata olishiga) bog'liq. Diqqatning bo'lina olish xususiyati bir vaqtning o'zida 2 yoki undan ortiq ish-harakat bajarishda aks etib, ko'p kasb egalari (masalan, o'qituvchi, shofyor, uchuvchi) uchun ayniqsa katta ahamiyatga ega. Bu xususiyat bir faoliyatni bajarish xiyla avtomatlashib, ikkinchi faoliyat bir qadar tanish bo'lib qolgandan keyin tarkib topadi. Diqqat ko'lami uning eng qisqa vaqt ichida (go'yo birdaniga) o'z doirasiga sig'dira olishi mumkin bo'lgan narsalar soni bilan belgilanadi. Shu jihatdan diqqat keng yoki tor bo'lishi mumkin. Odatda, keng ko'lamli diqqat yaxshi diqqat hisoblanadi. Diqqat ko'lami idrok qilayotgan narsalarning hamda ularni idrok qilayotgan kishi faoliyatining vazifasi va xususiyatiga bog'liq. Diqqatning aksi parishonxotirlikdir. Bunda odam diqqatini biror narsaga to'play olmay, hamma vaqt boshqa narsalarga chalg'iyveradi. Shunday holat kishi qattiq charchaganda, uning uchun ahamiyatsiz juda ko'p qo'zg'atuvchilar mavjudligida yoki, aksincha, bitta ham qo'zg'atuvchining odam uchun ahamiyati bo'lmaganda ro'y beradi. Mashq qilish bilan parishonxotirlikka barham berish mumkin. Diqqatning turlari va xususiyatlari odamning juda yoshlik davridan boshlab rivojlanadi va hayoti davomida o'zgarib, murakkablashib boradi.

Shuni ta'kidlab o'tmoq joizki, qator mualliflar diqqatni

shaxsiy sifat deb tan olsalar, ayrim psixologlar esa diqqatni ruhiy jarayon sifatida ta'kidlaydilar. Bularning qaysi birlari mantiqqa yaqin, qaysi birlari yaqinligi xulosa qilgandan ko'ra, bizningcha diqqat shunday ruhiy «mahsulki», u barcha ruhiy jarayonning sermahsul, samarador bo'lishini ta'minlaydi. Ba'zan shaxsiy sifat shaklida ham namoyon bo'lishi mumkin. Anglagan bo'lsangiz muammo siz o'ylagandek sodda emas. Insonning bilim olishlarida idrok, tushunish va bilimlarini egallash asosida diqqat yotishi hech kimga sir emas. Bu haqida mashhur olimimiz P.Ya.Galperin fikrlari e'tiborga molik. «Harakatlar ustidan nazorat qilish to'la diqqat mohiyatiga kiradi. Lekin, barcha nazoratlar diqqat bo'la olmaydi. Balki, avtomatlashgan, yoyilgan aqliy harakatlar nazoratidir». Diqqat mohiyati inson tomonidan biror narsalarni aniq oydin tarzda aks ettirishda ko'zga tashlanadi. Bir vaqtning o'zida boshqa narsalardan biror predmetni ajratib idrok etishga yordam beradi. Diqqatning fiziologik asosiga bosh miya ayrim qismlaridagi qo'zg'alishlarning ayrim markazlarda to'planishi tashkil etadi.

Inson tomonidan sezgilar orqali qabul qilinayotgan barcha narsalarni idrok etish diqqatsiz amalga oshmaydi. Idrok, demak diqqatsiz yuz bersa yuzaki, fragmentar sodda tarzda amalga oshadi. Shu bois, o'quvchilarning o'quv fanlarini to'la, keng o'zlashtirishlarida, ma'lumotlarni tushunishlarida diqqat jarayoni o'ta muhimdir. Ma'lumki, diqqat ilk yoshlardan oq rivojlana boshlaydi. Chaqaloqlardagi «Bu nima ekan?» refleksi aynan diqqat rivojidan darak beruvchi holatdir. Buning asosida mo'ljallash refleksi yotadi. Buning barchasi ixtiyorsiz diqqatning shakllanishiga olib keladi. Maktab yillarida bolalarda ixtiyoriy diqqat tez suratlar bilan rivojlanadi. Shu bilan birga diqqat xususiyatlari: turg'unlik, bo'linuvchanlik, taqsimlanish, ko'chish kabilar ham tez suratlar bilan takomillashib boradi. Diqqatni biror joyiga to'play olish, uni shu nuqtada ma'lum muddat ushlab turish diqqatning sifatlaridandir. Diqqatni bo'la olish har bir shaxsning qo'lidan kelavermaydi. Bu narsa asab tolalari, hujayralarining harakatchanligiga bog'liq.

Diqqat asosan o'quv faoliyat asosida amalga oshib boradi. Normal eshituvchi shaxslarda ham, eshitish qobiliyati buzilgan shaxslarda ham ta'lim-tarbiyaning asosiy maqsadi diqqatni tarbiyalashdir. Nuqsonli bolalar diqqati qator bolalarda, bolalar diqqatini o'qituvchi, tarbiyachining og'zaki nutqi boshqarib borsa, eshitish qobiliyati buzilgan bolalar diqqatida ko'rish taassurotlar yetakchilik qiladi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar bir vatqning o'zida ham ko'rgazma materiallarni idrok qilish, ham o'qituvchining labidan o'qib olish amalda mumkin emas. Shu bois, bu bolalarga dastlab narsalar namoyish etiladi. Undan keyin ular tushuntiriladi. Bu toifa bolalarda I va II – signal tizimlari orasida munosabatlar tez shakllanmaydi. Sinflar yuqorilashgan sari eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar bosh miyalaridagi qo'zg'alish markazlari izchillashib boradi. Asta – sekin bu holat normal bolalar xususiyatlariga yaqinlashib boradi. Bu ishlar surdopedagogning ishini bir muncha murakkablashtiradi. Ayniqsa, boshlang'ich sinflarda o'qituvchi, tarbiyachilar og'zaki ko'rsatmalar bilan bolalar diqqatini boshqara olmaydi. Bu toifa bolalar diqqatini ko'rish va tebranish qo'zg'atkichlari orqali boshqarib borish imkoniyati mavjud.

Bu bolalar diqqatini to'plash, yig'ish, tarbiyalashda turli-tuman ko'rgazmali qurollardan keng foydalanish ijobiy samaralar beradi. Og'zaki nutq umuman nutq orqali karlar bilan muloqot qilish surdopedagoglarning bolalar bilan bo'ladigan faoliyatlarida asosiy vositadir. Bu bolalarda nutqni o'stirish orqali ular diqqatini boshqarib, tarbiyalab borish mumkin. Bu bolalar o'qiydigan maktab, sinfdagi bolalarning 8-12 tadan oshmasligi ham ular diqqatini shakllantirishda ijobiy tomonlardan biri hisoblanadi. Ikkinchi xususiyat bu bolalarning nutqni o'ziga xos idrok etish jarayonlaridir. Shu narsa juda muhimki, gapirayotgan kishining lablariga butun diqqatni haratish oson vaziyat, ish emas.

«Labdan o'qish, - degan edi F.F. Rau, bu nutq a'zolaridan chiqayotgan og'zaki nutqni ko'rish idrokidir». Bu narsa gapirishga oson. Ammo, uni boshdan kechirmoq kerakki, bu yerda qanchalik diqqat zarurligini anglamoq uchun. Shu bois, bu

toifa bolalar normal eshituvchi bolalardan ko'ra tezroq ko'proq charchaydilar. Bu bolalarga yordam tarzida daktil nutqdan foydalanish tavsiya etiladiki, bu usul orqali bolalar idroki yengilashib, o'quv materiallarini egallashlari osonlashadi. Daktil nutqi eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiyasining dastlabki yillarida keng qo'llanilishi tavsiya etiladi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar diqqatini ushlab turishning uchunchi xususiyati, sharti surdopedagogning sinfdagi o'zini to'g'ri tutishidir. Surdopedagog quyidagi qoidalarga amal qilmog'i zarur. Butun sinfga yuzi bilan qaragan holda darsni olib borishi. Mumkin qadar sinfda bilim berganda yurmasligi, to'g'ri kelgan holda tushuntirmasligi lozim. Ko'rgazma qurollar namoyish qila turib, bir vaqtning o'zida uni tushuntirishga harakat qilmasligi kerak.

Kar va zaif eshituvchi bolalarning diqqatlarini to'plashning to'rtinchi sharti shuki, darsda mumkin qadar ko'proq ko'rgazma qurollardan foydalanish lozim. Beshinchi sharti shundan iboratki, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar diqqati ovozli qo'zqatgichlarga bog'liq emas.

Eshitish qobiliyati buzilgan bolalar diqqatini to'plash, bir maromda ma'lum muddat ushlab turishning asosiy omillaridan biri mimikalaridir. Bu narsa juda katta ta'sirga, jalb etuvchi kuchga ega. Surdopedagogikada eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning saqlanib qolgan eshitish qobiliyatlarini o'stirishga ham aloqida e'tibor beriladi. Kar va zaif eshituvchi bolalarda diqqat maxsus ta'lim-tarbiyaning asosiy talablaridan hisoblanadi. Agar maxsus ta'lim-tarbiyada bu toifa bolalar idrok, diqqatlari rivojlanmasa, shakllanmasa demak, maxsus ta'lim o'z oldiga qo'ygan maqsadni to'g'ri hal etmagan bo'ladi.

Nuqsonlardan qat'iy nazar, har bir shaxsni komil inson qilib tarbiyalashga intilmog'imiz zarur. «Ma'rifatga intilish xalqimizning azaliy faziliyatlaridan biridir»- degan hikmatli gapda katta ma'no mavjud. Bu hikmat ruhiy-jismoniy nuqsonlaridan qat'iy nazar barcha bolalarimizga yoshlarimizga bab-baravar taaluqlidir. Diqqatni aksariyat hollarda boshqarish mumkin. Shu bois yuqori sinf o'quvchilari va talabalar o'z

faoliyatlarida uning salbiy jihatlarini ham bilishlari lozim. Bu birinchi navbatda parishonxotirlik bilan bog'liqdir. Bu sifat ish va o'qish faoliyatida samaradorlikni pasaytiradi. Diqqatning uzoq muddat davomida jadal bir narsaga haratishda layoqatsizlikda, tez - tez va oson bo'linib turishi namoyon bo'ladi. Shuningdek, diqqatning haddan tashqari ko'chuvchanligi yoki barqarorligi kabi xususiyatlari ham kuzatiladi. Bu holatlarning har qanday ko'rinishlari salbiy mazmun kasb etadi.

Savol va topshiriqlar

1. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar diqqatining o'ziga hosligi haqida gapirib bering.
2. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar diqqati qanday turlarga ajratilgan?
3. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning diqqatini tekshirish usullari.
4. Diqqatni tekshirishning qanday metodikalari mavjud?
5. Zaif eshituvchi va kar bolalarning diqqati haqidagi olimlarning fikrlarini keltiring.

ESHITISHDA NUQSONI MAVJUD BOLALAR XOTIRASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Reja:

1. Xotira haqida tushuncha.
2. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda xotira mexanizmlari.
3. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda xotira turlari.
4. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda xotira jarayonlari.

Tayanch tushunchalar: *Xotira, idrok, qobiliyat, individ, ruhiyat, tasavvur, tasvir.*

Xotira — idrok etilgan narsa va hodisalarni yoki o'tmish tajribalarni esda qoldirish va zarur bo'lganda tiklashdan iborat psixik jarayon. Xotira eng yaxshi damlarni esda qoldiradi. U nerv sistemasi xususiyatlaridan biri bo'lib, tashqi olam voqealari va organizm reaksiyalari haqidagi axborotni uzoq saqlash hamda uni ong faoliyatida va xulq, xatti harakat doirasida takroriy qobiliyatida namoyon bo'ladi.

Xotira individning o'z tajribasida esda olib qolishi, esda saqlashi va keyinchalik uni yana esga tushirishi xotira deb ataladi.

Xotira haqidagi dastlabki ilmiy qarashlar sharq mutafakkirlari va yunon faylasuflari (Aristotel va boshqalar) da uchraydi. Xususan, Farobiy xotiraga bilishdagi aqliy jarayonning tarkibiy qismi sifatida qarab, xotirani faqat insonga emas, hayvonga ham xos xususiyat ekanini alohida ta'kidlagan.

Xotiraning fiziologik asosi bosh miya yarim sharlari po'stlog'ining muvaqqat bog'lanishi va ularning keyingi faoliyatidan iborat. Xotira ko'lami, axborotlarning uzoq vaqt va mustahkam saqlanishi, shuningdek, muhitdagi murakkab signallarni idrok etish va adekvat reaksiyalarda ishlab chiqish bosh miya nerv hujayralari (neyronlar) sonining ko'payib borishi hamda uning strukturasi murakkablashuvi jarayonida o'sib boradi. Fiziologik tadqiqotlarda qisqa va uzoq muddatli

xotiralar qayd etilgan. Qisqa muddatli xotirada axborotlar bir necha daqiqadan bir necha o'n daqiqagacha saqlanadi, neyronlar ishiga xalal berilganda (mas, elektr shok, narkoz ta'sirida) u buziladi. Uzoq muddatli xotirada axborotlar odam umri bo'yi saqlanib turli ta'sirlarga chidamli bo'ladi. Qisqa muddatli xotira asta sekin uzoq muddatli xotiraga aylanadi. Xotira ruhiyatning o'tmish holati bilan hozirgi holati va kelgusidagi holatlarga tayyorlash jarayonlari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni ko'rsatadi. Boshqa psixik hodisalar kabi xotira ham shaxsning xususiyatlari, uning ehtiyoji, qiziqishlari, odati, fe'l-atvori va sh.k. bilan uzviy bog'liq.

Xotira namoyon bo'lishdagi shakliga ko'ra, shartli ravishda emotsional xotira (his-tuyg'uni esda tutish), obraz xotirasi (narsalarning tasviri va xususiyatlarini esda tutish), so'z-mantiq xotirasi (narsalarning mohiyati, mazmunini so'z bilan ifodalangan holda esda tutish) kabi turlarga bo'linadi. Bulardan insonda so'z-mantiq xotirasi yetakchi o'rin tutadi. Xotiraning barcha turi bir-birlari bilan chambarchas bog'liq holda kechadi. Psixologiyada, shuningdek, ixtiyoriy va ixtiyorsiz xotiralar farq qilinadi. Ixtiyoriy xotirada muayyan materialni esda olib qolish oldindan maqsad qilib qo'yiladi; ixtiyorsiz xotirada bunday maqsad bo'lmaydi — biror faoliyatda (mas, mehnat jarayonida yoki kim bilandir suhbatlashib turilganda) o'z-o'zidan esda saqlab qolinadi. Barqarorligi jihatdan ixtiyoriy xotira ixtiyorsiz xotiradan samaraliroq. Fanda xotira bilan bog'liq ravishda unutish masalasini o'rganishga ahamiyat berilmoqda. „Normal“ unutishni psixik kasalliklardagi xotira buzilishidan farq qilmoq kerak. Bu kasalliklarda xotira susayishi (gipomneziya), yo'qolishi (amneziya) yoki bir tomonlama kuchayishi (giperamneziya) kuzatiladi. Ba'zi kasalliklarda u sifat jihatdan buziladi: bemorga bo'lmagan voqealarni go'yoki o'z boshidan kechirgandek tuyuladi, yoki qachonlardir bo'lib o'tgan voqealarni kecha yoki bugun ro'y bergan deb o'ylaydi (konfabulyatsiya, psevdoreminssensiya), Bunday soxta xotiralar kishida jiddiy ruhiy xastaliklar oqibatida kelib chiqadi. Bunday kasalliklarga bosh miya qon tomirlari aterosklerozi,

shikastlanish, miyaga qon quyilishi holatlari, og'ir zaharlanishlar oqibati (mas, alkogolizm uchraydigan psixoz) va sh.k. kiradi. Xotira buzilganda uni keltirib chiqaruvchi asosiy kasallikni davolashga e'tiborni qaratish kerak.

Xotira – oldin idrok etilganni ifodalash, saqlash va tasvirlash bilan belgilanuvchi ongli ruhiy jarayondir. Xotirada insonning oldingi tajribasi, uning faoliyati, idroki, qayg'urishi ifodalanadi. U inson faoliyatida muhim o'rin tutadi.

Eshituvchilar dunyosi bilan muloqotning buzilishi natijasida karlarni ijtimoiy tajribali egallashi ma'lum darajada murakkabdir. Eshituvchi bola tomonidan tabiiy, nisbatan engil egallangan keng doiradagi engil material ularga maxsus ta'lim jarayonida egallanadi. Shu sababli eshitishda nuqsoni bor bolalarga o'z vaqtida yuqori sifatli ma'lumotlar berish lozim. Tashqi olam bilan aloqa natijalarini saqlash va ifodalash xotira asosini tashkil etuvchi tasavvur shaklida amalga oshadi.

Xotira tasavvuri – bu predmet va xodisalarni xissiy ko'rgazmali umumlashgan obrazlaridir. Xotira faoliyati natijasi sifatida ular o'tmishida inson tomonidan idrok etilgan predmet, xodisalarni ifodalaydi, bevosita faoliyat natijasida sezgi obrazlari idrok yuzaga keladi.

Shunday qilib, agar idrok obrazlari bo'lmasa, xotira tassuroti mavjud bo'lmaydi (Masalan. Tug'ma karlarda tovush, shovqin, taqillatish haqida taavvurlar mavjud bo'lmaydi). Idrok va tasavvur o'xshashligi ularda predmet va xodisalar xususiyatlari va qirralari namoyon bo'lishi bilan belgilanadi. Tasavvur idrokka nisbatan kambaqalroqdir. Unda predmetlarni faqat ma'lum tomonlari namoyon bo'ladi, lekin ba'zi tomonlari tushub qoladi. Idrokdan farqli ular qa'tiy va turqundir. Xotira tasavvuri vaqt bilan qanday o'lchanadi?. Bu savolga javob berish uchun quyidagi maxsus tadqiqotni ko'rib chiqamiz.

Uchinchi va to'rtinchi sinf kar va ommaviy maktab o'quvchilarga tanish bo'lgan predmet (uy, botinka, koptok) rasmlarini ko'rib eslab qolish topshiriqi berilgan rasmlar sodda va buqinlash uchun engil edi. Tadqiqot qo'yidagicha amalga oshadi: tekshiriluvchi stol oldiga o'tirgach, unga quyidagicha

topshiriq beriladi – “hozir senga rasm ko'rsataman, uni diqqat bilan tomosha qil va eslab qol”. Rasmni stoldan olgach, uni xuddi tasvirlanganday chizasan. Diqqat. Ko'r va eslab qol. Tasvirlar stol ustiga quyib tekshiriluvchi uni bir sekund davomida tomosha qilib, so'ng rasm stol ustidan olib qo'yilgan va bola uni rasmini chizishga o'tgan. U birinchi rasmni chizib bo'lgach, unga ikkinchi rasm berilgan, har bir tekshiriluvchiga uchta rasm berilgan. O'quvchilar idrok etilgan ob'ektlarni 6 kun, so'ng 1 oydan keyin chizganlar, o'quvchilarning bir guruhi 4 oydan so'ng chizganlar. Predmet va ob'ektlarni grafik ifodalash bolalarda texnik qiyinchiliklarni yuzaga keltirilgan. Chizilgan rasmlar asl rasmlardan quyidagilar bilan farqlangan:

1. ko'rsatilgan rasmdan farqli ularda qo'shilgan detallar mavjud;
2. ba'zi chizilgan rasmlarda predmetning ba'zi qismlari tushib qolgan;
3. ob'ekt originaldan o'zgachaa tasvirlangan (fazoviy aralashtirish);
4. ob'ektlar originalda farqli o'zgacha razmerda tasvirlangan.
5. qanday farqlar eshituvchi va eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda kuzatiladi.

Leikin eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar rasmlarida bu farqlar intivsiv ravishda namoyon bo'ladi. Asosan asl hajmini, ob'ektlarni fazoda joylashuvini tasvirlashda bu farqlar aniq ifodalangan. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda ob'ektni idrok etilgani tasavvurda ba'zan saqlanib qolishi, ayrim qollarda yo'qolib ketishi kuzatiladi. So'ng bog'liqligini aniqlash uchun quyidagicha tajriba o'tkazilgan, III – IV sinfdagi kar va sog'lom o'quvchilarga uchta rasm berilgan (uy, o'rmon, gul) tasvirlangan ob'ektlarga mos kelmaydigan holat berilgan. Uyning tomi derazagacha tushgan, botinka pastki qismi notabiiy holda tepaga ko'tarilgan, gulning barglari yo'q. O'quvchilarga ushbu rasmlarni yaxshilab tomosha qilish, uni eslab qolish va xuddi shunday qilib chizish topshiriqi berilgan. Tasvirlash eslab qolishdan so'ng darrov amalga oshirilgan. Natijada kar

va sog'lom o'quvchilar chizgan rasmlarida ob'ektlarni xotirada qay darajada saqlanib qolgani namoyon bo'lgan. Bu quyidagi jadvalda o'z ifodasini topdi.

1-jadval

Tekshiriluvchilar	Kar o'quvchilar	Sog'lom bolalar
Xotirada rasmdagi ob'ektni xarakterli qirralari saqlangan	24,9	76,2
Xotirada rasmdagi ob'ektni xarakterli qirralari qisman saqlangan	58,5	28,8
Xotirada rasmdagi ob'ektni xarakterli qirralari saqlanmagan	16,6	-

2-jadval

Tekshiriluvchilar	Kar o'quvchilar	Sog'lom bolalar
Xotirada rasmdagi ob'ektni xarakterli qirralari saqlangan	24,7	41,9
Xotirada rasmdagi ob'ektni xarakterli qirralari qisman saqlan	42,0	49,1
Xotirada rasmdagi ob'ektni xarakterli qirralari saqlanmagan	33,3	9,0

Ko'rib turibdiki, 2 - jadvalni tasvirlashda sog'lom bolalar xotirada rasmdagi ob'ektni xarakterli qirralari tasvirlagan. Shuningdek sog'lom bolalar notabiiy rasmdarni ko'rib, "Ajoyib uycha", "Uyning tomi o'sib ketibdi", "Axmoq batinka", "Anvar akaning batinkasini" deb nomlashdi. To'rt oydan so'ng shu tajriba takrorlanganda kar va sog'lom bolalar xotirasida tasvirlangan ob'ektning xarakterli qirralari saqlanmaganligi ko'zatlilgan. Oldin idrok etgan botinka, uy rasmlari o'zini notabiiyligini yo'qotib, tabiiy holatga qaytgan holda tasvirlangan. Bu xodisa tasavvurni almashtirish bilan asoslanadi. Tasavvurning almashtirilishi ma'lum vaqt davomida predmet haqidagi tasavvurning individual xususiyatlarni yo'qotib, ob'ektni tanish turdosh xiliga o'xshab qoladi. Ayni holatda turli ob'ektlarni yangi tasavvurlari shu ob'ektlarni eski,

yaxshi saqlangan tasavvurlari bilan almashtirilgan. Bu birinchi turdagi almashtirishdir. U eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda ommaviy maktab o'quvchilarga nisbatan bir muncha yuqori darajada bo'ladi. Ikkinchi turdagi almashtirishda o'xshash ob'ektlarni birga idrok etilganda namoyon bo'ladi. O'xshash guruhdagi ob'ektlarni idrok etilganda yuzaga kelgan tasavvur bir-biri bilan almashtiriladi. Natijada ular o'rtasida farqlar ortadi. Tasavvurning bu turi to'rtinchi sinf kar va sog'lom o'quvchilar o'rtasidagi quyidagi tajriba o'tkazilishi orqali tadqiq etilgan. Bolalarga to'rt xil turdagi baliq rami berildi (Sazan, Akula, Ilon baliq, Laqqa baliq). Tekshiruvchi bolalarga rasmni yaxshilab ko'rib, har bir rasmni aynan ishunday qilib, tasvirlashni taklif qildi. Tekshiriluvchilar har bir rasmni ko'rib bo'lgach aloqida qoqozlarga xotira asosida baliq rasmini chizganlar. Olti kundan so'ng shu rasmni qayta chizish topshiriqi berildi. Bolalar rasmlarni tahlili ko'rsatishicha, kar va sog'lom bolalar to'rtta baliq rasmini yaxshi chizganlar, har birida bosh, oqiz, suzgich va dum bo'lgan. Lekin baliqlar juda uxshash bo'lgan, baliq tanasi, suzgichi, boshi hamda ularning rang o'xshash bo'lgan. Chunonchi, baliqlar rasmi idrok etilgandan so'ng tasavvur o'zaro almashinib ketgan. Kar va sog'lom bolalar rasmini solishtirib eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar chizgan rasmlari juda bir biriga o'xshashligi ko'zatlildi. Olti kundan so'ng chizilgan suratda rasmlar o'xshashligiyana ortgan. Shunday qilib, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda sog'lom bolalarga nisbatan tasavvurni almashtirishi ko'proq darajada kuzatilishi namoyon bo'ladi. Shuningdek tasavvurlarning o'zaro almashtirilishida ularni bir-biriga o'tib ketishi ham kuzatilgan. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar to'rtta baliq o'rniga uchta rasm chizganlar. Lekin to'rtinchi baliqqa xos belgilar uchta baliq rasmida namoyon bo'lgan. Almashtiruvning yana bir turi mavjud bo'lib, bunda mavjud tasavvur yangisi bilan almashtirilishi mumkin. I.M.Solovyova va M.M.Nudelman tadqiqotlari tasavvurning bu turi eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda ham mavjudligi aniqlangan. Xususan, o'tgan darslar bo'yicha savol-javob o'tkazishda o'tilgan mavzu materiali yangi

o'tilgan material bilan almashtirib yuborilishi mumkin.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar maktabida ikkinchi sinfda "Mushuk" mavzusida predmetli dars bo'lib o'tdi. O'qituvchi mushuk hayoti, bu xayvonning tashqi ko'rinishlari haqida gapirib bergan. Oradan bir necha kun o'tgach, bolalarga mushuk va it tasvirlangan ikkita rasm ko'rsatilgan. O'qituvchilar bu xayvonlar haqida gapirib berishlari lozim edi. Ular mushuk haqida ko'p gapirishdi, itni tasvirlaganda mushukka xos belgilarni itga xoslab gapirganlari kuzatildi. Xususan mushukka xos tashqi belgilar itning tashqi ko'rinishini tavsiflashga qo'shilib ketgani kuzatildi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar mushuk haqidagi mavzuni o'tilganga qadar it haqida ma'lumotga ega bo'lsa ham, darsdan so'ng tashqi ko'rinish belgilari almashtirib yuborilgan. Eski, ildiz otgan tasavvurlarni yangilari bilan almashtirish vaqt o'tishga bog'liq holda amalga oshadi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda xotira funksiyasi va xususiyatlari. Xotira o'tmishning ifodasi sifatida quyidagi asosiy funksiyalari yordamida amalga oshadi: ilk idrok etilgan materialni eslash, saqlash, tanish va bayon etish. Eslab qolish ixtiyoriy va ixtiyorsiz bo'ladi. Agar inson o'z oldiga materialni eslab qolish maqsadini qo'ymasa, material irodaviy xarakatlarsiz, istaksiz esda saqlansa, bu ixtiyorsiz eslab qolish sanaladi. Agar inson oldida materialni eslab qolish, uni egallash maqsadi tursa, bu ixtiyoriy eslab qolishdir. T.V. Razonova tadqiqotlarida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar predmetni joylashuv o'rni bilan aloqasini ixtiyorsiz ravishda eslab qolishi kuzatilgan. Amaliyotda tekshiruvchilarga tanish predmetlar tasvirlangan 16 ta rasm berilgan. Rasmlar berkitilgan holda bo'lgan. Ketma-ketlikda rasmlarni ochib ko'rsatgan, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar ochilayotgan rasmda nima tasvirlanganini bayon etishgan. Keyin rasmlar planiyotdan olinib, qayta ko'rsatganlar. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bola bu rasmning joyini ko'rsatishi lozim bo'lgan. Tekshiruvchi sifatida bog'cha yoshidagi va II, IV va VI sinfda o'qiydigan eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar tanlangan. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar tposhiriqni yaxshi bajarganlar, ixtiyorsiz predmetlar

joylashgan joyni eslab qolganlar. Faqat bog'cha yoshidagi kar va sog'lom bolalar o'rtasida farq sezilgan. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar sog'lom tengdoshlari kabi rasmlarni joylashuv o'rni yaxshi eslab qolganlar.

Shuningdek, eshitishda nuqsoni bo'lgan bola eslab qolgan materialini so'z orqali bayon etishi (so'zli ifoda) holati T.V. Razonova tomonidan tadqiq etilgan. Eslab qolish ob'ekti sifatida 6 ta o'xshash sxematik figuradan foydalanilgan. Ayrim figuralar uchburchak, ba'zilar doira shaklida bo'lgan. Figuralar ketma-ketlikda ko'rsatilgan. Tekshiriluvchilarga III va IX sinf eshitishda nuqsoni bo'lgan va sog'lom o'quvchilariga diqqat bilan har bir figurani ko'rib chiqish va eslab chiqish taklif etilgan. Tekshiriluvchilarga ko'rgan figuralarini aniq bayon etishlari tushuntirilgan. Natijada, ko'rsatilgan figuralarni so'zli ifodalash asosida esda qolgani, figuralarga xos individual belgilar aniq saqlangani kuzatilgan. So'zli ifodalanmagan figuralar boshqa figuralar bilan almashtirib yuborilgan holda esda qolgan. Yuqori sinfdagi eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilar III sinfdagi o'quvchilarga nisbatan so'zli ifodalarni ko'p qo'llaydilar. Lekin eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilar eshituvchilarga, nisbatan figuralar kam so'zli ifoda bayon etganlar. Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilar imo-ishoralarni ham qo'llanganlar, bu ham eslab qolish jarayonini samarali bo'lishgacha olib kelgan. Buning natijasiga ko'ra, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun murakkab materialni eshituvchilarga nisbatan yomon eslab qoladilar. Agar eshitishda nuqsoni bo'lgan bola eslab qolish lozim bo'lgan figurani so'zli bayon etsa, bu eslab qolish jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Materialni eslab qolish berish usuliga bog'liqligi yuqorida ta'kidlangan tadqiqotda tekshiriluvchiga figuralar ikki xil usul bilan beriladi. Birinchi usulda shakl ekranda butunligiga, ikkinchi usulda ketma-ketlikda asta-sekin namoyon bo'lgan. Barcha figurani bir vaqtda ko'rsatishda eshitishda nuqsoni bo'lgan va sog'lom bolalarni ob'ektni eslab qolishida farqlar kuzatilmadi. Ketma-ketlikda predmetlarni ko'rsatishda eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilar sog'lom o'quvchilarga nisbatan yomon eslab

qolganlar. Ketma-ketlikda figuralarni ko'rsatish eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni eslab qolishini qiyinlashtirgan. Bunda figuralarni ayrim qismlari idrok etilib, asosiy mohiyatga e'tibor kam qaratilgan. Shunday qilib, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar idrok etilganni bir butunga fikriy integratsiya qilishda qiynalishi dalillandi.

Savol va topshiriqlar

1. Xotira haqida qanday tushunchaga egasiz?
2. Xotira mexanizmlari haqida gapirib bering
3. Xotiraning qanday turlari bor?
4. Xotira jarayonlari deganda nimani tushunasiz?

ESHITISHDA NUQSONI MAVJUD BOLALARNING TASAVVURI VA UNING XUSUSIYATLARI

Reja:

1. Tasavvur haqida umumiy tushuncha.
2. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar tasavvurining o'ziga xosligi.
3. Kar o'quvchilar ijodiy tasavvurining elementar shakllari haqida.

Tayanch tushunchalar: tasavvur, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar, karlar, rasm, peyzaj

Tasavvur - yuqori ongli jarayon bo'lib, taassurotning yangilanishi va mavjud obrazlar asosida yangilarini yaratishni ko'zda tutadi. Tasavvur shaxs ehtiyojlari asosida motivlanadi. Inson o'z tasavvurida yorqin obrazlar yordamida o'z ehtiyojini qondiradi. Bu holatlarda tasavvur haqiqat aksini tezlashgan holda namoyon qiladi. Faoliyat so'ngida bu jarayon natijalarini tugallangan holda fikriy tasavvur qilishimiz mumkin. Tasavvur yordamida yaqin, uzoq kelajak hodisalarni oldindan tahlil qilish imkoni tug'iladi.

Tasavvur uchun yorqin konkret obrazlarning mavjudligi xarakterlidir. Tasavvurda tushunchalar mavjudligi shaxsni konkret sharoitlar tor, noqulayligidan ozod qiladi, haqiqatdan chetga chiqish mavjud tasavvur va taassurotlarni ijodiy yangilanishi, yangi obraz, obyektlarni yaratish imkonini beradi. Psixologik tadqiqotlar tushunchali tafakkur nutqini rivojlanish darajasiga bog'liqligini tadqiq etishga qaratilgan. Ma'lumki, nutq tushunchalarni shakllanishi ayrim omil bo'lib, mavxum tafakkur rivojlanishining vositasi hisoblanadi.

Predmet, hodisa, shaxslarni idrok etish jarayonida insonda ayni shu paytda analizatorlarga ta'sir etuvchi obrazlar dunyosi yuzaga keladi. Idrok etish natijasida yuzaga kelgan obrazlar xotirada saqlanib qolishi tasavvur yoki xotira obrazlari deb nomlanadi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar tasavvurining

o'ziga xosligi so'zlashuv nutqining kech shakllanishi va mavhum tafakkurning o'ziga xosligi bilan asoslanadi. Kar o'quvchilarning ko'ruv obrazlari yorqinligi, jonliligi bilan xarakterlanadi, lekin tafakkurning kech shakllanishi so'zning harfiy ma'nosini tushunishda murakkablik tug'diradi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni so'zlarning ko'chma ma'nosini tushunishdagi qiyinchiliklar tasavvurning yetarli darajada emasligi bilan xarakterlanadi. Tasavvurni quyidagi turlarga tasniflash lozim:

- 1) passiv tasavvur;
- 2) faol tasavvur. U ijodiy va yaratuvchanlik xarakteriga ega bo'ladi.

Passiv tasavvur oldindan o'ylangan va oldindan o'ylanmagan bo'lishi mumkin.

Yaratuvchan tasavvur. Yaratuvchan tasavvur predmet, hodisa, voqeani so'z orqali tavsiflash asosida uning ko'rgazmali obrazi, taassuroti asosida yuzaga keladi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar ruhiy faoliyatining bu turi o'ziga xos bo'ladi. Yaratuvchan tasavvurga ko'ra bola ongida atrof-olam keng, ko'p qirrali bo'lib namoyon bo'ladi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar aqliy dunyoqarashi shaxsiy tajriba doirasidan tashqarisiga chiqadi. Lekin so'zlashuv nutqi va mavhum tafakkurning rivojlanishdan orqada qolishi kar bolani insonlarning ijtimoiy tajribasini to'liq egallashiga to'sqinlik qiladi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar bilish faoliyatida yaratuvchan tasavvur muhim o'ringa ega, u turli turdosh mehnat faoliyatining zarur komponenti sanaladi. Tarix, geografiya, fizika, adabiyot bo'yicha bilimlarni egallashda oldin idrok etilmagan obrazlar, taassurotlardan foydalanadilar. Yaratuvchi tasavvur o'quvchilarni badiiy asarlarni mustaqil o'qishda katta o'ringa egadir. Bola ongida asar muallifi tomonidan yaratilgan obrazlar, hodisalar haqida tasavvur yuzaga keladi. Bu o'quvchiga turli davrlardagi hodisalar va inson his-tuyg'ularini tushunish imkonini beradi. O'qituvchilar kuzatishicha, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda o'qish jarayonida shakllanuvchi obrazlar har doim ham to'g'ri tavsiflanmaydi. Ko'pincha bu o'qilgan asar mazmunini tushunmaslikka olib keladi.

Kar o'quvchilar ijodiy tasavvurining elementar shakllari haqida

Ijodiy tasavvur tasavvurning oldindan namoyon bo'lishi va mustaqil ravishda yangi obrazlar, taassurotlar yaratish bilan belgilanadi. Ijodiy tasavvur va tafakkurning o'zaro munosabatini tadqiq etib, A.V.Petrovskiy va M.B.Verbenkiy bu ikki ruhiy jarayonda intellektual faoliyatning turli aspektlarini ko'radilar. Ular tasavvur va tafakkurning bir necha shakli mavjud deb e'tirof etadilar. Ijodiy tasavvur jarayoni xotira asosida yangi obrazlarni yaratish bilan belgilanadi. Tasavvurning qurilish materiali - bizning o'tmish tajribamiz, tasavvur natijalari. Yangi obrazlar - tasavvur taassurotlari sanaladi. o'quv faoliyati geometrik masalani yechishi, grammatik qoidalarni yodlash, insho yozish, chizish va yasash kabi turlari o'quvchilardan taassuroti, bilimni operatsiyalash va faoliyat natijalarini tahlil etishni talab etadi. Ijodiy tasavvur uning samaradorligi tajriba boyligi, ma'lumot doirasi darajasiga bog'liq bo'ladi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar ijodiy tasavvuri sog'lom bolalar va kattalar bilan muloqotining chegaralanganligi sababli o'ziga xos bo'ladi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar eshituvchi bolalardan ovoz chiqaruvchi predmetlar haqida bilib oladilar. Kichik yoshdagi eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun predmetlarning ovoz chiqarish hodisasi mavhumdir. Ta'lim jarayonida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar ham ovoz chiqaruvchi predmetlarga farqsiz bo'lmagan, ularga ahamiyat bera boshlaydilar. Tasavvurni nutqni rivojlantirish bilan birga olib bormoq maqsadga muvofiqdir. Uni egallab, kar bola tasavvurga tayanib, suhbatdosh hikoyasi yoki o'qilgan hikoya mazmunini aniq aytib bora oladi. So'zlashuv nutqini rivojlantirish tasavvurini boyitishga, ijodiy obrazlarning shakllanishiga olib keladi. Bu o'z navbatida o'qilganni to'g'ri va tez tushunish imkonini beradi.

Nutqni rivojlantirish darsida o'qituvchi ijodiy tasavvurni rivojlantirishga katta ahamiyat berishi kerak. Buning uchun o'qilganni rollarga bo'lib o'qish, o'qilgan matn asosida rasmini chizish muhimdir. Shuningdek, rasm yoki rasmlar seriali

asosida insho yozish ham yaxshi samara beradi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar tasavvurining o'ziga xosligi so'zlashuv nutqining kech shakllanishi va mavxum tafakkurning o'ziga xosligi bilan asoslanadi. Kar o'quvchilarning ko'ruv obrazlari yorqinligi, jonliligi bilan xarakterlanadi, lekin tafakkurning kech shakllanishi so'zning harfiy ma'nosini tushunishda murakkablik tug'diradi. Shu o'rinda V - VIII sinflarda o'quvchilar maqol va tez aytishlarni tushunish darajasini o'rganishga qaratilgan tadqiqot natijalarini ko'rib chihimiz. Tadqiqotda faqat V sinf o'quvchilari emas, balki VII va VIII sinf o'quvchilari qatnashadilar. "quduqqa tuflama, uni ichish o'rni kelar" maqolini tushunmaganlar. Ular bu maqol ma'nosini bu yaxshi emas, quduqqa tuflash mumkin emas, mikroblar bo'ladi deb tushunganlarini aytadilar.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni so'zlarni ko'chma ma'nosini tushunishdagi qiyinchiliklar tasavvurning yetarli darajada emasligi bilan xarakterlanadi.

IV sinf kar va sog'lom o'quvchilarining chizgan rasmlari tahlili rasmlarni chizishda kar o'quvchilar qiynalganidan dalolat beradi. Hikoyada uy tomi qizil, it uyhasi sariq rangda tasvirlangan edi. Faqat 40 % kar bola rasmni to'g'ri bo'yagan. Qolgan kar o'quvchilar uyni tomini yashil, jigarrang, qora, it uyini turli rangda bo'yaganlar. Sog'lom bolalarni asosiy qismi (71 %) rasmni hikoyada tasvirlangan holda chizganlar. Kar o'quvchilar rasmni xotirasida mavjud uydan nusxa olib chizadi. Rasmni detallashgani, tasvirlangan obyektlarni o'ziga xos bo'yash, hikoya matnidagi kar o'quvchilarga tanish predmetlar obrazlari faollashtiradi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar xotira obrazlarning matndan tashqari assotsiatsiyalarini yuzaga keltiradi. Bu esa hikoyada tasvirlangan obrazlarni to'liq tasavvur qilishga to'sqinlik qiladi.

IV sinf o'quvchilari chizgan rasmlari o'ziga xosligi hikoyaning mazmunini idrok etish xususiyati bilan bog'liqdir. Ayrim bolalar tasvirlanayotgan xodisaning umumiy mazmunini anglab oladilar. Natijada ularda shartning o'zida aks ettira olmaydigan o'zaro boqlanmagan predmetlar obrazlari

yuzaga kelgan. Ayrim bolalar chizgan sur'atlari hikoya matni o'tmishdagi tajribasidan biror xodisani eslashini namoyon qilgan. o'tkazilgan tajriba, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni rasmning syujetini idrok etish o'ziga xosligi haqida, uning tasavvurining kambaqalligi, so'zni bayon etilgan matnga boqlab mavjud tasavvurni qayta tiklash malakasi yo'qligidan dalolat berdi. Yuqori sinfga borib, yaratuvchan tasavvurni ma'lum darajada rivojlanishi kuzatiladi. VIII sinf o'quvchilarini hikoya matni aniq tasvirlaydilar. IV sinfdan farqli ravishda yuqori sinf o'quvchilari umumiy epizodlarni tasvirlaydilar. Peyzaj sharoiti yuqori sinf o'quvchilari chizgan suratlarda matndagi tasvirlangan mazmunga mos keladi. VIII sinf o'quvchilar aytilgan obyektlarni fazoviy joylashishini aniq tasavvur qiladilar. Lekin ularda obyektlarni o'ylangan sharoitga kiritish murakkablik tug'diradi. Yuqori sinf o'quvchilari rasmlari juda murakkab edi. Ularning mualliflarni tasvirlanayotgan xodisa dinamikasini berishga xarakat qilgan. Shunday qilib, yuqori sinf kar o'quvchilari hikoyada tasvirlangan xodisa va ayrim obyektlarni to'liq darajada tasavvur qiladi, lekin obyektlarning fazoviy joylashuvi ularda qiyinchilik tug'diradi.

Ma'lumki, rasmlarni tomosha qilishda tasavvur katta o'ringa ega. Shu holatni o'rganish maqsadida V va VII sinf kar o'quvchilari va V sinf eshituvchi bolalar rasmni diqqat bilan tomosha qilish va shu asosida insho yozish vazifasi berildi. Rasmda temir yo'l stantsiyasi tasvirlangan. stantsiyaga yo'lovchi poezdi keladi. Shuningdek, uchayotgan samolyot, traktor, tovuqlarni quvlayotgan kuchuk, qo'ylar va nay chalayotgan chupon rasmi ham tasvirlangan. Rasmni ko'rsatgunga qadar, bolalarga "Bu stantsiyaga kaniqulda dam olish uchun Vali amakisinikiga meqmonga keldi. Unga bu er juda yoqdi. Rasmga harab Valiga bu erda nima yoqqannini toping. Shu asosida hikoya tuzing topshiriqi berildi". Tadqiqotda kar va sog'lom bolalar qanchalik ijodiy tasavvur qila olish darajasini aniqlash ko'zda tutildi. Shu maqsadda ikki guruhga bo'lindi. Birinchi guruh rasmda tasvirlangan narsani gapirganlar, ikkinchi guruh rasmda tasvirlanayotgan kar bola bayon etganlar bolalar tasniflandi. V sinf kar o'quvchilar faqat tasvirlangan obyektlar

haqida gapirdilar. VIII sinfdagi kar o'quvchilar tasavvur etilishi lozim bo'lgan sharoitda mavjud bo'lmagan xodisalarni tasvirlaganlar. Eshituvchi bolalar tasavvur etilayotgan sharoit haqida ko'proq ma'lumot berganlar. Kar va eshituvchi bolalar yozgan insholari asosida tasvirlangan rasm va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xodisani boqlash, ifodalash darajasi tahlil qilingan.

Sog'lom bolalar xodisalarni qozirgi va kelasi zamonda bo'lgandek tasvirlaganlar kar o'quvchilar barcha xodisalarni o'tgan zamonda tasvirlab, rasmda tasvirlangan epizoddan tashqariga o'tmaganlar. Kar va sog'lom bolalar bu sharoitni og'zaki bayon etish darajasini ko'rib chihimiz. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar eshituvchi bolalardan ovoz chiharuvchi predmetlar haqida bilib oladilar. Kichik yoshdagi eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun predmetlarni ovoz chiharish xodisasi mavxumdir. Ta'lim jarayonida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar ham ovoz chiharuvchi predmetlarga farqsiz bo'lmasdan, ularga ahamiyat bera boshlaydilar. Rasm asosida insholar tahlili, V sinf kar o'quvchilari eshituv sezgilari asosidagi fikrlari kam miqdorda bo'ladi. Kar o'quvchilari ma'lum obyektlarni ovoz chiharishini ko'rsatganlar. Eshituvchi o'quvchilar kar o'quvchilardan farqli ravishda bir qancha obyektlarni ovoz chiharishni tasvirleydi (Paravoz guviladi, o'rmonda daryo oqyapti, arilar gul atrofida quvillab uchdi). Shunday qilib, bolalar rasmdagi komponentlari idrok etish va tasavvur etish tahlili shuni ko'rsatadiki, sog'lom bolalarda rasmda tasvirlangan va tasvirlanmagan obyektlar to'g'risida bayon etdilar. Kar o'quvchilar esa ko'p holatlarda faqat rasmda ifodalangan tasvirni bayon etganlar. VIII sinfdagi kar o'quvchilar rasmda ifodalangan epizodlar haqida ham bayon etganlar. Bu kar o'quvchilarda maxsus ta'lim jarayonida ijodiy tafakkurini rivojlantirish mumkinligidan dalolat beradi. V sinfdan VIII sinfgacha eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar ijodiy tafakkuri takomillashib boradi. Tasavvurni nutqni rivojlantirish bilan birga olib bormoq maqsadga muvofiqdir. Uni egallab, kar bola tasavvurga tayanib, suhbatdosh hikoyasi yoki o'qilgan hikoya mazmunini aniq aytib bora oladi. So'zlashuv nutqini

rivojlantirish tasavvurini boyitishga, ijodiy obrazlarning shakllanishga olib keladi. Bu o'z navbatida o'qilganni to'g'ri va tez tushunish imkonini beradi.

Nutqni rivojlantirish darsida o'qituvchi ijodiy tasavvurni rivojlantirishga katta ahamiyat berishi kerak. Buning uchun o'qilganni rollarga bo'lib o'qish, o'qilgan matn asosida rasmini chizish muhimdir. Shuningdek, rasm yoki rasmlar seriali asosida insho yozish ham yaxshi samara beradi.

Kar bola shaxsini shakllantirishda tasavvurning roli. Eshituv analizatorining faoliyatining buzilishi natijasida ularning tasavvuri o'zgaruvchan bir tomonlama xarakterga ega bo'ladi. Lekin ijtimoiy muhit eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda shaxs qirralarini tarkib topishida muhim o'rin to'tadi. Atrofdagilar eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarga eshituvchilar singari munosabatda bo'lsagani uchun unda shaxsning o'ziga xos xususiyatlari shakllanib boradi. Kar bola sog'lom aka-singillari kabi munosib farzand bo'lmayotgani, unga muxabbat, achinish, qayg'urish munosabatida bo'layotganini sezadi. Shuningdek, u o'z yaqinlariga oqirlik bo'layotgannini seza boshlaydi. Sensor nuqson kar bolaga kattalar bilan normal muloqotda bo'lishiga to'sqinliq qiladi. Kar bolaning sub'ektiv holatini tushunish uchun yuqori darajadagi kuzatuvchanlik xususiyatiga ega bo'lish talab etiladi. Kar o'quvchi ta'lim-tarbiya olayotgan ijtimoiy muhit ham shunday kuzatuvchanlikni talab etadi, lekin boshqa oadamning ichki holatini tushunish, tasavvurning yuqori darajasi mavjud bo'lishi kerak. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni boshqa oadamni ichki dunyosini tushunish darajasini aniqlash uchun V, VII va IX sinf o'quvchilari bilan quyidagicha tadqiqot o'tkazildi. Tekshiruvchilarga metro vagonida yig'lab o'tirgan qizaloq rasmi ko'rsatilgan. Uning bir qo'lida sumkacha, ikkinchi qo'li bint bilan bog'langan. Yo'lovchilar unga xayron bo'lib boqmoqdalar. Rasmni ko'rsatish bilan tekshiriluvchilarga quyidagicha matn berilgan. Metroda bir qizcha ketayapti. U oyna oldida sumkasini quchoqlab o'tirib yig'lamoqda. Hamma unga qarab "Nima bo'ldi?", "Nimaga bu qizcha yig'layapti?" deb o'ylayapti. Rasmni 5 minut tomosha qilib, matnni 2 marta o'qib o'quvchi qizcha bilan nima bo'lgani, u nima sababda yig'lagani, nima uchun

qizcha qayg'urayotganini aytib berish kerak. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning ko'p qismi qizcha pulini, narsani yo'qotib qo'ygani uchun yig'layapti deb fikrladilar. Ayrimlari qizcha qo'li og'riyotgani uchun yig'layapti deb aytdilar. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar qizchaning yig'isi sababini rasm asosida idrok etilganlar asosida aytdilar. Kar o'quvchilarning ayrimlari o'z hayotidagi mavjud obrazlar orqali rasmni tahlil qildilar. Ular qizcha yo'qolib qolgan, ayrimlari qizcha kuchukchasini yo'qotib qo'ygan deb fikrladilar. IX sinf o'quvchilar ijodiy tasavvurga tayanib, qizchaning qayg'urish sabablari matn asosida gapirib berdilar.

Shunday qilib, tahlil ko'rsatishicha V sinf o'quvchilari qizcha yig'isini sababini bir tipda ko'rsatganlar (pul, narsa yo'qotish, qo'li og'rishi), yuqori sinf o'quvchilari javoblari turlicha tipda namoyon bo'ldi. IX sinf o'quvchilari yig'i javobini imtixonda ikki baho olish, o'rtog'i bilan xafalashishi, ota-onasini yo'qotib qo'yishida deb ko'rsatadilar. Ularning hikoyalari qizcha qayqurayotgan tuyg'ularini xis etish asosida qurilgan. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarga o'rtog'i holatini tushunish uchun o'zaro xat yozish malakasini tadqiqot obyekti sifatida tekshirildi. Vazifani to'liq tushunish uchun boshi yozilgan xat eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarga berildi (Salom qadrli Alijon aka soqliqlaringiz yaxshimiq Sizga ukangiz Valijon salom xat yozmoqda). Shu kabi xatni kar o'quvchilar davom ettirishlari talab etildi. Topshiriq ikki marta tushuntirilsa ham V sinf o'quvchilari bu vazifani to'liq tushunmaganlar. Ular o'z xatlari qanday o'qiyotgani, o'qituvchi, tarbiyachini topshiriqlarini qanday bajarayotgani, qanday kino ko'rganliklarini bayon etganlar. Ular boshqa odam nomidan xat yozayotganini unutib, o'zi nomidan yozganlar. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar tomonidan yozilgan xat ma'nosi va fikrlari miqdoriga ko'ra juda kambaqalligi ifodalangan. Xatlar o'zini shaklini yo'qotib, ma'lum odam haqidagi hikoyaga o'xshab qolgan. Bu V sinf kar o'quvchilari boshqa odam nuqtai nazaridan fikrlay olmasligida dalolat berdi.

Ta'lim jarayonida kar o'quvchilar tasavvur qilinayotgan shaxs siymosiga kirishni, uni nomidan gapirish, xat yozishni

o'rganadilar. Yuqori sinf o'quvchilari xatlari eksperimental tadqiqot talablariga javob bergan, ularda V sinf o'quvchilari xatlariga xos xatoliklar mavjud bo'lgan. Shuni ta'kidlash joizki, kar o'quvchilar o'z xatlarida xotira obrazlariga tayanib, real va kontrakt xodisalarni tasavvur qiladilar. Demak, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni boshqa odam holatini tasavvur qilish qobiliyati, uning olamiga kirish, bu kategoriyadagi bolalarda sog'lom bolalarga nisbatan kech shakllanadi. Bu malaka badiiy adabiyotni o'qish jarayonida ijobiy obrazga xayri-xoxliq qilish natijasida namoyon bo'ladi. Boshqa odam ichki dunyosini tushunish ichki nutqining rivojlanish darajasiga ham bog'liq bo'ladi. Kar bola ichki nutqsiz boshqalar bilan fikriy kommunikatsiyaga kirisha olmaydi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar maktabi o'qituvchilari bu bolalar tasavvurini faollashtirish uchun turli usullardan foydalanadi. o'quvchilarda badiiy adabiyotni mustaqil o'qishga qiziqishini shakllantirish orqali ularda ijodiy tasavvur tarbiyalanadi. o'quvchilarga o'qilgan matn bo'yicha rasm chizdirish ham yaxshi samara beradi. "So'zli chizish" ya'ni o'quvchi o'qilgan asardagi ayrim xodisa yoki qaxramonlarni so'zlashuv nutqida bayon etishlari ham samarali usul hisoblanadi. o'qilgan asarni rollarga bo'lib saqnalashtirish ijodiy tasavvurni shakllantiradi. o'rta va yuqori sinflarda ijodiy tasavvurni shakllantirishda o'qilgan asar asosida insho yozish muhim o'ringa ega (masalan: 15-20 yildan so'ng bizning maktab qanday bo'ladiq). Insho yozilgach, shu asosida rasm chizdirish ham mumkin. Bu yo'nalishdagi barcha ishlar eshitishda nuqsoni mavjud bolalarning rivojlanish nuqsonlarini korreksiya qilishga qaratilgan bo'ladi.

Savol va topshiriqlar

1. Tasavvur tushunchasi mohiyatini izohlang.
2. Kar o'quvchilarning ijodiy tasavvuri xususiyatlarini tavsiflang.
3. Kar o'quvchilarning ijodiy tasavvurini o'rganish natijalari haqida gapirib bering.
4. Kar o'quvchi shaxsini tarbiyalashda tasavvur qanday o'ringa ega?

ESHITISH QOBILIYATI BUZILGAN BOLALARNING XAYOL XUSUSIYATLARI

Reja:

1. Xayol haqida umumiy tushuncha.
2. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar xayolining o'ziga xosligi.
3. Kar o'quvchilar ijodiy tasavvurining elementar shakllari haqida.

Tayanch tushunchalar: xayol, fikr, fantaziya, tafakkur

«Xayol — mavjud tasavvurlar asosida yangi obrazlarning yaratilishidan iboratdir, psixik aks ettirish jarayonlaridan biri. U ixtiyorsiz va ixtiyoriy, ijodiy xayol turlariga ajratiladi»¹. «Xayol yoki fantaziya, tafakkur kabi, yuksak bilish jarayonlari qatoriga kirib, kishining o'ziga xos ijobiy harakatlariga ega bo'lgan faoliyatlarida namoyon bo'ladi. Mehnatning tayyor natijasini xayolga keltirmay turib, ishga kirishib bo'lmaydi. Fantaziya yordamida kutilayotgan natijani tasavvur qilish inson mehnatining hayvonlar instinktiv faoliyatidan tub farqidir»² - deb ta'kidlangan darslikda. Mehnatning tayyor natijasini xayolga keltirmay turib, ishga kirishib bo'lmaydi. Fantaziya yordamida ko'tilayotgan natijani tasavvur qilish inson mehnatining qayvonlar instintiv faoliyatidan tub farqidir» - deb ta'kidlangan darslikda. Xayolning psixik jarayon sifatida birinchi va muhim ovazifasi shundan iboratki, u mehnatni boshlashdan oldin uning natijasini tasavvur qilish imkonini beradi. Xayol faol va passiv bo'lishi mumkin. Ixtiyoriy va ixtiyorsiz tarzida amalga oshishi, yuzaga kelishi mumkin. Qayta tiklovchi, ijodiy xayollar ham bor. Xayolni yuksak, xohlagan turi – orzudir.

Inson shaxsining qiymati ko'p jihatdan uning tuzilishida xayolning qaysi turi ustunligiga bog'liqdir. Agar o'smiralar va yoshlarda konkret faoliyatlarda amalga oshiriladigan ijodiy xayollari passiv, quruq xayolparastlikdan ustunlik qilsa, bu

1 Психология ки скача изохли лугат. — Т.: 1998 йи л. 40-бет.

2 А.В.П етровский. У мумий психология. — Т.: 1992 йи л, 381-бет.

shaxsning taraqqiyot darajasi yuksakroq ekanligidan darak beradi. Juda to'g'ri berilgan ma'lumot. Afsuski, ko'pchilik buning mohiyatiga ko'p ham etib boravermaydi. Ilmiy adabiyotlarda «Xayol – mavjud tasavvur asosida, yordamida yangi obrazlar yaratish jarayonlaridir» - deb e'tirof etadi».

Bu lug'atda sohaga oid bir muncha qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Xayolning normal darajada taraqqiyoti, rivojlanishi uchun sezgi a'zolarining bekami-ko'stligi, aniq, ravshan tasavvurlar bo'lishi hamda ma'lum darajada tafakkur bo'lmoqi talab etiladi.

Nuqsonli bolalarda xayol, ayniqsa, yosh bolalarda o'ziga xos xususiyat, ko'rinishga ega. Eshitish qobiliyati buzilgan bolalardagi xayolning o'ziga xosligi ulardagi og'zaki nutq va mantiqiy tafakkurining kechikib shakllanishi bilan uzviy bog'liq. Ko'rish tasavvurlari har doim ham kerakli darajada taxlil etilmaydi. Shu sabab ular tomonidan yangi predmetlar taxlili qiyosiy amalga oshadi. Demak, nuqson: ko'rishmi, eshitishmi, aqliymi, nutqmi baribir xayol jarayonlarining kechishiga, shakllanishiga, rivojiga o'z salbiy ta'sirini o'tkazmay qolmas ekan. Bu deyarli isbot, tushuntirish, talab etilmaydigan qaqiqatdir. Lekin, bu taassurotlarni qancha erta, muvaffaqiyatli korreksiyalasak o'quvchilarda xayol jarayonlari shunchalik tez va to'liq rivojlanishi mumkin. Bu jarayonning tafakkur bilan chambarchas bog'liqligini e'tiborga olsak, masalaning mohiyati yanada tezroq ravshanlashadi. Bu mavzuda albatta, O.I.Skoroxodovanning «Как я воспринимаю, представляю и понимаю окружающих мир» (М.1972) kitobini tahlil etish darkor. Ayniqsa, kitobning ko'r, kar kishi tomonidan «dunyoni», qanday tasavvur etish to'g'risidagi qismlar chuqur o'rganilmoqi darkor.

Xayol shaxsning intilishi, talablari bilan ham belgilanadi. Ko'rgan, eshitgan, bilgan, narsalar obrazlari xotiramizda saqlanadi. Kerak vaqtda bularni tiklashimiz mumkin. Bu jarayon xotira obrazlari sifatida jonlanadi. Yoki, tasavvurlar shaklida ko'z oldimizga keladi. Xayol obrazlari tasavvur obrazlaridan o'ziga xos tomonlari bilan ajralib turadi. Tafakkur va xayol oraligida

uzviy, mantiqiy birlik, bog'liqlik bor. Ammo, o'ziga xos farqlari ham bor. Bularni ajrata olish darkor. Inson biror murakkab muammoni yechishi talab etilganda tavakkurga murojaat etadi. Bunda natijalarga erishish yo'llari mavjud bo'lsa, tafakkur orqali bo'lsachi, unda biz tafakkurdan ko'ra xayol kuchiga tayanamiz. Xayolning rivojlanishi konkert ko'rgazma obrazlardan mavqum tushunchalar orqali yangi xayol obrazlari ijod qilish tarzida amalga oshib boriladi.

Qator psixologik taqiqotlar mavqum tafakkurning nutq rivoji bilan bog'liqligiga oid amalga oshirilgan. Maxsus adabiyotlarda, xususan maxsus psixologiyada bola nutqi darajasi bilan ular xayoli orasidagi bog'liqlik, korreksion masalalar juda kam yoritilgan. Eshitish qobiliyati buzilgan bolalarda deyarli tadqiq etilmagan. Ma'lumki, nutq mavqum tafakkur rivojida aloqida, muhim o'rin egallaydi. L.S.Vigotskiy ma'lumotlariga ko'ra, nutqi zararlangan bolalarda xayol jarayonlari ham izdan chihar ekan. Bu toifa bolalar kuchma ma'nodagi so'zlarni ham qiyin, kamchiliklar bilan egallashlari suhbatda, ular xayollari ham me'yoriy shakllanishdan chetga chihar ekan. Ixtiyorsiz xayolga ma'lumki, tush ko'rish va turli gallyutsinatsiyalar misol bo'la oladi. Ta'kidlab o'tish o'rinliki, normal eshitadigan bolalar bilan eshitish qobiliyati buzilgan bolalar chizgan suratlari orasida ham ma'lum farqlar mavjud. Ajablanarli joyi shundaki, tasvirlangan suratlardagi predmetlar soni jihatidan normal eshituvchi bolalar orqada ekanlar. Ranglarni berishda karlar orqada qolganlar. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar suratlari sinflar yuqorilashgan sari normal bolalar suratlarga yaqinlashib borar ekan. Mualliflar eshitish qobiliyatlari buzilgan bolalardagi ijodiy xayol xususiyatlari borasida turli xil fikr bildirganlar. Ayrimlari qatto ijodiy xayolni tasavvur bilan almashtirganlar. Eshitish analizatorining zararlanishi oqibatida bu bolalarning tashqi dunyoni aks ettirish faoliyati, ijtimoiy muhit ham bu toifa bolalar shaxsining mukammal shakllanishga salbiy ta'sir etar ekan. Bu bolalar aka-ukalaridan, opa-singillaridan, yaqin-qarindoshlaridan o'ziga nisbatan achinish qislarini sezishlari natijasida o'zlarida egotsentrik xislatlar

shakllantirishga harakat qilar ekan. Ularda atrofdagilar uchun o'zining ortiqcha kishi sifatida tasavvur paydo bo'lib boradi. Begona kishining sub'ektiv holatini to'g'ri tushunish va qabul qilish uchun inson o'ta ko'zatuvchan bo'lmoqi kerak. Lekin u kishining ichki dunyosini bilish uchun ko'zatuvchanlikning o'zi kifoya qilmaydi. «Begonalar xursandchiligi bilan xursand bo'lish, qayqulari bilan birga qayg'urish uchun xayol orqali o'sha kishilar holatiga kirmoq darkor. Fikr orqali o'sha kishi o'rnida turmoq darkor. Odamlarga qaqiqiy to'la qonli sezgir bo'lmoq uchun jonli xayolga kirmoq zarur» - degan

edi B.M.Teplov. Karlarda xayol orqali boshqalar ichki dunyosiga kirib borish normal eshituvchi shaxslarga nisbatan birmuncha kech amalga oshib borar ekan. Bu ishlar badiiy asarlarni o'rganish orqali ham rivojlantirib borilishi mumkin ekan. Maxsus maktablarning o'qituvchi, tarbiyachilari bu borada turli-tuman ishlarni amalga oshirishlari mumkin. Mustaqil adabiyotlar o'qish orqali ham ma'lum natijalarga erishish mumkin ekan. Rolli o'yinlar o'ynash ham maqsadga muvofiq. O'rta va yuqori sinflardagi istiqbol muhitdagi yozma ishlar yaxshi natijalar berishi mumkin. Bu tadbirlar bolalarda xayol, ulardan keyin tafakkur jarayonlarining o'sishga, shakllanishga samarali yordam beradi.

Savol va topshiriqlar

1. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning xayol xususiyatlari qanday?
2. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning xayolini rivojlantirish yo'llarini izohlang.

ESHITISHDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH

Reja:

1. Tafakkur jarayoni haqida tushuncha.
2. Rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalar tafakkurining o'rganilganligi.
3. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar tafakkurining o'ziga xosligi.

"Tafakkur" (arabcha-"o'ylash", "fikir yuritish") - obyektiv borliqning tasavvur tushuncha va muhokamadagi faol inkosi jarayoni, insonning fikrlash qobiliyati, fikrlash tushuniladi.³

Tafakkur - inson aqliy faoliyatining yuksak shakli bo'lib, obyektiv borliqning ongda aks etish jarayonidir. Tafakkur atrof-muhitni, ijtimoiy hodisalarni, voqelikni bilish quroli, shuningdek, inson faoliyatini amalga oshirishning asosiy sharti. U sezgi, idrok, tasavvurlarga qaraganda voqelikni to'la va aniq aks ettiruvchi yuksak bilish jarayonidir. Tafakkur - inson miyasining alohida funksiyasi. Uning nerv fiziologik asosi birinchi va ikkinchi signal sistemalarining o'zaro munosa tidaniborat. Tafakkur jarayonida insonda fikr, mulohaza, g'oya, faraz kabilar vujudga keladi va ular shaxsning ongida tushunchalar, hukmlar, xulosalar shaklida ifodalanadi.

Tafakkur - haqiqatni bevosita va umumlashgan holda aks ettiruvchi bilish jarayonidir. Xozirgi kunda bolalar tafakkurining rivojlanishini uch bosqichi - ko'rgazmali - xarakat, ko'rgazmali - obrazli, so'zli - mantiq tavsiflanadi. So'nggi bosqichda umumlashish, tushunchaning shakllanganligi darajasi, ishlatiladigan material xarakteriga ko'ra konkret - tushunchali va obstrakt tushunchali tafakkur o'zaro tasniflanadi.

So'zlashuv nutqini sog'lom bolalarga nisbatan kech egallovchi eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda tafakkurning o'ziga xos xususiyatlari kuzatiladi. Eshitishda nuqsoni mavjud bolalarning tafakkurini rivojlantirish, uning o'ziga xos

3 O'zbekiston milliy insiklopediyasi VIII jild. - T.: Davlat ilmiy nashriyoti
2008-yil. - B. 774, 299 bet

xususiyatlari bir qator faylasuf va psixologlar e'tiborini jalb etib kelgan, chunonchi kar bola ruxiy jarayonlarini o'ziga xosligi nutqni tafakkur shakllanishi va rivojlanishidagi rolini bilish uchun keng imkon yaratadi.

Ko'rgazmali - xarakat tafakkuri predmet bilan tashqi xarakatni o'zida jamlaydi, bunda bola maqsadga erishish vositasi sifatida turli predmetlardan foydalanadi.

Amaliy vazifalarni amalga oshirishda muammoni xal etishni bir sharoitdan ikkinchisiga o'tkazish zaruriyati yuzaga keladi. Bu ko'rgazmali - xarakat umumlashmalarini shakllanishga olib keladi.

A.V.Zoporejets umuman nutqi mavjud bo'lmagan eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning ko'rgazmali xarakat tafakkurining xususiyatlarini tadqiq etgan. U bolalarga uzoqlashtirilgan predmetni olish uchun lineykadan, tayoqdan foydalanishni ko'zda tutuvchi topshiriq beradi. Xarakatni bir sharoitdan ikkinchisiga o'tkazish vositalarni umumlashtirish yo'nalishi bo'yicha amalga oshadi. Bu umumlashtirish uchun sensor va mator kamponentlarni yaxlitligiga xosdir, chunki ularda funksional moxiyat, predmetlarning tashqi ko'rinishi o'xshashligi aks etadi. Bu bog'liqlik eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda tashqi belgilarga emas, balki ichki belgilarga ko'ra predmetlarni bir sharoitdan boshqasiga olishdagi qiyinchilikni yuzaga kelishini asoslaydi. Aynan bir predmetni boshqa materiyadan yasash, yoki uni boshqa rangga bo'yashni bolalar yangi vazifa sifatida qabul qiladilar.

Ko'rgazmali - xarakat tafakkurining o'ziga xosligi, bir sharitdan boshqasiga o'tishda bola xarakati va predmet aloqasi, munosabati tamoyili to'liq namoyon bo'lmasligi bilan belgilanadi.

Shunday qilib, nutqiy rivojlanishgacha tafakkurning inert, harakatchan emasligi kuzatiladi. Ma'lum nuqtai nazardan bola narsani anglab, undan qiyinchilik bilan ajraladi. Nonutqiy muloqot imo - ishora yoki so'zlashuv nutqini shakllantirish uchunasosiyomilsanaladi. Karbolaninutqinirivojlantirishuning tafakkurini rivojlantirishda muxim o'ringa ega. A.V.Zaporojets

fikrcha bolani amaliy tajribaga, va sensor tarbiyaga ega bo'lishi asosidagina bu jarayon amalga oshishi mumkinligini e'tirof etadi. Bolaning amaliy tajribasi inson qo'li bilan yaratilgan predmetlar bilan topishi, xaakatlarni natijalar bilan qiyoslash, sabab – oqibat aloqalarini belgilashdir. Shuningdek bolalar predmetlararo munosabatlarni xam anglaydilar. Ko'rgazmali – xarakat tafakkurini rivojlanishidan orqada qolish nutqi mavjud bo'lmagan eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda ham uchraydi. N.V.Yashkova tadqiqotlarida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar sog'lom bolalarga nisbatan katta yoshlarda ko'rgazmali – xarakat vazifalarini xal eta olishi aniqlangan. 9 – 10 yoshlardagi eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun kattalar xarakatiga taqlid qilish xosdir. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar xarakatni umumlashtirish usuliga ega bo'lmaydilar, shu sababli bu vazifani o'rgatish uchun to'rt marotaba ko'p vaqt va uch marotaba ko'p ko'rgazma kerak bo'ladi.

Ikkinchi bosqich – ko'rgazmali obrazli tafakkurga o'tishda ikki o'zaro sharoit muxim axamiyatga egadir. 1 sharoit – bolalarda aynan predmetlarni ifodalovchi obroz, model, obyektarni farqlash malakasini shakllantirishdir. Bunda predmet xaqidagi tasavvurlar tizimi shakllanadi, obrazlar strukturasi takomillashadi, murakkablashadi, predmetlar obrazini tavsiflash malakasi shakllanadi.

A.R.Luriya va F.L.Yudovich nutqiy rivojlanishi orqada qolgan sog'lom egizak bolalarni tafakkurining o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etgan. Bolalar xarakatni so'zdan ajratish, rejalashtirish, elementar tasniflash malakasiga ega bo'lmaganlar. Predmet ifodasi, belgi, munosabatlarini anglab bola predmet obrazlari bilan tafakkur xarakatlarini amalga oshiradilar.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar uzoq muddat davomida ko'rgazmali – obrazli tafakkur bosqichida qoladilar. Xususan, T.V.Rozopova tadqiqotlarida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning ko'rgazmali – obrazli tafakkurining rivojlanishidagi farq maktab ta'limiing boshida I-sinfda kuzatiladi. 7 va 10 yoshlarda eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda eshituvchilarga

nisbatan rivojlanish tempi ortadi. Yuqori sinfdagi bolalarda ko'rgazmali obrazli tafakkur rivojlanishidagi o'ziga xoslik murakkab masalalarni echishda ko'rinadi. Bu kar va eshituvchi bolalarda masala echish faoliyati mazmuniga ko'ra farqlanish bilan asoslanadi. (Matritsani tuzish asosida yotuvchi munosabat, belgilarni aks ettirishi aniqligi, to'laligiga ko'ra farqlanadi). Masala echishni to'liq angolmaslik karlarda kuzatilgan, shu sababli bir vazifadan ikkinchisiga o'tishda qiyinchiliklarga uchraydi. Vazifalarni amalga oshirishni nutqqa bog'liqligi kuzatilgan. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar imo – ishora nutqi va so'zlardan vazifa tahlilida qanchalik foydalansa, uni shunchali muvofaqiyatli xal eta olingan.

To'liq ko'rgazmali – obrazli tafakkur so'zli – mantiq tafakkurining shakllanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ko'rgazmali – obrazli tafakkurni rivojlantirish model tasavvurlarni umumlashtirish imkonini yuzaga keltiradi. Ko'rgazmali – obrazli tafakkurni shakllantirish so'zlash nutqining shakllanishi bilan bog'liq bo'lib, ko'rgazmali – obrazli tafakkurni so'zlash – mantiq tafakkuri bosqichiga o'tishi sog'lom bolalarga nisbatan eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda uzoq muddat davomida amalga oshadi. Bu fikrlash operatsiyalarini rivojlanishida namoyon bo'ladi. Fikrlash operatsiyalari – tizimga tashkillashtirilgan umumiy xarakatlardir. Bu fikrlash operatsiyalari asta – sekinlik bilan amalga oshadi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda fikrlash operatsiyalari eshituvchi bolalarga nsbatan kech shakllanadi.

J.I.Shift tadqiqotlarida, kar, eshituvchi bolalarda ko'rgazmali umumlashtirishda o'xshashliklar kuzatiladi. Masalan, bolalar qalamlarni tasniflashda dastlab ikki tomonga spentning sovuq va issiq tomonlariga ko'ra ajratadilar, so'ng qalam ranglariga ko'ra 5 – 6 stakanlarga soladilar. Karlar bu etapda eshituvchi bolalarga nisbatan orqada qoladi. Keyingi bosqichda eshituvchi bolalarda umumlashtirish shakllantirish amalga oshadi, lekin eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda bu jarayon shakllanishida orqada qoladi. Ular uchun xarakatlarni umumlashtirish qiyin kechadi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar xarakatlar nomini

qiyinchilik bilan egallaydilar, masalan fe'llarni aralashtirib yuboradilar, xarvkatlarga to'liq tavsif berolmaydilar ba'zan faqat xarakatni amalga oshiruvchi predmetni tavsiflash bilan cheklanadi.

Analiz va sintez jaranini rivojlanishida xam orqada qolish kuzatiladi. Bu jarayonlar yanada uzoq muddatli va sistematik tarzda amalga oshadi.

Taqqoslash jarayonida farqlarni topish va o'xshatish munosabatlari amalga oadi. I.M.Salovnov ta'kidlashicha, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda taqqoslashning quyidagi jixatlari namoyon bo'ladi: ikki predmetni taqqoslashdan birining analiziga o'tib ketish, vazifani soddalashtirish, predmetlarni taqqoslashdagi qiyinchiliklar kuzatiladi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning o'smirlik chog'ida taqqoslash texnikasini egallashda yutuqlar kuzatiladi., taqqoslash sifati oladi.

Abstraktsiyalash jarayoni syujetli – rasm o'yin va o'quv faoliyati jarayonida amalga oshadi. Syujetli – rasm o'tishning xarakterli xususiyati o'rindosh predmetlarni qo'llash xisoblanadi. Almashtiriluvchi predmetlar xususiyatini ajratish, va taqqoslash obstraktsiyaga asoslanadi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar almashtirilgan predmetlarn qo'llashda qiyinchiliklarga uchraydilar. Xatto almashtirish uchun funksional mumkin bo'lgan predmetlar ular tomonidan xar doim qo'llanilmaydi, ularni real funksional ahamiyatida ajratish eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun qiyin tarzda kechadi. N.I.Shif ma'lumotlariga ko'ra, maktabgacha yoshdagi, maktab yoshidagi eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun almashtiruvchi vosita sifatida tanishga nisbatan, notanish predmetlarni qo'llash qulaylik tug'diradi. Abstraktsiya jaryonida orqada qolish eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar o'quv faoliyatida xam orqada qolishiga sabab bo'ladi. 7-8 yoshlarda bola idroki ta'sirini anglash, asta-sekin murakkablashuvchisharoitda operatsiyalarni xal etish imkonini beradi.

Fikrlash opperatsiyalarini amalga oshirish eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda nisbatan kechroq amalga oshadi.

TV.Rozolova ma'lumotlariga ko'ra II - sinf sog'lom o'quvchilar maydon saqlanishiga ko'ra masalalarni muvoffaqiyatli echadilar, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar IV sinf o'quvchilari maydonni baxolash bo'yicha fikrlash operatsiyalari engga olmaydilar. Faqat X sinfdagina yangi masala echimi usuli sifatida ikki kattalik munosabati, o'zaro qaytarish munosabatini bilimlarini qo'llay oladilar.

So'zli – mantiq yoki tushunchali tafakkur rivojlanishida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda sog'lom bolalarga nisbatan o'ziga xoslik kuzatiladi. So'zli – mantiq tafakkur nutqiy vositalar asosida shakllanuvchi mantiqiy konstruksiyalar, tushunchalarni qo'llash bilan shakllanadi. Tafakkur va nutqni rivojlantirish o'zaro bir – biriga bog'liq xolda turli yo'nalishda rivojlanadi. 2 yosh atrofida eshituvchi bola o'z xayotida katta yangilik yaratadi: xar qaysi predmet o'z nomiga ega bo'ladi, ya'ni nutqning simvolik funksiyasini oladi. Shu paytdan boshlab, nutq va tafakkur rivojlanishi o'zaro boqlanadi, tafakkur nutqiy, nutq intellektual bo'ladi,

Eshitishda nuqsoni mavjud bolalarda tafakkur va nutqni rivojlanish yo'nalishi, eshituvchilarga nisbatan kech amalga oshadi. Kundalik qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun, intensifikatsiya qilish etarli emas, chunki xar qanday so'z yoki fraza tafakkur rivojlanishiga ijbiiy ta'sir ko'rsatmaydi.

P.Omrok fikricha, so'z ma'nosini tushunish imkonini amalga oshiruvchi nutqiy vositalarni ta'limda qo'llash samarali natija beradi. Nutqiy vositalar bolalarning real bilish faoliyatida qo'llanilishi lozim.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar kattaliklarni taqqoslash, kattaliklar o'zaro munosabatini tushunish, masala mazmunidan uni ko'rgazmali ifodalash, berilgan munosabatlarda ko'rgazmali sharoitda ajratishni ifodalovchi bir qator masalalarni xal etishda qiyinchiliklarga uchraydi. Asosiy qiyinchiliklar matn mazmuni bo'yicha xulosa chiharish, ma'lumotlarni analiz va sintez qilishda yuzaga keladi. Bunda eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar mazmunan to'liq bo'lmagan, lekin nutqiy vositalar bilan ifodalangan javoblarni bayon etadi.

Eshitishda nuqsoni mavjud bolalar ta'lim jarayonida ularning tafakkur xususiyatlarini xisobga olish darkor. T.V.Rozonova o'zgacha yondoshuvni talab etuvchi bolalarning 4 guruhini tasniflaydi:

Birinchi guruhga ko'rgazmali va tushunchali tafakkur rivojlanishi yuqori darajada bo'lgan bolalar kiradi. Ular eshituvchi bolalar bilan ko'rgazmali - obrazli tafakkur darajasiga ko'ra bir xil bo'ladi, lekin tushunchali tafakkurli rivojlanishi bo'yicha uch yil orqada qoladi. Bu bolalar yuqori o'zlashtirishga ega bo'ladi, maktab dasturini ijobiy egallaydi, masalalarni mustaqil yozadilar.

Ikkinchi guruhga eshituvchi bolalardan ko'rgazmali tafakkur, tushunchali tafakkur darajasiga ko'ra orqa qoluvchi, bu tafakkur turlarini o'rta darajasini namoyon qiluvchi eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar tasviflanadi. Ta'lim jarayonida ular surdopedagogning yordamiga muxtoj bo'ladilar.

Uchinchi guruhga ko'rgazmali tafakkurning yuqori darajasi, tushunchali tafakkurning past darajasi namoyon bo'lgan eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni jamlaydi. Ko'rgazmali - obrazli tafakkur darajasiga ko'ra bu bolalar eshituvchi bolalar bilan bir xil bo'ladi, lekin so'zlashuv nutqini egallashda ular qiyinchilikka uchraydilar. Shu sababli ular maktab dasturini egallashda qiyinchilikka uchraydilar, fikrlash operatsiyalari to'liq bo'lmaydi, etarli darajada umumlashmagan bo'ladi.

To'rtinchi guruhga tushunchali tafakkur darajasini yuqori ko'rsatkichi, ko'rgazmali obrazli tafakkurning past darajadali kuzatilgan bolalar jamlanadi. Bunday diproportsiya nutqiy vositalarni etarli tabaqalamay o'qitish, syujetli - rolli o'yin, tasviriy faoliyatning ommaviy turlariga axamiyat bermaslik asosida kelib chiqadi. Disproportsiya oqibatida bu bolalarda matematika fanidan orqada qolish, maktab dasturini egallashda qiynalish yuzaga keladi. G.V.Rozonova tomonidan eshitishda nuqsoni mavjud bolalar tafakkuri rivojlanishidagi munosabatlar tipini tasniflashni amalga oshirilishi o'z vaqtida tashxis qo'yish, disproportsiyaning sababini aniqlash, ularga

nisbatan korreksion dastur tuzulishi lozimligini ko'rsatdi.

T.V.Rozonova tafakkur turlarini biridan boshqasiga o'tish xususiyatlarini taxlil etib, kar o'quvchilarda so'zli - mantiq tafakkurini shakllanish sharoitlarini ko'rsatib beradi.

Nutqnifikrlashfaoliyatisifatidashakllantirish. Bujarayonni ko'rgazmali - amaliy maqsad material asosida rivojlantirishni boshlash maqsadga muvofiqdir. Kar bola vazifani xal etish tajribasiga, ko'rgazmali vositalar ifodalagan shart - sharoitga ega bo'lishi kerak. Bunda nutq obrazlari ixtiyoriy boshharish vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Masalani xal etish jarayoniga nutqni kiritish uchun eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni predmetlarni nomlash, ular o'rtasidagi fazoviy munosabatlarni qo'llash, vaqtli ketma - ketlikni tavsiflash, o'z xatolarini topish va belgilashga undash lozim. Aniq bir predmetli sharoitda so'zli aniqlashning turli usullari qo'llash uni chuqur anglash, tafakkur egiluvchanligi shakllantirishga asos bo'ladi. Shart ma'lum xodisalar turkumini tushunish, fikrlashga o'rgatishdir.

Buning uchun bolalar nutqiy vositalarni egallashlari so'zni, so'zli iboralar predmet mazmuniga o'tish va aks qaytarishni predmet, xarakat qususiyatlaridan so'zli ifodalarga munosabatini aniqlash malakasiga ega bo'lishlari kerak. Ularni fazo va vaqt munosabatlari ifodalash uchun nutqiy vositalarni qo'llashiga o'rgatish maqsadga muvofiq. Bunda predmetlar o'rtasidagi fazoviy munosabatlar sharoit ichidagi predmet nuqtai nazardan tahlil etish ko'zda tutiladi.

Shart barcha fikrlash operatsiyalari (analiz, sintez, taqqoslash, abstraktsiya, umumiyashtirish) rivojlantirishdir. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar bu operatsiyalarni eshituvchi bolalarga nisbatan kech egallaydilar. Xodisa, tushunchalarga nisbatan fikrlash operatsiyalarida qiyinchilikka duch keladilar. Shuning uchun eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni predmetni tashqi belgilarini tasniflash, so'ng ichki funksional tafsifi turkumga xosligini ajratishga o'rgatish lozim. Buning uchun bolalar dastlab predmetlarni, so'ng tasviri, qiyin so'zli ifodani tasniflashlari ko'zda tutiladi. Ularni aynan bir predmetni turli ko'rsatkichlar bo'yicha tasniflashga o'rgatish

kerak. Tadqiqotlar ko'rsatishicha, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar obyektning bosh xususiyatini ajratish, xususiyatlari aniqlash bo'yicha operatsiyalarda qiyinchiliklar yuzaga keladi. Ular uchun xususiyat va o'zaro munosabatlarini xisobga olish, shu sababli bu jarayon bo'limlarni to'liq egallashga to'sqinlik qiladi.

Sharoit mantiqiy tushunchalarni tasniflash, deduktiv va induktiv xulosalar mantiqiy aloqalarni o'rgatishni ko'zda tutuvchi mantiqiy savodxonlikni egallashdir. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni nutq darajasidagi umumlashtirishni amalga oshirishga o'rgatish lozim. Tushunchalarni qo'llash, ularni bir-biri bilan boqlash darajasiga ko'ra asosiy tasnifning tuzilishini egallash, xodisalar o'rtasidagi aloqa o'rnatish malakasi shakllanadi.

T.A. Grigoryeva tadqiqotlari ko'rsatishicha maxsus tashkil etilgan ishda sinfda kar o'quvchilarni xodisalar o'rtasidagi sabab oqibat munosabatlarini o'rgatish malakasini shakllantirish mumkin. Bunday maqsadga qaratilgan ish o'quv fanlari ma'nosini tushunish, matematik masalalarni aniqlash, uni muvoffaqiyatli qal etish imkonini beradi.

Konkret tushunchalar, mantiqiy terminlar mazmunini egallash davomida konkret tushunchali tafakkurdan abstrakt tushuncha tafakkurga o'tish amalga oshadi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar ichida tafakkurining rivojlanishiga ko'ra eshituvchi bolalardan farq qilmaydiganlari ham bo'ladi. Bu adekvat ta'lim va tarbiya sharoitida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni intellektual rivojlanishini kompensatsiyalashning katta imkoniyatlari yuzaga kelishidan dalolat beradi.

Tafakkurning rivojlanish muammosi surdopsixologiyada eng ko'p ishlangan muammo. Tafakkurning har xil: ko'rgazmali-amaliy, ko'rgazmali - obrazli, lisoniy - mantiqiy (konkret - tushunchali va mavqum - tushunchali) turlari - fikrlash operatsiyalari, masalalar echish, tushunchalarning shakllanishi o'rganilgan. kar bolalarning fikrlash operatsiyalarini o'rganish ko'rsatadiki, kichik yoshdagi kar o'quvchilar predmetlarni tahlil va qiyoslashda «ko'zga tashlanadigan» belgilarni asosiy,

ammo u qadar sezilmaydiganlariga qaraganda osonroq ajratadi. Kar bolalar predmetlarning nafaqat tafovutlari, balki o'xshashliklarini farqlashga ham eshitadigan bolalarga nisbatan kechroq o'rganadi. Predmetlarni ularning bevosita idrok etib emas, balki tasavvuri bo'yicha qiyoslash ham kar bolalar uchun eshitadiganlariga qaraganda ancha qiyin (I.M.Solovev, J.I.Shif).

Kichik yoshli maktab o'quvchilarining ko'rgazmali-amaliy fikrlashini o'rganish ko'rsatdiki, murakkab ko'rgazmali - amaliy masalalarni echishda kar o'quvchilar eshitadigan tengdoshlariga qaraganda bir muncha orqada qolishadi. Kar o'quvchilar ko'rish-makonli masalalarni echish uchun zarur bo'lgan predmetli harakatlar umumlashgan usullarini eshitadigan bolalarga qaraganda chekinroq o'zlashtiradi, masalaning sharti o'zgarganligini hisobga olmasdan, echishning odatiy, stereotip usullariga moyil bo'ladi, zarur qollarda konkret vaziyatga nisbatan aks fikrlashga qiynaladi (N.V.Yashkova). Ko'rish-makonli samalalarni echish makon munosabatlarini anglatadigan so'zlar: rstida, ustida, o'ngda, chapda va q.q. ni etarlicha o'zlashtirilmaganligi hisobiga qiyinlashadi (O.I.Kukushkina).

Tadqiqot materiallariga qaraganda (T.V.Rozanova), kar maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalar simmetriya printsiplari va analogiya printsiplari bo'yicha echiladigan ko'rgazmali masalalarni echishda normal bolalardan bir muncha ortda qoladi. o'rta maktab yoshiga kelib, kar va eshitadigan bolalarning ko'rgazmali-obrazli tafakkuri rivojlanishidagi tafovut ancha kamayada. Shu bilan birga, xatto kata maktab yoshida ham kar bolalar ajratilishi qiyin (maskirovkalangan) boshlang'ich belgi-shartlar berilgan ko'rgazmali masalalarni echishda qiyinchiliklarni boshdan kechiradi. Kar bolalar tafakkur vositasi sifatida ichki nutqning etarlicha rivojlanmagani sababli bunday masalalarni eshitadiganlariga qaraganda muvaffaqiyatsizroq echadi. (S.Ya.Saraeva ham shu kabi natijalarni olgan).

Shu bilan birga tadqiqotlar ko'rsatadiki, ko'rgazmali-obrazli tafakkurning rivojlanishida kichik va o'rta maktab yoshidagi kar bolalar eshitadigan normal intellektga ega

tengdoshlariga, eitadigan aqli zaif bolalarga nisbatan yaqin bo'ladi. Normal eshitadigan aqli zaif bolalarning ko'rgazmali-obrazli tafakkuri imkoniyatlari kar bolalarnikidan ancha kamroq. Ko'rgazmali-obrazli tafakkurning rivojlanishida bu kabi tafovutlar ta'limda kata qiyinchiliklarga duch keladigan kar bolalarni differentsial tashqislashda muhim diagnostik belgi sanaladi.

Kar bolalarning eng ko'p orqada qolishi va o'ziga xosligi ularning lisoniy-mantiqiy tafakkuri rivojlanishida kuzatiladi.

Nutqiy fikrlashni o'zlashtirish kar bolalarda maktabgacha yosh davrida boshlanadi va kichik maktab yoshida davom etadi. Bunda kar bolalarda anchagacha predmetlar, belgilar, harakatlar va ularning ifodalari o'rtasidagi aloqalarning zaruriy qaytarilishi shakllanmaydi. Fikrlash amallarida so'zdan obyektga aloqa obyektidan so'zga aloqaga qaraganda ancha oldin faoliyat ko'rsata boshlaydi. so'z ifodalari bilan bu kabi bir yoqlama operatsiyalash ko'rgazmali vaziyatlarni tahlil qilish, ularni umumlashtirish va differentsiatsiyalashda qiyinchiliklarni keltirib chiharadi.

Kar bolalarda masalalarni yechishga tushunchali yondashuv eshitadiganlardan ancha kech (3-4 yil va ortiq kechikish bilan) boshlanadi. Kar bolalar bir-biri bilan mazmunan nisbatlangan, turli darajada umumlashgan tushunchalarni egallashda kata qiyinchiliklarga duch keladi. Faqat katta maktab yoshida kar bolalarda abstrakt-tushunchali fikrlash shakllana boshlaydi.

Kar bolalar qodislar, voqealar va kishilarning xatti-harakatlari o'rtasidagi mantiqiy aloqa va munosabatlarni qiyinchilik bilan egallaydi. Kichik yoshdagi kar o'quvchilar sabab - oqibatli munosabatlarni ular aniq ko'rinadigan ko'rgazmali vaziyatga nisbatan tushunishadi. Bolalar qandaydir voqea, qodisalarining yashirin sabablarini aniqlay olmaydi. Ular ko'pincha sababni voqea -qodisalariga hamroq yoki ulardan oldingi oqibat bilan, maqsad bilan qorishtirib yuboradi. Ular ko'pincha sabab-oqibat va vaqt-makon aloqalarni bir deb biladi (o'xshatib yuboradi).

Sabab-oqibat va boshqa bog'liqliklarni aniqlash malakasi kar bolalarda o'rta va katta maktab yoshida ham shakllanishda davom etadi.

Kar bolalar uchun matnni mantiqiy qayta ishlash, nutqiy shaklda ularga xabar qilingan ma'lumotlar asosida xulosalar qilish eng qiyini sanaladi.

Kattalarning salgina yordami bilan fikrlash imkoniyatlari, topshiriqlarni to'liq mustaqil bajarishidagiga qaraganda, sezilarli darajada ortishi nafaqat kichik maktab yoshidagi, balki kattaroq bolalarning aksariyat ko'pchili uchun ham xarakterli holat.

Aniqlangan, kar bolalarning lisoniy-mantiqiy tafakkuri rivojlanishida orqada qolish va o'ziga xoslikni xarakterlaydigan fakt va bog'liqliklar ko'p jihatdan ta'limdagi kamchiliklar bilan belgilanadi. Tushunchalar bilan operatsiyalash, sabab-oqibat munosabatlarini va boshqa mantiqiy bog'liqliklarni ajratish, xulosalar qilish malakalarini shakllantirishga maxsus qaratilgan ta'lim sharoitida kar bolalarning umuman lisoniy-mantiqiy tafakkurida sezilarli o'sish kuzatiladi (T.A.Grigoreva, T.V.Rozanova).

Kar bolalarning tafakkur rivojlanishida jiddiy individual tafovutlar aniqlangan. Kar bolalarning haryib to'rtidan bir qismi ko'rgazmali tafakkurning rivojlanishida eshitadigan tengdoshlarida tafakkurning bu turi rivojlanishidagi darajaga mos darajaga ega. Bundan tashqari, kar bolalarning bir qismi (har bir yosh toifasida haryib 15%) lisoniy-mantiqiy tafakkurning rivojlanishida eshitadigan tengdoshlarining o'rtacha ko'rsatkichlariga yaqin keladi. Biroq kar bolalar orasida (10-15%) kar bolalarning ko'pchiligida kuzatiladigan lisoniy - mantiqiy tafakkur rivojlanish darajasidan ancha orqada qoladiganlari xam uchraydi. Bu bolalar aqli zaif emas, ularning ko'rgazmali tafakkur rivojlanish darajasi kar bolalar yosh normasi doirasida. lisoniy-mantiqiy tafakkurning rivojlanishida keskin orqada qolish bu bolalarning oqlaki nutqni egallashidagi qiyinchiliklar bilan belgilangan.

Tushunchali tafakkurning kar o'quvchilarning ham o'quv,

ham siyosiy, badiiy, ilmiy-ommbop va boshqa adabiyotlarda mavjud turli bilimlarni egallashidagi ahamiyati to'grisida gapirishga zarurat bo'lmasa kerak. Shu bilan birga, tadqiqotlar ko'rsatadiki, kar bolalar uchun maktablardagi maxsus ta'limning qozirgi mazmuni va metodlari tafakkurning bu turi zarur darajada rivojlanishini ta'minlay olmayapti. Kar bolalar uchun maktabgacha ta'lim muassasalari va maktablarda bola tafakkurini rivojlantirish bo'yicha aloqida dasturni realizatsiyalash kerak. Bu dasturni quyidagi bosqichlarga bo'lish mumkin.

1. Kar bolalarning tushunchali tafakkuri ko'rgazmali-amaliy va ko'rgazmali-obrazli tafakkur asosida oqziki va yozma (ekspressiv va impressiv) nutq rivojlanishi bilan birlikda shakllanadi. Ko'rgazmali va lisoniy ma'lumotlar bilan operatsiyalashga nisbatan qaytarilish qonuni (so'zdan uning ma'nosini konkret tasavvur qilishga va narsadan, belgidan, harakatdan ularni umumlashtirgan so'zga; so'z ifodadan uning konkret mazmuniga va konkret vaziyatdan uning lisoniy xarakteristikasiga engil o'tishlarni shakllantirish zarurati) aloqida ahamiyat kasb etadi. Bunda kar bolalarni nutqda aynan bir konkret vaziyatni turli usullar bilan xarakteristiklash, ya'ni bu vaziyatda nutqiy usulda goq u goq bu munosabatlarni aniqlashga o'rgatish zarur. Keyin bolalarni iborda bevosita ifodalanmagan, faqat ko'zda tutilgan predmetli munosabatlarni ochib berishga asoslangan jummalarni qayta tuzishga o'rgatish kerak.

2. Fikrlash operatsiyalari (analiz, sintez, qiyoslash, abstraktsiyalash, umumlashtirish, konkretlashtirish) kar bolalarda fikrlash faoliyatining ongli ravishda qo'llanadigan usullari tarzida shakllantiriladi. Bolalar predmetlar belgilariniajratishga ma'lum reja asosida o'rganadi:

1) tashqi xossalari (rang, shakl, kattalik; tashqi qurilish), qismlar va zarralar hamda ularning xossalari, predmet qismlari, ularning xossalari o'rtasidagi munosabatlar;

2) ichki belgi va xossalar (predmet tayyorlangan material; ichki kqurilish);

3) predmetning funksional xossalari va vazifasi;

4) ma'lum turdagi predmetlarga mansubligi.

Yuqorida sanab o'tilgan belgilar bo'yicha aloqida predmetlar tahlil qilinadi, boshqalari bilan qiyoslanadi, predmetlar guruhlarini umumlashtiriladi. U yoki bu umumiy yoki farqli (xususiy) belgilarni ta'kidlash uchun qiyoslashda 2-3 va ortiq predmetdan foydalaniladi. Umumlashtirishda aynan shu predmetlarda farqli va umumiy xossalar – umumlashtirish uchun asoslar ajratiladi.

3. Bolalar mantiqiy savodxonlik asoslariga: tasniflash tamoyillariga; «hamma», «ayrim», «qech bir», «ayrimlari emas» kvantorlari bilan fikrlar qurish va ularni qaqiqat yoki soxta deb baholash; eng sodda deduktiv va induktiv xulosalar, dalillar va ta'riflar qurishga o'rgatiladi.

4. Bolalarda sabab-oqibat, harakat-maqсад tipidagi mantiqiy bog'liqliklarni tushunish shakllantiriladi. Maqsad va sabab-oqibat munosabatlari o'rtasidagi farqlar, shuningdek ularning makon-vaqt munosabatlaridan farqi aniqlanadi. Bolalar mantiqiy bog'liqliklarni: 1) kattalarning syueetli rasmdagi hayotiy vaziyatga munosabati haqidagi savollariga javobda; 2) o'z tashabbusi bilan hayotiy vaziyatlar, syujetli rasmlar mazmuni haqida yozma insho yoki og'zaki hikoyalarda bayon qilinayotganlarga mantiqiy yondashuv asosida, ma'lum rejaga amal qilib; 3) hikoya matni bo'yicha savollarga javoblarda; 4) matn mazmunini og'zaki yoki yozma mustaqil qayta hikoya qilishda ifodalashga o'rtatiladi.

5. Bolalarda hikoya yoki matematik masalaning turli o'rinlarida berilgan ma'lumotlarni taqqoslash va umumlashtirish, taqqoslash asosida hikoyada yoki masalada bevosita ifodalanmagan, ammo ko'zda tutilgan narsalar (bayonda tushirib qoldirilgan qismlar, qodisalar, bayon qilinganlaridan keyin bo'lishi mumkin qodisalar, masalalardagi ma'lum va noma'lumlar va sh.k.) haqida xulosa qilish malakasi shakllantiriladi.

6. Nafaqat konkret predmetlar, balki bevosita, rasmda tasvirlangan, hikoyalarda tasvirlangan, matematik masalada

ifodalangan hayotiy vaziyatlarni qiyoslash va umumlashtirish bo'yicha fikrlash faoliyati usullari shakllantiriladi. Keyin bolalar bilimlarni analiz, sintez, umumlashtirish, induktiv va deduktiv xulosalar chiqarish, o'zlari uchun yangi bo'lgan bog'liqlari va qonuniyatlarni topishga, bularning barini, ko'rgazmalilikka bevosita tayanmasdan, nutqiy planda bajarishga o'rganadi. Bu yo'l bilan ular abstrakt – tushunchali tafakkur o'pretsiyalarini egallaydi.

Muammoli va differentsiatsiyalangan ta'lim tamoyillariga rioya qilish, bolalarda fikrlash operatsiyalarini bajarishga moyillik va yangi fakt hamda bog'liqliklarni mustaqil kashf etishga ehtiyojni tarbiyalash kar bolalarning tushunchali tafakkurini shakllantirishning majburiy shartlari sanaladi.

Kar bolalar va o'spirinlarda nafaqat xotira, tafakkur va nutqning rivojlanishida, balki qayta yaratish va ijodiy tasavvurning rivojlanishida ham orqada qolish va o'ziga xoslik kuzatiladi M.M.Nudelman, M.Yu.Rau, E.G.Rechitskaya, E.A.Soshina). Barcha bilish jarayonlarining o'zviy o'zaro aloqasi obrazlar bilan operatsiyalashda, lisoniy tavsifdan obrazli tasavvurga o'tishda, yangi xayotiy vaziyatni konstruksiyalashda o'ziga xos qiyinchiliklarga olib keladi.

Savol va topshiriqlar

1. Kar va zaif eshituvchi bolalarning tafakkur xususiyatlarini izohlang.
2. Maktab yoshidagi kar bolalarning so'z mantiq tafakkuri xususiyatlarini yoritng.
3. Tafakkur haqida tushuncha bering.
4. Tafakkurning qanday turlari mavjud?
5. Qaysi olimlar eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar tafakkuri haqida ilmiy izlanishlar olib borishgan?
6. Tafakkurning qanday operatsiyalari mavjud?
7. Tafakkur va nutqning bog'liqligi haqida tushuntirib bering.

ESHITISHDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARNI OG'ZAKI NUTQINING PSIXOLOGIK ASOSI

Reja:

1. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar nutqini shakllantirish muammolari o'rganilishi.
2. Kar o'quvchilarni og'zaki nutqqa o'rgatishning o'ziga xosligi.
3. Kar bolalar og'zaki nutqni shakllantirish jarayoni.

Tayanch tushunchalar: *nutq, imo-ishora, og'zaki nutq, nutqiy muloqot*

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar nutqini shakllantirish muammolari I.M.Solovyeva, F.F.Rau, N.I.Shif, S.A.Zikov, T.V.Rozonov, N.G.Morozov, R.M.Boskislari ilmiy ishlarida tadqiq etilgan. Og'zaki nutq inson jamiyatida ilk nutq shakli sifatida namoyon bo'lgan. Dastlabki so'zlar tovush komplekslar shaklida bo'lib, tarixiy rivojlanish davrida ma'lum tushunchalar sifatida aniqlanib, mustahkamlanib borgan. Lekin dastlab imo-ishora nutqi mavjud bo'lgan degan fikr ham mavjud. Bu ma'lumotga ko'ra, og'zaki nutq keyinroq paydo bo'lgan. Imo-ishora va mimikalar orqali o'z fikrini ifodalashga tovush taqlid so'zlarni ham qo'llaganlar. Keyinchalik tovush bo'linmalar imo-ishoralardan ajralib, mustaqil ma'noga ega bo'la boshlagan. Lekin tadqiqot natijalari tahliliga ko'ra bu ta'limot tanqidga uchragan va mustaqil emas deb tan olingan. Og'zaki nutq psixologik nuqtai nazardan jaranglanishga ko'ra faoliyat ko'rsatadi. So'zning tovush qobiqi uning, material qobig'i sanaladi. Tilning tovush tarkibi turlicha bo'ladi. O'zbek tilida fonemalar tavsiflanadi. Bunda jarangli – jarangsiz tovush variantlari ham farqlanadi. Fonema nutqning eng kichik birligi bo'lib, so'z ma'nosi va ahamiyatini farqlash vositasi bo'lib xizmat qiladi. Har bir tilda o'ziga xos tovush tarkibi bo'lib, buni bola nutqiy amaliyot jarayonida egallab boradi. Biz kattalar tomonidan so'zlarni bir necha marta takrorlanishi hamda uni

bolalar tomonidan idrok etilishi asosida amalga oshadi.

Psixologik nuqtai nazardan og'zaki nutq sodda sanaladi. Uni faoliyatga kirishish - vositasi tovush fonemadir. Yozma nutqning fonemaga kirishish vositasi - grafik belgi harfidir. Og'zaki nutqni idrok etish eshituv analizatori asosida yozma nutqni idrok etish ko'ruv analizatori asosida amalga oshadi. Ularning ifoda vositalari ham turlichadir. Og'zaki nutqda bu mimika, imo-ishora, urg'u, yozma nutqda - bu uslub, so'zlarni alohida tanlash usullari hisoblanadi. Og'zaki nutq, yozma nutq ham monologik va dialogik shaklda bo'ladi. Dialogik nutq psixologik nuqtai nazardan murakkab savol-javob tarzida bo'ladi va auditoriyaning hisobga olishi tayyorgarligini talab qiladi. Monologik nutq yengilroq bo'ladi. Uni tuzilishiga, u davom etayotgan sharoit va muhit yordam beradi. Bolada og'zaki nutq atrofdagilar bilan muloqotda rivojlanadi. Eshituv idroki yordamida bola atrofdagilar og'zaki nutqini idrok etadi, 5-6 yoshlarda eshituvchilar tovushlarni to'g'ri talaffuzini, lug'at boyligi va gap grammatik qoidalarini amaliy egallaydi. Kar bola bu yo'l bilan nutqni egallay olmaydi, chunki u atrofdagilar nutqini eshitmaydi. Agar eshituvchi bola bog'chaga maktabga shakllangan nutq bilan borsa, kar bola og'zaki nutqi mavjud bo'lmagan holda boradi. Unda nutqni boshidan boshlab shakllantirish kerak. Buning uchun kar bolaning artikulyatsion nafas olish va ovoz apparatini tayyorlash kerak. Tadqiqotlar ko'rsatishicha, kar bolada eshituvchi bolaga nisbatan nutqiy nafas olish bir qator xususiyatlari egadir. U bo'lingan havo oqimidan foydalana olmaydi va frazalarni qismlarga bo'la olmaydi. Maxsus mashqlar davomida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda nutqiy nafas olish shakllanadi. Ularning ovozi ustida ham ish olib boriladi. Ko'p miqdordagi karlarda ovoz bo'g'iq, modullashmagan bo'ladi. Maxsus mashqlar jarayonida o'qituvchi kar o'quvchi ovozini eshituvchi bola ovoziga yaqinlashtirishga harakat qiladi, lekin bu har doim ham kerakli natijalarga olib kelmaydi. Kar bola nutqi ovozi butun hayoti davomida o'ziga xos otenkaga ega bo'ladi. Kar o'quvchilarni og'zaki nutqqa o'rgatishning muhim qismi ularda turli talaffuzni

shakllantirishdir. O'zbek tilidagi har bir fonema kar bolada maxsus usullar bilan qo'yiladi. Saqlangan analizatorlar ko'ruv, sezgi, harakat analizator faoliyatini qo'llab, o'qituvchi oyna oldida tovush talaffuzini ko'rsatadi va taqlid asosida talaffuz qilishni boladan so'raydi. Avvalombor oson talaffuz etiluvchi tovushlar "p", "b", "m" qo'yiladi, so'ng bug'in, so'z birikmalariga o'tiladi. Shu tartibda boshqa nutqiy tovushlar talaffuziga o'tiladi.

Bu jarayonni amalga oshirishda eshituv qoldig'iga tayaniladi. Kar bolada og'zaki nutqni shakllantirishda ko'ruv, harakat va sezgi analizatorlari yordamida bilan maydonga chiqadi. Eshituvchi bola o'z talaffuzini eshitish orqali nazorat qiladi, xato qilsa bu xatoni eshitib so'ng to'g'rilaydi. Kar bola talaffuzini dastlab oyna oldida, so'ng ko'ruv va harakat sezgilari orqali nazorat qiladi. Tovush artikulyatsiyasi qanchalik aniq va yaxshi bo'lish kinestik sezgilar shunchalik differensatsiyalashgan bo'ladi. Bu sezgi turi kar bola talaffuzini shakllantirishda muhim o'rin hisoblanadi. Kar bolaning og'zaki nutqini shakllantirishda eshitish qoldig'i ham katta ahamiyat kasb etadi, pedagogik jarayon uchun III va IV guruhga kiruvchi 512 dan 1024 Gts va 1024 dan 2048 Gts gacha tovush chastotalarini qabul qiluvchi eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar muhim ahamiyatga egadir. Eshitish qoidalaridan foydalanish unli tovushlar differensatsiyasi, to'g'ri mantiq va so'zli urg'ularni qo'llash imkonini beradi. Karlarni og'zaki nutqqa o'rgatishda teri va taktil vibratsion sezgilardan keng foydalaniladi. Masalan, o'qituvchi artikulyatsiyasi o'xshash tovushlarni (p - b, t - d) kar o'quvchi diqqatini ayrim holda bu jarangsiz tovushli vibratsiyasi yo'q, ikkinchi holatda qo'yib xalqum yoki ko'krak qafasiga qo'yib vibratsiyasini sezish mumkin. Taktil vibratsiyatsion sezgilarni maxsus asboblari yordamida ta'limda qo'llash kar o'quvchilarni 38 % darajada og'zaki nutqni shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu M.G.Abramov va M.N.Moginshinskiy tadqiqotlarda aniqlangan. Oxirgi yillarda mutaxassis defektologlar tomonidan eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar og'zaki nutqini shakllantirishga bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ular eshitishda nuqsoni

bo'lgan bolalarni talaffuzga o'rgatishning samarali usullarini tadqiq etmoqda.

Nutqiy muloqot jarayonida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar nutqini shakllantirish va qisqartirilgan fonemalar tizimi asosida talaffuzga o'rganish tamoyilini ko'rib chitamiz. S.A.Zikov tadqiqotlariga ko'ra eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda nutqni ularning hayotiy ehtiyojlarini hisobga olib, shakllantirish kerak. Til insonlarning mehnat faoliyati yuzaga kelib, shakllana borgan. U insonlarning fikr almashinuvi, ong quroli sanaladi.

Chunonchi, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar pedagogik ta'limi ularda so'zlashuv nutqini shakllantirish asosida tashkil etiladi. Agar oldin nutqiy ta'limotdan amaliyotga o'tsa, so'zlashuv nutqini shakllantirish muloqotni shakllantirishga o'tiladi, lekin bu amaliyot grammatik jihatdan tashkil etilgan. Qisqartirilgan fonemalar tizimi asosida og'zaki nutqqa o'rgatishda tezroq maqsadga erishish uchun talaffuzi yengil bo'lgan, hosil bo'lish o'rniga ko'ra o'xshash fonemalar o'zaro almashtirib o'rgatiladi. Bu lug'at boyligi oshirish so'zlarni muloqotga kiritish, kar bola nutqiy amaliyoti imkonini oshiradi. Bunday psixologik yondashuv eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni tilga o'qitishning boshlang'ich etapida saqlangan bo'lishi mumkin. Shunga o'xshash holat eshituvchi bolani nutqiy rivojlanishida ham kuzatiladi. Eshituvchi bola 2-5 yoshlar o'rtasida ma'lum tovushlarni to'g'ri talaffuz eta olmaydi. Bu bosqich bolaning nutqiy apparati to'liq shakllanmaganligi va qosil bo'lishga ko'ra murakkab bo'lgan tovushlar talaffuziga tayyor emasligi bilan asoslanadi. Shuning uchun bola tovushlarni boshqalari bilan almashtiradi, tushirib qoldiradi. Bunda so'zning tovush tarkibi o'zgarsa ham u o'zining mazmunini o'zgartirmaydi. Vaqt o'tishi bilan bu xatolik o'z - o'zidan yo'qolib ketadi. Shunday qilib, kar bolada og'zaki nutqni shakllantirish faqat o'qituvchi rahbarligida maxsus tashkil etilgan sharoitlarda amalga oshadi. Bu jarayon quyidagi vazifalarni ko'zda to'tadi:

- a) Nutqiy nafasni shakllantirishni;
- b) Modullashtirilgan ovoz qo'yish ustida ishlashni;

- c) Talaffuzga o'rgatishni;
- d) Labdan o'qishni;
- e) Lug'at ishini;
- f) Grammatik tizimni shakllantirishni.

Savol va topshiriqlar

1. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar nutqini shakllantirish muammolari qaysi olimlar tomonidan tadqiq etilgan?
2. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning og'zaki nutqi qanday ko'rinishga ega?

ESHITISHDA NUQSONI BO'LGAN O'QUVCHILARNING HISSIIY EMOTSIONAL IRODA SFERASINI TAVSIFI

Reja:

1. Shaxsning hissiy-irodaviy sohasi to'g'risida umumiy tushuncha.
2. Kar bolalarning emotsional doirasini rivojlanish bosqichlari.

Tayanch tushunchalar: hissiy-irodaviy sohasi, emotsional kechinma, emotsiya va tuyg'u

Kishi biror narsani idrok va tasavvur qilganda, eslab qolganida va esga tushirganida, fikr qilganida va gapirganida hamda harakat qilganida biror yoqimli (hush) yoki yoqimsiz (nohush) holatni kechiradi. Bu holat huzur qilish yoki ranjishdan, mazza qilish yoki qiynalishdan iborat bo'ladi. Bu kechinmalarda odamning o'z tevarak-atrofidagi narsalarga (hodisalarga), odamlarga va o'ziga nisbatan subyektiv munosabati ifodalanadi. Yoqimli yoki yoqimsiz kechinma hissiyotimizning elementidir.

"Emotsiya" so'zi lotin tilidagi "emotion" so'zidan olingan bo'lib, to'liqlanmoq degan ma'noni bildiradi. Voqelikning ayrim hodisalari kishini quvontiradi, ayrim hodisalar xafa qiladi; ba'zi hodisalarga kishi qoyil qoladi, ba'zi hodisalardan g'azablanadi, odam ba'zi hodisalarni ko'rib jahli chiqadi, ba'zilaridan esa qo'rqadi. Xursandlik, xafalik, qoyil qolish, g'azablanish, qahr, qo'rquv va shu kabilarning hammasi emotsional kechinmalarning xilma-xil turlari, odamning voqelikka bo'lgan turli subyektiv munosabatidir. Subyektiv kechinmalardan iborat bo'lgan emotsiyalar ijobiy va salbiy hissiyotlarga bo'linadi. Emotsional kechinmalar organizmdagi alohida fiziologik jarayonlar, o'zgarishlar bilan bogliq ekanligini bugungi kungi tajriba ko'rsatib turibdi. Masalan, emotsional kechinmalar chog'ida qon aylanishi o'zgaradi, yurak urishi tezlashadi yoki susayadi. Bir xil emotsional kechinmalar chog'ida odam qizaradi, boshqa bir xil emotsional kechinmalar chog'ida esa odam

oqaradi yoki bo'zaradi, terlab ketadi. Emotsional kechinmalar vaqtida nafas olish ham o'zgaradi, ayrim kechinmalar vaqtida nafas olish tezlashadi, ayrim kechinmalar vaqtida esa nafas olish susayadi. Shuningdek, ovqat hazm qilish jarayonlari va ichki sekretiya bezlarining faoliyati ham o'zgaradi. Emotsional jarayonlar butun organizmning faoliyatiga ta'sir qiladi. Odamdagi emotsiyalarning fiziologik asosi, avvalo, bosh miya po'stlog'ida sodir bo'ladigan jarayonlardir.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bola tarbiyalanayotgan ijtimoiy sharoit uning shaxs sifatlarini shakllanishda muhim ahamiyat kasb etadi. Kattalar va tengdoshlari bilan muloqotda, ijtimoiy tajriba jarayonida bola shaxsi rivojlanadi. Atrofdagi ijtimoiy muhit bola ijobiy munosabatlar tizimidagi o'rnini aniqlashga imkon beradi. Bu o'rinda eshitishda nuqsoni bo'lgan bolani o'z xolatiga, shaxsiga munosabati katta ahamiyat kasb etadi.

Kar bolalarning emotsional doirasini rivojlanishiga ma'lum noxush omillar salbiy ta'sir ko'rsatadi. So'zlashuv muloqotini buzilgani kar bolani atrofdagilardan uzoqlashtiradi, ijtimoiy tajribani egallashda qiyinchiliklarni tug'diradi. Nutqning rivojlanishida orqada qolish bolani o'zini, boshqalarni emotsional holatini tushunishga to'sqinlik qiladi, o'zaro munosabatlarni shakllanishini sekinlashtiradi.

Badiiy adabiyotlar bilan kech tanish kar bolaning emotsional dunyoqarashini chegaralaydi, badiiy asar qaxramonlar va o'zgalar ruhiy holatini tushunishga to'sqinlik qiladi.

Maxalliy va chet el olimlari tadqiqotlarida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar emotsional rivojlanishining o'ziga xos muammolari o'rganilgan. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar hayotining birinchi kunlaridanoq atrofdagilar bilan to'liqsiz emotsional va nutqiy muloqot mavjudligi sababi ularni jamiyatga moslashuvi, ijtimoiylashuvida qiyinchilik tug'diradi.

Xususan, V.Petshak kar bolani emotsional rivojlanish holatini tadqiq etgan. Unda quyidagi o'zaro bog'liq muammolar o'rganilgan: I muammo– ijtimoiy sharoit ota-onalar eshitish qobiliyatini saqlanish darajasiga ko'ra maktabgacha va

maktab yoshdagi kar bolalarni emotsional rivojlanish va munosabatlarni aniqlash. II muammo – kar o'quvchilarni boshqa odamni emotsional holatini tushunish. Boshqalar ruhiy holatini tushunish darajasi bolaning emotsional holatini belgilaydi. o'zgani emotsional holatini tushunish uning yuz mimikasi, ovoz reaksiyalar, nutqiy intonatsiyalar, imo-ishoralarni idrok etishga olib keladi. Kar bolada o'zga odamga simpotiyani rivojlantirish darajasiga ko'ra, emotsional holatini tushunishi malakasi yuzaga keladi. Simpotiya – yoqtirish, boshqa odamning emotsional holatini tushunish va uning hayotiy sharoitiga kirishda asosiy omildir. Nutqning rivojlanishni o'ziga xosligi ma'lum emotsional holatini ifodalovchi so'zlarni egallashga to'sqinlik qiladi. Yaqin qarindoshlari bilan emotsional-ijtimoiy muloqotda kar bolalarda muloqotga kirishuvchi odamlar imo-ishorasi, mimikasiga diqqat bilan qarash shakllanadi. Asta – sekin ular boshqa odamlar bilan mimik, imo-ishorali muloqotining tabiiy vositalarini egallaydilar. Bu atrofdagilar bilan so'zli muloqotni imo-ishoralar bilan to'ldiradi.

V.Petshak eksperimental psixologik tadqiqotlarda kar bolalarni kattalar bilan muloqoti xarakterini o'rganadi. Kar o'quvchilarni emotsional holatini kambag'alligi ularni kattalar bilan emotsional va nutqiy muloqoti xarakteriga bog'liq bo'ladi. Xususan, kar onalarning kar bolalarida turli tipdagi emotsional holatlar, intellektual emotsiyalari sog'lom bolalar darajasida bo'ladi. Sog'lom ota-onalarning kar bolalarda turli xayotiy sharoitlarda kam miqdordagi emotsiya kuzatilgan. Bu eshituvchi ota-onalarni kar farzandlarida emotsional muloqotni shakllantira olmagan bilan belgilandi. Eshituvchi onadan farqli kar ona o'z farzandi bilan emotsional muloqotni o'rnata oladi. Shu sababli kar ota-onalar uyida tarbiyalanuvchi bola internatda tarbiyalanuvchi bolaga nisbatan emotsiyalari, qis-tuyg'ulari sog'lom bolalar qis-tuyg'ulari teng keladi. Kar bolalarni emotsional rivojlanishida bolani yaqin qarindoshlari, ota-onasi bilan munosabatida ularni oiladan ajralganligi ham muhim omil sanaladi.

Maktabgacha davrda motivatsion ahamiyatga ega bo'lgan

emotsiya, xis-tuyg'u turi insonni atrofdagi predmet, xodisalarga munosabatidir. Xis-tuyg'uni shakllanishi murakkab va o'ziga xos yo'l sanaladi. Maktabgacha davrda xis-tuyg'ular syujetli-rolli o'yinlar faoliyatida shakllanadi. D.B.Elkon odamlar o'rtasidagi munosabatlarni shakllanishida syujetli-rolli o'yin rolini kattaligini alohida ta'kidlaydi. Inson munosabati asosini tashkil etuvchi normalar bolaning ma'naviy va ijtimoiy tuyg'ularini manbai sanaladi.

Emotsiya va tuyg'u bevosita o'yin cheklanishlariga buysunishda ishtirok etadi, bunda bola o'yin qoidalariga muvofiq o'z tuyg'ularini boshqarishga o'rganadilar. Bola o'z tuyg'ularini jilmayish, kulish, mimika, imo-ishora, intonatsiya, xarakatlar vositasida namoyon etishni o'rganadilar. Tuyg'ular tilini o'rganib, ular anglangan holda, o'z emotsiyalarini bayon qiladilar.

Kichik yoshdagi kar bolalarda o'yin va nutqiy faoliyatni chegaralanganligi sababi o'rtog'larini tushunmaydilar. Lekin o'zaro muxabbat, tushunish ko'tadilar, uydan ajralganlari uchun ulardan ximoya, qayg'urishni ko'tadilar. Bog'chaga kelgan kunlarida bolalar o'rtog'iga yordamga kelmaydilar, bir-biriga muxabbat, mehr bilan qaramaydilar. Yil boshida kichik guruhdagi bolalarda uyda tarbiyalanish asosida shakllangan egoistik yo'nalish kuzatiladi (Yangi yaxshi o'yinchoqni tortib olish, o'yinchoqini o'rtog'iga bermaslik). O'rta va yuqori guruhlarda o'rtog'lik va axloqiy tuyg'ularni rivojlanishida ijobiy ta'sirlar ko'rinadi. Syujetli-rolli o'yin, bayram, tug'ilgan kunlar o'tkazish ijobiy emotsional tuyg'uni shakllantirishga sabab bo'ladi. Bu o'rtog'ini qayg'urishlarini, tushunishi, uni emotsiyalari, qiyinchiliklari ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Maktabgacha yoshdagi eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarshaxslararo munosabatini shakllantirishda, emotsiya va tuyg'ular rivojlantirishda boshqa odamlarni emotsiyalarini tushunish muhim rol o'ynaydi. V.Petshak kar maktabgacha va maktab yoshdagi bolalarni boshqalar emotsiyasini tushunish xususiyatlarini o'rgangan. Tadqiqot jarayonida ma'lum emotsional xolatlarda, xursandchilik, g'am-andux,

qo'rquv, nafrat, befarqlik, xayrat emotsiyalari tasvirlangan edi. Tasvirlarning uch xil variantda tasniflash mumkin:

- Shartli-sxematik;
- Realistik;
- Hayotiy sharoit (syujetli rasm).

Tekshiriluvchining vazifasi yuz tuzilishiga ko'ra insonning emotsional holatini anglash va uni imo-ishora nutqi bilan bayon etishni ko'zda tutdi. Emotsional holatni tushunish kar va sog'lom bolalar uchun qiyinchilik tug'diradi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar o'rtasida faqat ba'zilar tasvirlash sxematik va hayotiy variantni to'g'ri angladilar. Rasm personajlarining imo-ishorasi holatini to'g'ri tushunganlar. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar emotsional holatga mimik va imo-ishorali tasnif berganlar. So'zli bayon ba'zan amalga oshirilgan.

Turlivariantdagi emotsiyalarni yaxshi anglamaganlar, lekin nafrat emotsiyasini Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar yaxshi tushundilar. Kar ota-onalarning farzandlari tashqi ko'rinishga ko'ra emotsiyalarini sog'lom ota-onalar farzandlariga nisbatan muvaffaqiyatli anglaganlar.

Shunday qilib, tashqi ko'rinishlar (mimika, imo-ishora) kar bolalarni emotsiyalarni tushunishda muhim ahamiyatga egadir. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni ruhiy rivojlanishda emotsional doirani rivojlanishi davom etadi. V.Petshak tadqiqotlari natijalariga ko'ra, IV sinf o'quvchilari xursandchilik, shodlik, ham, xayrat, qo'rquv, nafrat tuyg'ulari ifodalangan persanajlarni emotsional holatini qisman tushunganlar. Bu bilimlarni bolalar asta-sekin, o'rta va yuqori sinflardagi ta'lim davomida egallaydilar. Anologik bilimni eshituvchi bolalar kichik yosh davrida egallaydilar.

Emotsiyalarni kech anglash bir qator nohush oqibatlarga sabab bo'lishi mumkin. Xususan, adabiy qaxramonlarni, ularning faoliyatlari, qiliqlari, oqibat va sababini tushunish eshitishda nuqsoni bo'lgan bolani shaxs sifatlarini shakllanishi va ijtimoiy – emotsional sferasini tarkib topishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Kar bolalarning emotsional sohasi rivojlanishiga oid

yagona tadqiqot V.Petshak tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, insonning emotsional holatlarining kar bolalar tomonidan tushunilishiga baqishlangan. Kar va eshitadigan o'quvchilar bilan olib borilgan tadqiqot ko'rsatdiki, kar bolalarning insonning emotsional holatlari va ularning sabablarini tushunishida normal rivojlanayotgan bolalar uchun ham xos bo'lgan bog'liqliklar kuzatiladi. bolalar yaxshi tanish bo'lgan hayotiy vaziyatda tashqi aniq ifodalangan emotsional holatlarni osonroq ajratadi. Kar bolalar, eshitadiganlari kabi ko'proq umumiy, quvonch, jahl, qo'rquv va qayg'u oid emotsional holatlarni to'g'ri ajratadi. Intellectual va ijtimoiy-ma'naviy hissiyotlarni tanib olishda katta qiyinchiliklar yuzaga keladi. Emotsiya sabablari sifatida bolalar ko'proq tashqi aniq ifodalangan harakatlarni ajratib ko'rsatadi.

Shu bilan birga, 10-11 yoshli kar bolalar emotsional holatlarni tanish aniqligi, ularni lisoniy tavsiflash va u yoki bu emotsional holatlar sabablarini ochib berishda 7-8 yoshli eshitadigan bolalardan anchagina ortda qoladi. Bu holat bolalarda nutq va mantiqiy tafakkurning yetarlicha rivojlanmagani, shuningdek kichik sinflarda bolalarning atrofdagilarning va o'zining emotsional holatlarini ko'rish va tanib olishga, ularni nutqda xarakteristiklashga, ularni keltirib chiqaradigan sabablar va ular keltirib chiqaradigan oqibatlarni belgilashga o'rgatishga kam e'tibor haratilishi bilan belgilangan.

Asta-sekinlik bilan, ta'lim olgani sari 13-14 yoshlarga kelib, kar bolalarda emotsiya va xislarni, shuningdek ularni keltirib chiqargan sabablarni tanib olish malakasi takomillasha boradi. Kar o'spirinlar emotsional holatlar va ijtimoiy ma'naviy xislarga oid ko'plab tushunchalarni o'zlashtiradi. Qator hollarda ular emotsiya sababi sifatida bir insonning boshqa insonga nisbatan ichki munosabatini to'g'ri ko'rsatib berishi mumkin. Biroq ularda insonning emotsional holatlari bilan ularni keltirib chiqaradigan sabablar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni tushunishda qiyinchiliklar saqlanib qoladi.

Emotsiya va xislar haqida tushunchalarni shakllantirish bo'yicha tegishli ish olib borilsa 10-14 yoshli kar bolalar

maktabning o'rta sinflarida o'qish davrida emotsional holatlarni tanib olishda duch keladigan qiyinchiliklarning ko'pi yuzaga kelmasligi mumkin edi.

Savol va topshiriqlar

1. Shaxsning hissiy-irodaviy sohasi tushunchasini ta'riflang.
2. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar va sog'lom bolalarning emotsional doirasi rivojlanishida qanday o'ziga xos xususiyatlari mavjud?
3. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar emotsional doirasiga ta'sir etuvchi omillarni tavsiflang.

SURDOPSIXOLOGIYA VA SURDOPEDAGOGIKANING O'ZARO ALOQADORLIGI. SURDOPSIXOLOGIYA PSIXOLOGIYANING BOSHQA SOHALARI UCHUN AHAMIYATI

Reja:

1. Surdopsixologiya va surdopedagogikaning o'zaro aloqadorligi.
2. Surdopsixologiya psixologiyaning boshqa sohalari uchun ahamiyati.

Tayanch tushunchalar: *surdopsixologiya, surdopedagogika, fan, ta'lim-tarbiya, psixik rivojlanish*

Surdopsixologiya va surdopedagogika uzviy o'zaro aloqadorlikka ega. Surdopsixologiya eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning psixik rivojlanish qonuniyatlarini ochib beradi, qaysi bolalarda rivojlanishning qaysi bosqichida u yoki bu o'ziga xoslik aniqlanishini o'rganadi. Surdopsixologiya psixologik - pedagogik tadqiqotlar yordamida kar va zaif eshituvchi bolalarga kompensator rivojlanishni ta'minlash uchun ularni qaysi yo'l va vositalar bilan tarbiyalash va o'qitish kerakligini aniqlab beradi va ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirishga oid psixologik-pedagogik tavsiyalar beradi. Surdopedagogikaning vazifalari bu tavsiyalarni o'rganish va ularni amaliyotga yanada samarali tatbiq etish yo'llarini topishdan iborat. Shu bilan birga kar va zaif eshituvchi bolalarni o'qitish va tarbiyalash jarayoni ijodiy izlanishlar xarakteriga ega bo'lib, bu surdopedagogika fanida o'z aksini topadi. Fan, o'z navbatida, amaliyotni takomillashtirishning yangi usullarini izlaydi: eshitishida kamchiligi bo'lgan bolalarni o'qitish va tarbiyalashning yangicha nazariyalari ishlab chiqilmoqda, ular ta'lim va tarbiya amaliyotiga tatbiq qilinmoqda. Surdopsixologiyaning vazifalari esa o'qitish va tarbiyalashning yangicha sistemalaridan foydalanilganda bolalarning psixik rivojlanish xarakterini aniqlash, bu sistemalarni baholash, kerak bo'lsa, yangi sistemaning u yoki bu bo'g'inlarini korektsiyalash

usullarini izlashdan iborat.

Surdopsixologiya to'plagan kar va zaif eshituvchi bolalar psixik rivojlanishini o'rganish tajribasi psixologiyaning boshqa sohaları uchun kata ahamiyat kasb etadi. Eshitishida kamchiligi bo'lgan bolalarning psixik rivojlanishi eshitishning nutq shakllanishidagi va nutqning barcha bilish jarayonlari, ayniqsa og'zaki – mantiqiy (tushunchali) tafakkurning, shuningdek his-tuyg'ular, irodaviy harakatlar va shaxs qirralarining rivojlanishidagi roli naqadar katta ekanidan dalolat beradi. Eshitishida kamchiligi bo'lgan bolalarning psixik rivojlanish qonuniyatlarini o'rganish har qanday bolaning psixik faoliyati shakllanayotgan strukturasini yanada to'liqroq va aniqroq tushunish imkonini beradi.

Bundan tashqari, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar orasida boshqa birlamchi nuqsonlari bo'lganlari ham ko'plab uchraydi. O'rganilayotgan guruh bolalarining qariyb yarmi ikki yoki qo'shimcha nuqsonga ega bo'ladi. Shu sababli bolalarni asl psixologik tadqiq etishdan oldin quyidagi ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladigan batafsil anamnestik ma'lumotlarni to'plash lozim:

1. **Bola o'sayotgan oilaning tavsifi.** Oilaning tarkibi, farzandlar soni. Oilaning barcha a'zolarining yoshi, ma'lumoti, ish va mashg'ulot turi, ularning salomatligi (surunkali kasalliklarning mavjudligi), oilada yoki qarindoshlar orasida eshitishida nuqsoni borlar mavjudligi.

2. **Onaning homiladorligi haqida ma'lumotlar** (bu nechanchi homilasi va nechanchi bor farzand ko'rishi). Ona biror surunkali kasallik bilan og'riganmi, ularning homiladorlik davridagi ko'rinishi, davolanish turlari. Ona shu homiladorlik paytida qanday yuqumli kasalliklarga chalingan va aniq qaysi muddatlarda (ona homiladrligining dastlabki uchdan bir qismida kasalga chalinganligiga alohida e'tibor qaratiladi), bola bilan onaning qoni birikuvchanligi. Tug'ish haqida ma'lumotlar: qachon suv ketgan va ona bu vaqtda qaerda bo'lgan, tug'ish vaqtida stimulyatsiyadan foydalanilganmi va qanday (keserevo, qisqichlar, medikomentoz vositalar);

suv ketganidan keyin qancha muddatda bola dunyoga kelgan (gipoksiya bo'lganmi); tug'ilish vaqtida bola to'g'ri kelganmi; shu zohatiyoq yig'laganmi; chaqaloqning bo'yi va vazni; birinchi marta ovqatlanirishga qachon olib kelishgan; qanday tashxis bilan chiqarib yuborishgan.

3. **Bola tug'ilganidan psixologik tekshirish o'tkazilayotgan davrgacha boshidan kechirgan barcha kasalliklar haqida ma'lumot;** bolaning eshitishidagi nuqson haqida tashhis birinchi marta qachon qo'yilgan; uning birinchi audiogramma ko'rsatkichlari; eshitishning yanada pasayishi kuzatilganmi, qaysi holatda?

4. **Psixonevrolog, ona, tarbiyachi va pedagoglarning kuzatishlari bo'yicha bolaning psixofizik (ruhiy- jismoniy) rivojlanishi haqidagi ma'lumotlar.** Bola boshini qachon tuta boshlagan, qorniga ag'anay boshlagan, ko'tarila va o'tira boshlagan, emaklagan, qachon tura va yura boshlagan; qachon polda yura boshlagan; yurishni o'rganganida bolada qanday qiyinchiliklar kuzatilgan. Onasi yoki boshqa odam yaqinlashganidagi jonlanish kompleksi birinchi bor qachon kuzatilgan? Qachon gu-gulash boshlagan? Bola tovushlarga reaksiya qilmaganini yoki faqat juda baland tovushlarga reaksiya qilishini qachon payqashgan? Bolaga qaratilgan nutqqa adekvat reaksiya bo'lganmi? Kattalar nutqini tushunish hollari bo'lganmi va bu qanday sharoitlarda kechgan? Bolada barqaror ma'nolarga ega o'z so'zlari (yoki so'z iboralari), o'z imo-ishoralari qachon paydo bo'lgan? Bola atrofdagilar bilan muloqotda ulardan qanday foydalangan? Qachon bola o'ziga xizmat qila boshlagan – tuvakka borishni, yuvinish, ovqatlanish, kiyinishni boshlagan? Ilk bolaligida, keyinroq va hozirda sevimli mashg'ulotlari, o'yin va o'yinchoqlari qanday bo'lgan?

5. **Bolaning pediatri, psixonevrolog, otolaringolog (eshitishni subyektiv tekshirish emas, balki chaqirilgan potentsiallar metodikasi yordamida obyektiv tekshirish maqsadga muvofiq), oftalmolog (nafaqat ko'rish o'tkirligi, balki ko'z tubi holati, ko'rish maydonining, ko'z – harakat reflekslarining mavjudligi ta'kidlanadi) tomonidan so'nggi**

tibbiy ko'rik ma'lumotlari. Bolaning harakat sohasi, jumladan bolaning qaysi qo'li yetakchi ekani (o'naqay yo chapaqayligi) haqida ma'lumotlarni olish maqsadga muvofiq. Bunda shifokor kar yo zaif eshituvchi bola bilan muloqot qila olishi, bola u bergan topshiriqlarni tushunishiga erishishi juda muhim.

6. Bolaning umumiy ta'lim va tarbiyasi haqida ma'lumotlar (qaysi muddatlarda yasli, bolalar boqchasi, maktabga borgani, surdopedagoglar tomonidan ixtisoslashtirilgan ta'lim va tarbiya qachon, qay sharoitlarda boshlangani, bunday ta'lim va tarbiyaning umumiy natijalari).

Barcha ma'lumotlarni diqqat bilan o'rganib, surdopsixolog bolani eshitishi bo'yicha qaysi guruhga tayinlash, uning eshitishdagi nuqsonli tabiatini, barcha ma'lumotldaryig'indisiga ko'ra sub'ektning faqat eshitishida yoki yana qaysidir boshqa a'zo va sistemalarida buzilishlar bor ekanini aniqlaydi. Bola hayotining ijtimoiy-pedagogik sharoitlariga ko'ra bolaning tegishli pedagogik yordam olgan - olmaganligi (bolada ijtimoiy-pedagogik qarovsizlik mavjudligini) aniqlaydi.

Psixologik tadqiqot boshlanishidan oldin barcha dastlabki ma'lumotlar va tekshirish natijalariga asoslanib, bu kar yoki zaif eshituvchi bolaning ko'rish, harakat sohasida nuqsonlari, ruhiy rivojlanishida birlamchi kechikish yoki aqli zaiflik bor-yo'qligi haqidagi savolga javob berish uchun sinaluvchilarning qar biri bilan uning ko'rish va harakat imkoniyatlari, uning ko'rgazmali fikrlash va nutqi rivojlanganlik darajasini aniqlash maqsadida dastlabki psixologik shaxsiy eksperiment o'tkazish maqsadga muvofiq.

Har qanday psixologik tekshirish o'tkazganda eshitishning buzilganlik darajasi, boshqa birlamchi buzilishlar mavjud yo yo'qligi, bolaning yoshi kabi ahamiyatli belgilarni ajratish muhim sanaladi. Deylik, tekshirish uchun qo'shimcha birlamchi buzilishlari bo'lmagan kar bolalar guruhi tanlanadi va maktabgacha katta yoshdagi (5-7 yosh) bolalarning qandaydir ruhiy funksiyasi rivojlanganlik darajasini o'rganish ko'zda tutiladi. Bu holda ikkita kichik guruh tuzish samarali bo'ladi: birinchi guruh - o'rtacha 5 yoshu olti oylik (5 yoshdan

6 yoshgacha) bolalar; ikkinchisi - o'rtacha 6 yoshu olti oylik (6 yoshdan 7 yoshgacha) bolalar guruhi. Bunda qar bir guruhda kamida 12 (iloji bo'lsa 20 tagacha) bola bo'lishi maqsadga muvofiq. Ikkala kichik guruh natijalarini qiyoslaganda, tekshirilayotgan funksiyada 2 yilda sodir bo'lgan va maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kuzatiladigan o'zgarishlarni, bundan tashqari, shu davrda bu funktsiya rivojlanishidagi individual xususiyatlarni aniqlash mumkin bo'ladi.

Tekshirishni tashkil qilishning bir varianti - o'zining ma'lum dasturi asosida ishlaydigan ma'lum bir maxsus muassasadan bolalarni tanlash, ikkinchi varianti-turli muassasalardan bolalarni tanlab olish, bunda sinaluvchilarning yosh jihatdan analogik guruhlarini tashkil qilish va turli muassasalarda tarbiyalangan sinaluvchilar natijalarini qiyoslash kerak bo'ladi. Bolalar uyda tarbiya olgan bo'lsa, ularning natijalarini ham alohida olish, u yoki bu maxsus bolalar muassasasida tarbiya olgan bolalarniki bilan qiyoslash kerak bo'ladi. Boshqacha aytganda, bola yoki bolalar guruhi qaysi dastur asosida tarbiya olayotganini ham hisobga olish kerak bo'ladi. Bu maktab yoshidagi bolalarga ham taalluqlidir.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning ruhiy rivojlanishini o'rganishda bolalar va pedagogik psixologiya metodlaridan ham foydalaniladi. Biroq ulardan foydalanish ma'lum o'ziga xosliklarga ega. Kuzatish, faoliyat ma'sullarini o'rganish yo bo'lajak sinaluvchilar bo'lgan bolalar bilan dastlabki tanishuvda qo'llanadi, yo goh qayd qiluvchi, goh o'rgatuvchi xarakterdagi eksperiment tarkibiga alohida qism bo'lib kirishi mumkin. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning ruhiy rivojlanishini o'rganishda asosan eksperimentning quyidagi to'rt turidan foydalaniladi:

Birinchisi - ma'lum dastur asosida qat'iy qurilgan eksperiment har bir bola bilan individual tartibda o'tkaziladi. Eksperiment qayd qiluvchi bo'lishi mumkin. Biroq kar va zaif eshituvchi bolalarni ko'p yillik o'rganishlar shuni ko'rsatadiki, eksperimentni topshiriqlarni bajarishda sinaluvchiga yordamning avvaldan rejalashtirilgan, doimo bir xil tashkil

qilinadigan turlarini kiritish bilan tashkil qilish samaraliroq bo'ladi.

Sinaluvchi bilan olib boriladigan qisqacha o'rgatish u topshiriqni bajarishda yoki masalani echishda qanday qiyinchiliklarga duch kelayotganini tushunish, bu bilan sinaluvchida shakllangan u yoki bu malaka, ko'nikma strukturasiga chuqurroq kirib borish imkonini beradi. Bu eksperimentning **ikkinchi turi**.

Uchinchi tur eksperimentsinaluvchilarda qandaydir ruhiy harakatlarni, masalan analiz, sintez, qiyoslash, abstraksiyalash (mavhumlashtirish) va umumlashtirish kabi fikrlash amallarini bajarish ko'nikmalarini uzoq muddat, bosqichma-bosqich shakllantirishga qaratiladi. Bunday eksperiment qat'iy oldindan rejalashtirilgan, har xil kunlari o'tkaziladigan turli mashg'ulotlarni o'z ichiga oladi. U ikki variantda bo'lishi mumkin. Birinchi variant – eksperiment sinaluvchi bilan yakka tartibda (alohida) o'tkaziladi. eksperimentning ikkinchi variantida tajribada taxminan teng imkoniyatlarga vama'lum masalada taxminan bir xil ma'lumotga ega bo'lgan, bu birinchi yoki ikkinchi tur eksperiment strukturasiga bo'yicha o'tkaziladigan dastlabki tekshirishda aniqlanadi, bir necha sinaluvchi qatnashadi. Bunday eksperimentlarning natijalari, birinchidan, bolalarda ma'lum ruhiy jarayonlar shakllanish qonuniyatlari haqida fikr yuritish, ikkinchidan, surdopedagoglar uchun ishni tashkil qilish, uning mazmuni, ko'rgazmalilikdan foydalanish, bolalarda ma'lum ruhiy jarayonlar rivojlanishiga erishish imkonini beradigan metod va usullar bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish mumkin.

Eksperimentning to'rtinchi, psixologik-pedagogik turi odatiy mashg'ulot (yasli-bog'chada) yoki dars shaklida (maktabda) tarbiyachi, o'qituvchi yoki pedagog tomonidan qat'iy belgilangan sistema bo'yicha o'tkaziladi, unda mashg'ulotlarning butun mazmuni, bolalarning kattalar bilan va o'zaro muloqot shakli, foydalaniladigan ko'rgazmalilik va qo'shimcha tushuntirish, aniqlashtirish turlari iker-chikirigacha o'ylab qo'yiladi. Bu eksperimentchi tomonidan nuqta o'ylangan

va shu sinf yoki guruh bolalari bilan doimiy shug'ullanib kelgan katta yoshli kishi bilan ishlab chiqilgan bitta mashg'ulot yoki turkum mashg'ulotlar bo'lishi mumkin. Shuningdek har bir mashg'ulotni yanada to'liq qayd qilish usullari ham o'ylanadi va amalga oshiriladi. Eksperimental mashg'ulotlarning bu kabi turkumi bolalarning u yoki bu malaka va qobiliyatlarida ma'lum darajada orqada qolish, yo o'ziga xoslikni aniqlagan va ularni kompensator shakllantirish imkoniyatlarini belgilab bergan tadqiqot o'tkazilganidan keyingi bosqichda o'tkaziladi. Bu kabi tadqiqotlarga kar o'quvchilarda sabab – oqibatli fikrlash malakalarini rivojlantirish usullarini ishlab chiqish (T.A.Grigoreva) va kar o'quvchilarning nutqini o'zakdosh so'zlar bilan boyitish borasida rivojlantirish (T.F.Marchuk) misol bo'ladi. Keltirilgan tugallovchi to'rtinchi tur eksperimentlar mualliflarga ta'lim jarayoniga tatbiq qilinadigan mashg'ulotlar sistemasini ishlab chiqish imkonini beradi.

Kar va zaif eshitadigan bolalar bilan eksperimentda ta'minlash qiyinroq bo'lgan juda muhim shartlardan biri – bola unga taklif etilgan topshiriqni to'g'ri tushunishiga, ya'ni eksperiment sharoitida undan nima talab qilinganini tushunishiga erishishdir. Buning uchun strukturasiga ko'ra asosiy topshiriq bilan bir xil, lekin osonroq bo'lgan kirish topshiriqdan ratsional foydalanish kerak. Bunda eksperimentchi tushuntirishlar berib, bola uchun tushunarli og'zaki nutqdan (ba'zan daktillash yoki tablichkalarga oldindan yozilgan so'z va sodda gaplarni o'qish bilan, bola o'qiydi), shuningdek ko'rsatish va chizgi beradigan imo-ishoralardan foydalanib, sinaluvchining kirish topshiriqni albatta bajarishini ta'minlashi kerak. Bu yetarli bo'lmasa, eksperimentchi avvaldan o'ylangan va har bir sinaluvchi uchun bir xil bo'lgan bosqichli yordam ko'rsatiladi. Ba'zan kirish topshiriqni sinaluvchi eksperimentchi bilan birga bajaradi. Bu holda ikkinchi kirish topshirig'i beriladi va uni mustaqil bajarish taklif qilinadi.

Har bir eksperimentda tadqiqot natijalarini miqdor va sifat jihatidan baholash oldindan o'ylab qo'yiladi. Eksperiment tugallangach, natijalarni qayta ishlash xarakterida zarur

aniqlashtirishlar qilinadi. Kichik saylanmalar uchun statistik qayta ishlash metoddlari qo'llanadi, yosh guruhlar bo'yicha miqdor natijalar, shuningdek eshitadigan va eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning natijalari qiyoslanadi. U yoki bu ruhiy jarayonning rivojlanganlik darajalari korrelyatsion taqlil qilinadi. Natijalarni miqdor va sifat jihatidan baholash asosida u yoki bu ruhiy jarayonning darajasi, to'liqligi yoki rivojlanishidagi o'ziga xosliklar haqida xulosa qilinadi va bu jarayonni ta'lim va tarbiya sharoitida takomillashtirishga oid tavsiyalar ishlanadi.

Yuqoridagilar bilan birga anketa (so'rov) metodining turlicha variantlaridan foydalaniladi. Qator hollarda bu metod qo'shimcha sanaladi. Masalan, farzandlari sinaluvchi rolini bajarayotgan bolalarning ota-onalariga uy sharoiti, oila a'zolarining munosabatlari, ularning uyda va tashqarida odatiy mashg'ulotlarini aniqlashga oid anketa savollari beriladi. Anketa metodidan bolalar, o'spirinlar va kattalarning shaxsi xususiyatlarini va shaxsiy o'zaro munosabatlarini o'rganish uchun keng foydalaniladi. Katta bo'lgan kar va zaif eshituvchilarning shaxsiy pozitsiyalarini o'rganish uchun anketa metodidan foydalanamiz. Ularning olgan ma'lumoti, ish turi – ixtisoslik bo'yichami – yoki yo'qmi, ishidan qoniqishi yoki unga munosabati salbiymi yoki ijobiyligi, oilasi tarkibi va oilaning ichki o'zaro munosabatlari, do'stlari va yordamchilari borligi, ular bilan o'zaro munosabatlari qandayligi, ta'limni davom ettirish istagi boryo'qligi, qiziqish va moyilliklari va sh. k o'rganiladi).

Eshitish analizatorlarining buzilishi oqibatida eshitish qobiliyatining pasayib ketishi, karlik, qulog'ida og'irlik, eshitish agnoziyasi kabi nuqsonlar paydo qiladi. Yosh bolalarda eshitishning pasayishi ko'pincha eshitish asablarining shikastlanish bilan bog'liq bo'ladi. Masalan: maktab yoshidagi bolalarning 70 % ida uchraydigan karlik meningit kasalligi bilan oqriganda paydo bo'ladi. Oliy eshitish a'zolarining anomal rivojlanishi, turli shikastlar ham karlikka sabab bo'ladi. Karlik turlari har xil prinsiplarda qarab toifalanadi. Masalan: karlik qachon paydo bo'lganligiga qarab ham ajratiladi. Homiladorlik

davridayoq eshitish a'zolarining rivojlanmay qolishi yoki shikastlaganligi, tug'ilgandan keyin o'sa boshlashi har xil sabablarga ko'ra eshitmay qolishi va hokazolar. Ko'p xollarda bolalarning yosh davrida pereferik retseptorlarning (eshitish asablari, ovoz qabul qiluvchi markazlarning shikastlanishi natijasida karlik paydo bo'ladi. Albatta kar bolalarda sog'lom bolalarga xos bo'lgan barcha xususiyatlar mavjud. Ammo kar bolalarda nutqning yo'qligi ular psixologiyasi atrof-muhitga moslanish jarayonida alohida xususiyatga ega bo'ladi. Bu xususiyati shundan iboratki, kar bolalardagi fikrlash qobiliyati ko'rish, sezish, hid bilish kabi analizatorlar asosida rivojlanadi, ya'ni ularning fikrlashi aniq obrazli bo'ladi. Albatta bu holat analizatorlik belgisi emas. Bunday bolalar maxsus boqchalar yoki maktablarda tarbiya olsalar, hayotiy zarur so'zlarni aytishga o'rgana oladilar va absrakt fikrlash qobiliyatini shakllantiradilar. Bolalardagi bunday nuqsonlarni qanchalik ertaroq aniqlansa, ularning so'z boyligi shunchalik ortadi va muloqot qila olishiga imkon yaratiladi. Og'zaki nutqqa ertaroq o'rgatilgan kar bolalar – muntazam shug'ullana borib, suhbatdoshining gaplarini uning lab qimirlashiga qarab ham anglab oladigan bo'ladilar. Bunday samaraga albatta malakali pedagoglar yordamida erishiladi. Ammo hanuzgacha etarli darajada mukammal bo'lgan metodik qo'llanmalarining yo'qligi, maxsus boqcha va maktablarning yetarli emasligi, qolaversa, malakali pedagog-tarbiyachilarning kamligi bois, kar bolalarning ko'pchiligi og'zaki nutqni egallay olmayapti va atrofdagilar bilan muloqotda bo'layapti. Shuni ham eslatib o'tishimiz kerakki, ba'zi bir mualliflar (Tartman, Myuller, Kusmaul kabilar) kar bolalarni chala, aqli zaif, ko'p hollarda tajang va kasalmand bo'ladi deb yozganlar. Bunday fikrlarga 18-asrdayoq A. Rodisov qarshi chiqib, karlar psixikasining o'ziga xos xususiyatlarini tariflagan. Karlar harakatidagi tajanglik, ba'zi hollardagi qo'pollik yoki jazava avvalo ular hayotida odamlar bilan normal muloqotda bo'laolmasliklaridan kelib chiqadigan noqulayliklar. Ishsizlik, qashshoqlik kabi hukm surgan illatlar – eski davrlarga xos bo'lgan ko'rinishlardir. Keyingi davrdagi tadqiqotlar esa kar insonlarning ham yaxshi

xislatlar egasi ekanligini tasdiqlaydi. Ularda ham mehnatga sa'zovorlik, hamdo'stlik, halollik, adolatlilik, ya'ni barcha sog'lom odamlarga xos bo'lgan xislatlar yetarlicha ekanligi ayonlashadi. Shu sababli ishlab chiqarish korxonalarida va turli xil kasblarda kar odamlar samarali mehnat qilmoqdalar. Ularning hayotga tez moslanib ketishida malakali pedagoglar – tarbiyachilarning roli muhimdir.

Savol va topshiriqlar

1. Surdopsixologiya va surdopedagogikaning o'zaro aloqadorligi haqida ma'lumot ayting.
2. Surdopsixologiya psixologiyaning boshqa sohalari uchun ahamiyati qanday?

KAR BOLALARNING OG'ZAKI NUTQIGA PSIXOLOGIK TAVSIF

Reja:

1. Kar bolalarda nutq shakllanishining psixologik xususiyatlari.
2. Nutqning fiziologik mexanizmlari va ulardagi buzilishlar.
3. Zaif eshituvchi va kar bolalar og'zaki nutqidagi tafovutlar.

Tayanch tushunchalar: kar bolalarning nutqi, tilning umumiy funktsiyalari, nutqiy rivojlanish xususiyatlari

Yetti yoshga, ya'ni maktabga kelib, kar bolalar tarbiya va ta'limning maqbul sharoitlarida nutqni shunchalik egallaydiki, o'z fikr va istaklarini sodda yoyiq (bosh bo'laklardan tashqari aniqlovchi, to'ldiruvchi va hol qatnashgan) gaplardan foydalanib, ifodalay oladi. Masalan, suratlarni tavsiflaganda, bolalar tasvirga muvofiq tarzda to'g'ri gapiradi: «Bola o'rindiqa o'tiribdi va kitob o'qiyapti», «qizcha non va pishloq bilan choy ichyapti, qizcha stulda o'tiribdi» «qizcha koptok o'ynayapti, koptok turli rangda - qizil, sariq va yashil».

Maktabga kelish davriga bolalar yaqin atrofidagi predmetlar, tanish harakatlar tasvirini, predmetlarning ayrim belgilari, vaqt va makon munosabatlarini nutqda faol qo'llay oladi; nutqda xatti-harakatlarning ayrim sabablarini to'g'ri ifodalaydi. Biroq ularning nutqida tilning grammatik qurilishida xatolar (moslashuv va boshqaruv, fe'l zamonlarini noto'g'ri qo'llash va sh.k.) ko'p bo'ladi. Ko'p hollarda so'z ma'nosini noto'g'ri toraytirish, yo aksincha kengaytirish kuzatiladi. Yetti yoshli kar bolalarning ko'pchiligida nutqning umumiy rivojlanganligi (ta'limning zamonaviy metodlaridan foydalanilganda) eshitadigan tengdoshlari nutqidan (lug'at boyligi, grammatik qurilishni egallaganlik, fraza va boshqa murakkab bog'lanishli jumlar qurishda) ancha orqada qoladi.

Maktab ta'limi davomida ham og'zaki ham yozma nutqning jiddiy rivojlanishi: lug'atning boyishi, grammatik konstruktsiyalar, jumla ifodalash shakl va usullari murakkablashuvi kuzatiladi. Biroq so'z- mantiqiy umumlashtirish, nisbiy, ko'chma va mavqum ma'noli so'zlar, mantiqiy aloqa va bog'liqliklarning turli ko'rinishlarini ifoda etadigan grammatik konstruktsiyalar bilan bog'liq qiyinchiliklar saqlanib qoladi. Bu qiyinchiliklar tushunchali fikrlashdagi ikkilamya etarlicha rivojlanmaganlik va maktab ta'limida uni shakllantirishga yetarlicha e'tibor berilmagani bilan bog'liq. Kar bolalarda faol, tashabbuskor nutq, normal eshitadigan bolalardagi bilan solishtirganda, rivojlanishda orqada qoladi. Karlarning mustaqil nutqi ularning reproduktiv yoki kattalarning bevosita yordami bilan amalga oshirilgan nutqidan mazmunan qashshoqroq, ifoda usullariga ko'ra soddaroq bo'ladi.

Maktab yoshi davomida kar bolalarning nutqi va bilish faoliyati rivojlangan isari ularning lisoniy xotirasini takomillashishi tadqiqotlarda o'z tasdiqini topgan. Biroq yosh kattalashishi bilan reproduktiv qayta yaratish operativ, saylanma, ma'lum vazifani hal qilish uchun zarur qayta yaratishga ko'ra nisbatan ko'proq yaxshilanadi (operativ (tezkor) termini bu ma'noda birinchi bo'lib I.M.Solovev tomonidan kiritilgan). Xatto katta maktab yoshida ham kar bolalar avval o'zlashtirilgan bilimlarni ulardan qandaydir o'quv yoki amaliy vazifani hal qilish vositasi sifatida foydalanish maqsadida qayta yaratishga ko'pincha qiynaladi (I.M.Solovev, J.I.Shif, T.V.Rozanova).

Kar bolalarda nutq shakllanishining psixologik xususiyatlari

Tilning umumiy funksiyalari va tarkibiy qismlarida buzilishlar

Kar bolalarda nutqni shakllantirish masalalari I.M.Solovev, F.F.Rau, J.I.Shif, S.A.Zikov, T.V.Rozanova, N.G.Morozova, R.M.Boskis va boshqalarning ishlarida anchagina to'liq va har tomonlama yoritilgan. Keyinchalik shu tadqiqotlarga tayanamiz vash u ishlarning ayrim materiallaridan foydalanamiz.

Kar bolalar nutqiy rivojlanish xususiyatlari va o'ziga xosliklarini to'g'ri tushunish uchun normal rivojlanayotgan bolalarning rivojlanishi va ularda nutq shakllanishining ayrim umumiy psixologik qonuniyatlarini bilish kerak. Nutq buzilganida uni shakllantirish bo'yicha pedagogik jarayonni to'g'ri yo'lga qo'yish uchun shuningdek tilning shakllanish va rivojlanish tarixiy qonuniyatlari, uning funksiyalari, tarkibiy qismlarini bilish talab etiladi. Tilning rivojlanishi va nutqning shakllanishiga qisqacha to'xtalamiz.

Til - kishilar orasida muloqot vositasi. Nutq - muloqot vaziyatining o'zi. Normal, to'la qonli va sog'lom nutq inson va jamiyat hayotida muhim ahamiyatga ega. Til tufayli odamlar o'tmish ajdodlar tajribasini avlodlarga yetkaza oladi. Til xalqning hayot tarixini aks ettiradi, K.D.Ushinskiy aytganidek, butun xalq, uning butun vatan jonlanadi. Til insonlarga birgalikda ishlab chiqarish faoliyatini, fikr almashuvni yo'lga qo'yishda, o'zaro tushunishga erishishda yordamlashadi.

Til va nutq atrof olamni bilishning qudratli quroli sanaladi. So'z tufayli inson mavhumlashtirish, umumlashtirish imkoniga ega bo'ldi. U atrof olamdagi bevosita kuzatish, sezish, idrok etish mumkin bo'lmagan xossalarni ham bila oladi.

Normal rivojlanayotgan bolaning aqliy rivojlanishi nutqqa tayanadi. Kichkina bola nutqni egallar ekan, nutqiy muloqot jarayonida uni o'rab turgan predmetlar xossalari haqida ko'p narsani bilib oladi. U doim tarofdagilariga savol beradi, ularga javob olib, kattalarning tajribasini o'zlashtiradi. Nutq va tafakkur rivojlanishining bu jarayoni ikki - uch yoshdan keyingi davrda ayniqsa jadal kechadi.

Nutq tafakkur bilan uzviy bog'liq. Bu aloqadorlik avvalo til tafakkur quroli ekanida namoyon bo'ladi. Fikrlarimiz til bazasida yuzaga keladi va shakllanadi, til qobiqisiz mavhum fikrning bo'lishi mumkin emas. Fikrlar faqat til bazasida yuzaga keladi, deyilsa, kar-soqovlarda til yo'qligini e'tiborga olinsa, demak ularda fikrlar ham yuzaga kelmasligi kerakday tuyuladi. Biroq ular ham jamiyatimizning aqlli, fikrlay oladigan, to'la qonli a'zolaridir. dastlab ularning fikrlashi bazasi til emas,

balki saqlanib qolgan sezgi a'zolari: ko'rish, qid bilish, taktil-vibratsiya sezgisi tufayli yuzaga keladigan konkret ko'rgazmali obrazlar bo'ladi. shu sababli nutqqa ega bo'lmagan karlarning fikrlashi obrazlilik, ko'rgazmalilik, konkretlik bilan ajralib turadi. Biroq, albatta, nutqiy fikrlash mukammalroq sanaladi, chunki u cheksiz mavhumlashtirish, abstraktsiyalash imkonini beradi. O'qitish jarayonida tilni o'zlashtirgani sari karlarning fikrlashi qayta quriladi va nutqiy asosda kecha boshlaydi.

Tilning muhim tarkibiy qismlari lug'at boyligi va grammatik qurilishi sanaladi. Lug'at boyligini tilning «qurilish materiali» deb ham atashadi. Tilning lug'at tarkibi qanchalik boy bo'lsa, til shuncha boy bo'ladi. Biroq u o'z-o'zicha tilni tashkil etmaydi, balki tilimizga qat'iy va anglashilgan xarakter baxsh etadigan grammatika ixtiyoriga kelib tushganidagina real kuchga aylanadi.

Tilning juda muhim elementi – uning tovush qobig'i (qatlami), fonetik tarkibi. Tilning tovush qobig'i uning go'yo «moddiy qobiqidir». Aynan jarangi tufayli tilimiz boshqalarga etib boradi, ularning mulkiga aylana oladi. Fikrlarimizni faqat tovush yoki grafik qobiqqa o'rab ifodalashimiz mumkin. So'zning tovush tarkibi uning ma'nosi bilan qech qanday aloqaga ega emas. Bu tasodifan yuzaga kelgan va tarixan mustahkamlangan shartli tovush kompleksi. Keyingi avlodlar bu kompleksga o'z ixtiyoriga ko'ra o'zgartirishlar kirita olmaydi, yo'qsa so'z o'zining signal funksiyasini, dastlabki ma'nosini yo'qotadi. To'g'ri, tovushga taqlid nazariyasi tarafdorlari so'zning tovush tarkibi va uning ma'nosi o'rtasidagi qandaydir aloqani ko'rishga urinishgan. Misol tariqasida ular, go'yo o'zi ifodalagan hodisani fonetik jihatdan eslatib yuboradigan «kakku», «qamish», «shitirlash» va sh.k. so'zlarni keltirishadi. Biroq har bir tilda ham bunday so'zlar ko'p emas. So'zlarning aksariyat ko'pchiligi tovush tarkibiga ko'ra o'zi ifodalagan predmet bilan qech bir umumiylikka ega emas. So'zning tovush tarkibi qat'iy, tarixiy yuzaga kelgan qayd etilganlik ekaninig tasdiqi dastlabki ma'nosi o'zgarib, tovush tarkibi saqlanib qolgan so'zlar ham sanaladi. «Siyoc» so'zi dastlab harakat predmetini bildirgan.

Endilikda faqat siyoc (qora) emas balki havo rang, yashil, qizil xatto sariq siyoc bilan yozmoqdamiz, so'zning tovush tarkibi esa avvalgidek qolgan.

Har bir so'zda, yuqorida ta'kidlanganidek, umumlashtirish elementi mavjud. Aynan shu muloqot va bilish imkoniyatlarini kengaytiradi. So'zning juda muhim, biroq ko'p ham sezilmaydigan, go'yo yashirin elementi uning emotsional bo'yog'i (ottenkasi) sanaladi. Kundalik odatiy hayotda unga alohida e'tibor berilmaydi. Biroq nutqqa talablar ortgan, so'z fikr qirralarini ifodalashda alohida rol o'ynaganda, masalan yozuvchilar ijodida, ayniqsa badiiy nutqda bu element anchagina jiddiy ahamiyat kasb etadi.

Defektologlar tilning asosiy funktsiyalari kabi uning tarkibiy qismlari buzilishlariga ham (masalan, dislaliya, dizartriyaning oqir ko'rinishlarida, alaliya, afaziya va sh.k. da) duch keladi.

Agar kishi so'zda ko'plab so'zlarni buzib, almashtirib, o'tkazib yuborsa, uning nutqini tushunish atrofdagilar uchun qiyin bo'ladi. Bosh miya qobiqi nutq zonalari jarohatlanganda aktiv yoki passiv nutq buzilishi mumkin. Bunday odam yo o'zi gapira olmaydi, yo unga qaratilgan nutqni tushunmaydi, demak, tilning muloqot vositasi sifatidagi ijtimoiy vazifasi buziladi. Nutq tafakkur bilan uzviy bog'liqligi sababli bu uning shakllanishiga ham ta'sirini o'tkazadi. Nutqida qo'pol buzilishlar bo'lgan bolalar, odatda, rivojlanishda tengdoshlaridan orqada qoladi.

Shuningdek tilning turli tarkibiy qismlari buzilishlari ham uchraydi. Bu buzilishlar darajasi turlicha bo'lishi mumkin. Dislaliyaning yengil shaklida faqat bir necha tovush talaffuzi buziladi, biroq so'z tushunarli bo'lib, o'zining signal vazifasini saqlab qolishi mumkin. Dislaliyaning og'ir ko'rinishlarida so'z tarkibi shu qadar buziladiki, so'z atrofdagilar uchun mutlaqo tushunarsiz bo'lib, o'zining signal vazifasini yo'qotadi. Tilning lug'at tarkibi buzilishlari ham turli darajada bo'lishi mumkin. Ulardan eng og'iri umuman lug'atni mustaqil egallay olmaslik (masalan, mutlaqo kar bolalarda) sanaladi. Boshqa hollarda bu lug'atning qashshoqligi va cheklanganligi, so'zlarning o'z

ma'nolariga noadekvat qo'llanishida ifodalanishi mumkin. Bu kabi nuqsonlar ham eshitishida kamchiligi bo'lgan ham nutqida kamchiligi bo'lgan bolalarda uchraydi.

Og'zaki nutqdagi buzilishlar negizida yozma nutq va uning grammatik qurilishida buzilishlar yuzaga keladi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda bu turlicha disgrafiya va agrammatizmlar ko'rinishadi bo'lishi mumkin.

Nutqning fiziologik mexanizmlari va ulardagi buzilishlar

Inson atrof olamni nafaqat uning bevosita birinchi tartibli signallari – sezgi, idrok orqali, balki bilvosita – so'z, nutq orqali ham bilishi mumkin. I.P. Pavlov so'zning inson uchun birinchi tartibli signal kabi ekani, faqat bu signal umumiyroq, keng qamrovliroq ekanini aytadi. So'z insonni yuksaltirdi, bilish imkoniyatlarini kengaytirdi. Ikkinchi signal sistemasi faqat insonga xos. U insonda o'ziga xos fiziologik mexanizmlar – nutq a'zolari mavjudligi tufayli shakllanadi. Hayvonlarni gapirishga o'rgatishga urinishlar hech bir natija bermagan. Ayrim hayvonlar chiqaradigan taqlidiy tovushlar faqat shartli refleks xolos. Ular hech bir ma'noga ega emas. Faqat inson ularga qandaydir ma'no yuklay oladi.

Ikkinchi signal sistemasining fiziologik mexanizmlarini shartli ravishda ikkita: periferik va markaziy qismga bo'lish mumkin. Birinchisiga avvalo nutq apparatining periferik qismini: ovoz apparati, nafas apparat iva artikulyatsiya (talaffuzda til va lablar ko'proq faol sanaladi; og'iz bo'shligi va burun bo'shlig'i ovozimizga o'ziga xos individual rezonlovchi ottenka buradi) apparatini kiritamiz.

Nutqiy mexanizmlarning markaziy qismi bosh miya qobig'ida joylashgan. Nutq uchun miya chap yarim sharining peshona va chakka qismlari ayniqsa muhim sanaladi. Miya funksiyalarini lokalizatsiyalash an'anaviy nazariyasi ancha vaqtgacha amal qildi. Bu nazariyaga ko'ra, bosh miya qobiqini qat'iy belgilangan, cheklangan uchastkalarga bo'linardi, ular «markazlar» deb atalib, har biri faqat bitta funksiyani boshqaradi deb hisoblanardi. Nutqiy funksiyani ham qat'iy lokallashtirishga urinishlar bo'lgan. Shunday, faol nutq faqat

bosh miya qobig'i peshona qimlarida joylashgan Broka markazi tomonidan passiv nutq esa qobiqning chakka qismida joylashgan Vernike boshqariladi, deb hisoblashardi.

I.Pavlov funktsiyalarni lokalizatsiyalash an'anaviy nazariyasini tanqid qilib, miya qobig'i yagona butunlik ekanini va uni qat'iy belgilangan yopiq markazlarga sxematik bo'lish mumkin emasligini ko'rsatdi. Har qanday funktsiya umuman qobiq tomonidan boshqariladi va regulatsiyalanadi. Biroq I.P.Pavlov qobiqning hamma uchastkalari ham u yoki bu funktsiyani boshqarish uchun bir xil ahamiyatga ega emasligini inkor etmagan. Ayniqsa, nutq kabi murakkab psixik funktsiyani lokallashtirib bo'lmaydi. Klinik kuzatishlar ko'rsatdiki, nutqiy buzilishlar nafaqat chap yarim sharining nutqiy zonalar bevosita zararlanishi, balki o'ng yarim shar zararlanganda ham kelib chiqishi mumkin. Demak, nutqni boshqarishga nafaqat chap, balki o'ng yarim shar ham aloqador. Biroq uzoq tarixiy rivojlanish jarayonida qobiqning ayrim anatomik-fiziologik qismlari ma'lum funktsiyalarni nazorat va boshqarishga «ixtisoslashganini» inkor qilib bo'lmaydi. Shunday, bosh miya chap yarim shari nutq uchun o'ngiga qaraganda ko'proq ahamiyatga ega. Chap yarim sharda esa, nutqning harakat funktsiyalarini boshqaradigan peshona qismlari va nutqning tushunilishini boshqaradigan chakka qismlari muhim sanaladi. Bu zonalarining zararlanishi nutqiy buzilishlarning tobora og'ir shakllariga olib keladi.

Ikkinchi signal sistemasi birinchisining bazasida shakllanadi va rivojlanadi. Nutqning shakllanishi uchun, boshqa hammasidan tashqari, etakchi: eshitish, ko'rish va harakat analizatorlari normal faoliyat yuritishi zarur. Signal sistemalarining aloqasi yana shunda ifodalanadiki, birinchi signal sistemasi va uning mexanizmlari - analizatorlar buzilganda, ikkinchi signal sistemasi ham buzilishi (masalan, kar-soqovlarda eshitish analizatori funksiyasi buzilishi nutqning shakllanishida halokatli aks etishi) mumkin. Amaliyotda signal sistemalarining o'zaro hamkorligi buzilishining turli shakllariga duch kelish mumkin. Masalan, zaif eshituvchilikka olib keladigan

eshitish analizatori funksiyasi qisman buzilishida, nutqda ham buzilishlar bo'ladi. Bu buzilishlar eshitishning yo'qotilish payti va darajasiga bog'liq. Kasallik qancha erta boshlansa va darajasi yuqori bo'lsa, nutq shunchalik yomon bo'ladi. U fonetik, grammatik kamchiliklar, lug'atning cheklanganligi, qashshoqligi bilan farq qiladi. Zaif eshituvchilikning oqir ko'rinishlarida bola nutqni mustaqil egallay olmaydi. Uning ikkinchi signal sistemasi shakllanishi o'qituvchi raqbarligida ta'lim sharoitlari yaratilgandagina sodir bo'ladi.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda signal sistemalarining o'zaro hamkorligi buzilishi ta'lim jarayonida lisoniy va ko'rgazmali vositalardan foydalanish muammosini o'zgacha tarzda qo'yadi. K.D.Ushinskiy normal rivojlanayotgan bolaning tafakkuri shakllanishini xarakterlab shunday degan: «Bola shakllar, tovushlar, bo'yoqlar bilan fikrlaydi». Bu, qaysidir ma'noda, nutqni egallamagan kar bolaga ham taalluqli. Uning fikrlashi, yuqorida ta'kidlanganidek, obrazlilik, ko'rgazmalilik, konkretlik bilan ajralib turadi. Shu bois o'qitishning boshlang'ich bosqichlarida ta'limda ko'rgazmalilik ustun bo'lishi kerak. So'z yordamida kar bolaga predmet yoki harakatni ko'rsatish va atash mumkin, faqat nutqni egallagan sari u tobora ko'proq ma'no kasb etib, umumlashib boradi va absrtaksiyalash imkonini beradi.

Ikki signal sistemasining uzviy bog'liqligini, ularning o'zaro hamkorligini hisobga olgan holda, maxsus psixologiya uchun muhim bo'lgan ayrim xulosalarga kelish mumkin.

Nutqiy buzilishni tashxislashda eng avvalo ikkinchi signal sistemasi mexanizmlarining holatini emas, balki birinchi signal sistemasi mexanizmlari axvolini ham sinchiklab o'rganish lozim. Zero nutqdagi buzilishlarning sabablari ko'pincha shu yerda yashirish bo'ladi. Bolaning sezgi organlarini kasallanish, jarohat va boshqa zararlanishlardan asrab – avaylash lozim. Chunki ikkinchi signal sistemasi birinchisining asosida rivojlanadi va shakllanadi, ikkinchi tartibdagi signallar – so'zlar, nutqni birinchi tartibdagi signallar – atrofdagi voqelikni bevosita kuzatishlar, idrok etish, ta'lim jarayonida esa – ko'rgazmalilik

bilan quvvatlab borish lozim. Bolaning kuzatish va qabul qilishi (idrok) qanchalik boy bo'lsa, uning nutqi shuncha boy, yorqin, ifodali (obrazli) bo'ladi. Buning uchun eng yaxshi material – boy va ranag – barang tovushlari, shakllari bo'yoqlari bo'lgan bizni o'rab turgan tabiat.

Kar va eshitadigan bola nutqiy rivojlanishining qiyosiy tavsifi

Kar bolaning nutqiy rivojlanishida uchta asosiy bosqichni ajratish mumkin: maktabgachadan oldingi, maktabgacha va maktab davri. Ularni eshitadigan bola bilan qiyoslab ko'rib chiqamiz.

Nutqiy rivojlanishning maktabgachadan oldingi bosqichi 3 yoshgacha davrni o'z ichiga oladi. Bola hayotining dastlabki oylaridan uning nutq va eshitish apparatini nutqni o'zlashtirishga tayyorlash boradi. Bola turli tovushlar chiqaradi, qo'ldiraydi, shivirlaydi, eshitish diqqati shakllanadi. Bola tovush manbasiga o'z eshitish diqqatini qayd etishga o'rganadi. Go'yo nutq apparati bilan o'ynab, bola turli reflektor tovush birikmalarini talaffuz qiladi – ha, ma, ba va bq. Bu hali nutq emas, lekin uni egallashga muhim tayyorgarlik bosqichi sanaladi. Taxminan olti – sakkiz oylikidan boshlab, bola unga qaratilgan elementar nutqni tushuna boshlaydi. «Soat qaniq», «Chiq-chiq qaniq», «Oyisi qaniq», «Akasi qaniq» kabi savollarga javob tarzida u qidira va boshini obyekt tomonga qarata boshlaydi. Bu mazkur davrga kelib, bola unga qaratilgan nutqni tushuna boshlaganidan, ya'ni unda passiv nutq rivojlana boshlaganidan dalolat beradi.

Nutq rivojlanishining bu bosqichida kattalarning nutqiy muhiti katta rol o'ynaydi. Bola bilan imkon qadar ko'proq gaplashish, bolaning noto'g'ri talaffuziga moslashmasdan, balki so'zlarni aniq va to'g'ri talaffuz qilish lozim. Bolaning nutqiy faoliyati qanchalik boy bo'lsa, uning o'z nutqi shuncha tez va yaxshi rivojlanadi. Kattalar tomonidan bir so'zning qayta – qayta aytilishi va uni ma'lum predmet bilan nisbatlanishi natijasida so'z – ikkinchi tartib signal bilan nomlangan predmet o'rtasida assotsiativ aloqa paydo bo'ladi.

Bola kar tug'ilganda yoki hayotining (nutqiy rivojlanishining) ilk davrlarida eshitish qobiliyatini yo'qotganda mutlaqo boshqacha manzara kuzatiladi. hayotining dastlabki oylarida kar bolani eshitadishanidan farqlab olish juda qiyin. Xuddi eshitadigan bola kabi u ham reflektor tovushlar chiqaradi, ko'zga tashlangan yorqin o'yinchoqlarga jonli reaksiya qiladi, biroq atrofdagilarning nutqini eshitmaydi, unga nima deyayotganlarini tushunmaydi. Voqelik signali sifatidagi so'z bilan predmet orasida assotsiativ aloqalar paydo bo'lmagani bois u nutqqa taqlid qila olmaydi. Bunday bola kata bo'lgani sari nutqiy rivojlanishda eshitadigan boladan orqada qolaveradi. E'tibor berib kuzatilsa, kar bola olti – sakkiz oylik davrida nutqqa reaksiya qilmasligini, so'z, savol talaffuz qilinganda diqqatini predmetga jalb qilmasligini payqash mumkin.

Kar va eshitadigan bola o'rtasidagi tafovut bir yoshlardan keyin, eshitadigan bolada faol nutq rivojlana boshlaganida ayniqsa yaqqol ko'zga tashlanadi. Bunday rivojlanish ayniqsa ikki – besh yosh orasidagi davrda jadal va sermahsul kechadi. Bola katta bo'lgani sari muloqot ehtiyoji ortib boradi. U har doim nimanidir so'rash, olish, e'tiroz bildirishgni xohlaydi. Bu ehtiyoj faol nutq paydo bo'lishini belgilaydi. Eshitish yordamida atrofdagilarning nutqini qabul qilib va unga taqlid qilib, eshitadigan bola o'zi ham gapira boshlaydi. U asta-sekinlik bilan tilning tovush tarkibini egallaydi, bunda ayrim tovushlarni buzishi, noto'g'ri talaffuz qilishi mumkin. Ko'proq talaffuziga ko'ra qiyin tovushlar buziladi (r-l, s-ch, sh - j, s, z). Katta bo'lgani sari, besh – olti yoshga kelib, bola o'zi asta – sekin to'g'ri shu tovushlarning talaffuzini o'zlashtiradi.

Lug'at zaqirasi to'plash ham tezlik bilan ortib boradi. ikki yoshga kelib eshitadigan bolaning faol lug'atida uch yuzga yaqin, uch yoshga kelib mingta atrofida, besh- olti yoshlarda esa hariyb uch ming so'z bo'ladi. To'g'ri, bu davrda bola so'zlarni tushunmaydi va o'ziga xos tarxda qo'llaydi. Ko'pincha u o'zi so'zlarni o'ylab topadi va anologiya asosida o'z so'zlarini kashf qiladi: «makaronlashib ketdim», «qo'limni eshikladim», «shimlarim qovoqini uyib oldi» va sh.k. (K.Chukovskiyning

kuzatishlari⁰. nutqiy amaliyot jarayonida tilning grammatik qurilishini o'zlashtirish ham amalgi oshadi. qali qech kim bolani grammatika qoidalariga maxsus o'rgatmaydi. Biroq tilning asosiy qonunlari va grammatik qoidalarini bola amalda maktabga qadar o'zlashtirib oladi gapda so'zlarning grammatik aloqalari: moslashuv, bitishuv, boshharuvdan to'g'ri foydalanadi, ko'makchilar, fe'l shakllari, kelishik shakllarini to'g'ri qo'llaydi.

Eshitadigan bola bu yoshida yo'l qo'yadigan ayrim xatolar u ayrim grammatik shakllar ustida mustaqil bosh qotirgani va umuman so'z birikmalar modellarini to'g'ri o'zlashtirganidan dalolat beradi. Gapning grammatik qo'rilishi o'zlashtirish davom etadi. Dastlab bolaning gaplari birgina so'zdan iborat bo'lishi mumkin. Keyinroq, nafaqat bosh bo'laklardan iborat, balki ikkinchi darajali bo'laklar ham qatnashgan ikki va uch bo'lakli gaplar paydo bo'ladi. Keyinroq teng va tobe bog'lovchili murakkab konstruksiyalar paydo bo'ladi. Bularning hammasi rivojlanib borayotgan tafakkurning shakl va jarayonlari murakkablashib borishidan dalolat beradi.

Yuqorida aytilganlaridan ko'rinadiki, normal bolaning nutqiy rivojlanishi eshitish asosida, boy nutqiy amaliyot asosida kechadi. Kar bolaning nutqiy rivojlanishi esa mutlaqo boshqacha tarzda kechadi. U atrofdagilarning nutqini eshitmaydi. Unga taqlid qilolmaydi. Shu sababli o'zi gapirishga o'rgana olmaydi.

Biroq kar bolaning gaplashish, nimanidir so'rash, o'z xohishlari, fikrini bildirishga ehtiyoji eshitadigan bolanikidan kam emas. Bu ehtiyoj muloqotning o'ziga xos bo'lgan, nutqiy sistemadan tubdan farq qiladigan sistema – mimika va ishoralarni (yuz ifodalari va imo – shoralarni) keltirib chiqaradi. Kichik yoshdagi kar bola o'z fikrini ifodalash uchun dastlab tabiiy imo – ishoralardan, keyinroq sun'iy imo – ishoralarni ham o'zlashtiradi. Nutqning yo'qligi, nutqiy amaliyotning cheklanganligi va qashshoqligi uni kattalarning tajribasini o'zlashtirish, yangi tushunchalarni o'zlashtirish imkonidan maqrum etadi. Bular bolaning umumiy rivojdanishida o'z ta'sirini ko'rsatadi. Yosh qanchalik kata bo'lsa, eshitadigan va kar bola (kishi) o'rtasidagi farq shuncha katta bo'ladi. To'g'ri,

kar bola uchun maxsus ta'lim sharoitlarini yaratish hisobiga buni ma'lum darajada kompensatsiyalash mumkin. Ilgari kar bolani nutqqa o'rgatish u maktabga kelganidan boshlanardi. Endilikda maxsus MTM faoliyat yuritmoqdaki, ularda bolalarni nutqqa o'rgatish va ularda tushunchalarni shakllantirish ilk yoshidan boshlanadi. bunday bolalar maktabga nisbatan rivojlangan og'zaki nutq ko'nikmalariga ega bo'lgan holda keladi, bu uni maktab yoshida shakllantirish jarayonini ancha yengillashtiradi. Bu bolalar tayyorlov sinfini o'qimasdan, bir yo'la 1 – sinfga qabul qilinishi mumkin. maktab davrida kar va eshitadigan bolalar nutqiy rivojlanishida tafovut saqlanib qoladi, yuqori sinflarga kelib, u biroz qisqaradi.

Eshitadigan bola maktabga qabul qilinganida uning nutqiga talablar ortadi. Uning nutqi nafaqat o'qituvchi, balki butun sinfnig e'tiborida bo'ladi. Nutqda mavjud nuqsonlarning hammasi darqol seziladi va to'g'rilanadi. Bola ilk bor tilni fan sifatida o'rgana boshlaydi. Bola amaliy qo'llab kelgan grammatik qoida va qonunlar ham endi maxsus o'rganish obyektiga aylanadi. Bolaga nima uchun boshqacha emas, balki aynan shunday gapirish va yozish kerakligi tushuntiriladi. Maktabda ilk marta nutq elementlari tahlili beriladi, nutqiy matn gaplarga, so'zlarga, bo'g'in, tovush, harflarga bo'linadi, bu tushunchalarning har biriga ta'rif beriladi.

Maktabga kelgach, bola yozma nutq shakli bilan tanishadi. U og'zaki nutq asosida shakllantiriladi va rivojlantiriladi. Og'zaki nutqdagi kamchiliklar yozma nutq, savod egallashda ham o'z so'zini aytishi mumkin. Maktab davrida lug'at to'plash va uni boyitish davom etadi. Uning miqdor tarkibi ortadi, mavjud so'zlar aniqlashtiriladi. O'qishni o'rganish murakkab psixologik jarayon sanaladi. Bular hammasi eshitadigan bolada to'plangan nutqiy material asosida kechadi.

Kar bola esa maktabga umuman nutqsiz yoki juda kam so'z zahirasi va zaif nutqiy ko'nikmalar bilan keladi. Shu sababali kar bolalarni o'qitish va nutqini shakllantirish jarayoni mutlaqo boshqacha tarzda amalga oshiriladi. Surdopedagogning vazifasi juda murakkab. Ko'p qollarda u nutqni shakllantirishni

tovushlarni qo'yishdan, lug'atni to'plashdan, elementar qoidalar va eng sodda so'z birikmalar grammatik qurilish qonuniyatlarini o'ratishdan boshlashiga to'g'ri keladi. Eshitadigan va kar bolaning og'zaki hamda yozma nutqni egallashi turlicha kechadi. Eshitadigan bolalarda og'zaki nutqni egallash, odatda, yozma nutqdan ilgarilab ketadi. Kar bolalarda bu jarayonlar parallel kechishi, ba'zida yozma nutq malakalari og'xaki nutq malakalaridan ko'ra tezroq o'zlashtirilishi mumkin. Dastlabki so'z va gaplar kar bolalarga umumiy idrok qilish uchun kartochkalarda yozma shaklda beriladi.

Psixologik nuqtai nazardan, yozma nutq nisbatan murakkab, nisbatan mavhum va abstraktsiyalangan sanaladi. Uni egallash eshitadigan bola uchun og'zaki nutqni egallashga qaraganda anchagina qiyin. Kar bolalar bilan esa ahvol boshqacha. Yozma nutq, qiyinchiliklariga qaramay, og'zaki nutqqa qaraganda afzalliklarga ega, zero u eshitish kobiliyati mavjudligini talab qilmaydi, faqat ko'rish yordamida idrok qilinadi.

Zaif eshituvchi (keyinroq kar bo'lgan, nutqi saqlanib qolgan) bolalarda ham nutqiy rivojlanish shu kabi o'ziga xos, biroq bir muncha o'zgacha tarzda kechadi.

Keyin kar bo'lganlarda aksariyat hollarda shakllanib ulgurgan nutq saqlanib qoladi. Ularni o'qitishda asosiy vazifa mavjud nutqni saqlab qolish va yanada rivojlantirish. Buning uchun ularni so'zlovchining «labidan» to'g'ri va yaxshi o'qishga o'rgatish, ular bilan og'zaki nutq orqali muloqotda bo'lish juda muhim.

Zaif eshituvchi bola zaif eshituvchilik darajasidan kelib chiqqan holda, nutqni sezilarli darajada mustaqil egallashi mumkin. Zaif eshitishning yengil darajasida u xatto ommaviy maktabda ham o'qiy oladi. Zaif eshituvchilikning oqir darajasida bola go'yo kar va zaif eshituvchi o'rtasida oraliq, ammo karga yaqin bo'lgan holatni egallaydi. U to'la qonli nutqni mustaqil egallay olmaydi. Kar bola kabi uning uchun ham ta'limda maxsus sharoitlar yaratish talab qilinadi. Uning nutqi jiddiy fonetik kamchiliklar: ayrim tovushlarni tushirib qoldirish,

almashtirish, buzib talaffuz qilish bilan ajralib turadi. Lug'at zahirasi ham juda qashshoq, cheklangan. Yozma nutqi uchun disgrafiya va agrammatizmlar xos. Og'zaki nutq kamchiliklari yozma nutqda ham namoyon bo'ladi; u ayrim tovush va bo'g'inlarni tushirib qoldiradi, almashtiradi. Zaif eshituvchi bola xuddi kar bola kabi so'zlarning grammatik aloqalaridan foydalanishda ko'plab xatolarga yo'l qo'yadi, fe'l shakllari, kelishik shakllarini noto'g'ri qo'llaydi va sh.k.

Savol va topshiriqlar

1. Maktab ta'limi davomida kar bolalar og'zaki nutqining rivojlanishi haqida ma'lumot ayting.
2. Kar bolalarda nutq shakllanishining psixologik xususiyatlari qanday?
3. Nutqning fiziologik mexanizmlari va ulardagi buzilishlarni ayting.
4. Zaif eshituvchi va kar bolalar og'zaki nutqidagi tafovutlarga misollar keltiring.

ESHITISHDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARDA YOZMA NUTQNI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Reja:

1. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar nutqi va grammatik qurilish.
2. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar og'zaki nutqi.
3. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar yozma nutqi.

Tayanch tushunchalar: *nutq, grammatik qurilish, og'zaki nutq, yozma nutq.*

Yozma nutq insonga egallangan tajribani belgilash va uni avlodlarga berish imkonini beradi. Yozma nutq psixologik nuqtai nazardan og'zaki nutqqa nisbatan murakkabroq va nutqni qiyin shakli sanaladi. U mavhum bo'lib, bola uni sekin egallaydi. Odatda bola bu nutq shakli bilan maktabda tanishadi. Kar bola uchun og'zaki nutqqa nisbatan yozma nutq yengilroq sanaladi. Uni idrok etish uchun eshitish kerak emas, ko'ruv idrok esa ularda sog'lom bo'ladi. Yozma nutqni shakllanishida nafaqat eshituv analizatorlari, balki kar bolada sog'lom bo'lgan ko'ruv, harakat analizatorlari ham katta rol o'ynaydi. Bundan tashqari bu nutqning shaklini kar bola ruhiy energiyani ishlatib, og'zaki nutqni shakllantirishda ko'proq ruhiy energiya sarflanadi. Shu sababli eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda yozma nutqni egallash og'zaki nutqni egallash bilan parallel yoki undan oldinroq davom etadi. Yozma nutqni qo'llash vositasi harf sanaladi. Yozma nutqni egallash savodga o'rgatish, xarf yozish va tovush analiz va sintezini amalga oshirishni kuzda to'tadi. Lekin yozma nutq og'zaki nutq asosida shakllanadi va rivojlanadi. Og'zaki nutqni, tilning tovush tarkibini egallagan bola nutqiy oqimni aniqlashi mumkin. Boshqa tomondan yozma nutqni egallash og'zaki nutqni egallashga olib keladi. Yozuv so'zning tovush tarkibini aniqlash fikrlarning aniq ifodalanishga olib keladi. Ta'lim amaliyotida yozuv va o'qishning turli buzilishlari uchraydi (Xususan, yozma nutq va o'qish jarayonlari buzilishlari,

disgrafiya, dislektsiya, agrofiya). Disgrafiyada bola yozuvda ayrim xarflarni tushurib qoldiradi yoki almashtiradi hamda yozuvda so'zlar o'rtasiga boshqa xarflarni qo'shib yozadi. Disleksiyada xarflarni ommalashtirib, tushurib qoldirib o'qiydi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar yozma nutqida qanday nuqsonlar kuzatiladi?

Eshituvchi va gapiruvchi bola yozma nutqsiz bilim egallash jarayonida ma'lum darajadagi lug'at boyligi va gap tuzish malakasiga ega bo'ladi. Kar bolada bu nutq shakli bilan puxta asosga ega bo'lmay shakllanadi. Unda eshituvchi tayanadigan okustik va kinestik obrazlar mavjud bo'lmaydi. Bu yozuvni egallash jarayonini tormozlaydi. Kar bola uchun gapning grammatik tizimi, so'z birikmasi, qoidasi, so'zlarning grammatik aloqasini egallash qiyinchilik tug'diradi.

J.I.Shif, T.V.Rozonova, A.M.Potilskiy va boshqalar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar ko'rsatishicha eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar yozma nutqning keng tarqalgan va tipik xatosi agrammatizim tizimlardir, ya'ni grammatik shakllarning shaxs son, egalik kelishik qo'shimchalarini qo'llashda xatolar yuzaga keladi.

A.M. Komdber, A.F. Nogilskaya eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar o'z yozma nutqlarida so'zlarni noto'g'ri qo'llay gap bo'laklarini tashlab ketish xollari ko'p uchraydi, deb ko'rsatadilar. Ular o'z tadqiqotlarida sog'lom va eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni turli mazmundagi rasmlar asosida yozma tarzda gap tuzish malakasini o'rganadilar.

Tadqiqot natijalari quyidagi jadvalda o'z ifodasini topgan.

Sog'lom bolalar tomonidan tuzilgan gaplar	Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar tomonidan tuzilgan gaplar
Qizcha buzoqqa o't beryapti.	Qizcha buzoqqa yashil berdi
Parta ustida kitob	Parta kitob turibdi
Qizcha tarelka yuvyapti	Qizcha tarelka yaxshi
Bola quyonga sabzi berdi	Bola quyon sabzi

Ko'rinib turibdiki, sog'lom bolalar tomonidan tuzilgan gaplar rasm mohiyatini o'zida aks ettiradi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar tomonidan tuzilgan gaplar to'liqsizligi, mantiqan bog'lanmaganligi bilan ifodalanadi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar mustaqil yozma nutqlarida xodisalarni bayon qilishda mantiqiylik va ketma-ketlik yetarli darajada bo'lmaydi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar bayon etilayotgan materialni rejalashtirishda qiynaladi. Ba'zan ular bosh asosiy ma'nosini tushurib, ikkilamchi qismlarni tavsiflashga o'tib ketadilar.

M.Kolberg eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar yozma nutqning tavsiflab uning quyidagi xususiyatlarini ta'kidlab o'tadi:

a)so'zlarni noto'g'ri tanlash;	b)so'zning tovush tarkibini buzish;	c)gapdagi so'zlarni bog'lashda xatoliklarga uchrashish.
--------------------------------	-------------------------------------	---

Sog'lom va eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar yozma nutqini qiyoslab, olim sog'lom bolalar xodisalarining to'liq bayon etishlari, to'g'ri rejalashtirishi, o'zidan kam narsa qo'shishini aytib o'tadi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar voqea-hodisalarni mazmunini to'liq tavsiflashga qiynaladilar.

N.G.Morozova, A.F.Pongilskaya va boshqalar eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar yozma nutqni tushunishda ham xatoliklar uchrashishini ko'rsatib o'tadilar. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar sodda matnni tushunish va o'qishda qiynaladilar. O'qish murakkab analitika sintetik jarayon bo'ladi.

A.I. Sokolova eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning o'qish jarayonini tekshirib, unga ta'sir qiluvchi omillarni (gapning tuzilishining grammatik xarakteri, o'quvchining hayotiy tajribasi va bilimi) tavsiflab beradi.

N.G.Morozova kar o'quvchilar matnni tushunish holatini tadqiq etib, o'qishni tushunishning bir necha bosqichini ochib beradi.

- Birinchi bosqich analiz.
- Ikkinchi bosqich sintez.

➤ Uchinchi bosqich analiz – sintez.

Yuqori sinf kar o'quvchilari matnni tushunish birinchi, ikkinchi bosqichini egallay oladi. Matnni tushunishning uchinchi bosqichini kar o'quvchilar o'qituvchi yordamisiz egallay olmaydilar. O'qish jarayonida kar bola matnni so'zma-so'z idrok etishga harakat qiladi, u tanish so'zlar boshqalari bilan birgalikda boshqa ma'nosi ifodalanishini tushunmaydilar. Ba'zan kar bola gapdagi barcha so'zlar ma'nosini to'g'ri tushunadilar, lekin gapning matnidagi ma'nosini tushunmaydi. Shu sababli o'qishga o'rgatishda eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarga yozma nutqqa xos bo'lgan so'z birikmalari umumiy modeli va strukturasi tushuntirib borish lozim. Bunda asosiy e'tibor so'z mohiyatini tushunishga emas, balki uning grammatik shaklini ham anglashga o'rgatishga yaratish lozim. Kar bola yozma matnni o'qiganda ahamiyatga ega bo'lmagan kichik so'zlar xalaqit beradi. Bunga kishilik olmoshlarini misol qilish mumkin. Bu turkumga kiruvchi so'zlarni yozma nutqda qo'llash va o'qish xususiyatini o'tkazilgan tadqiqotning natijalarini quyida tahlil qilamiz. Bu tadqiqot jarayonida to'plangan material eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni yozma nutqda qo'llash borasida umumiy xulosaga kelishga yordam beradi. Nafaqat kichik sinf (II-IV) o'quvchilar balki yuqori sinf (VI-VIII) o'quvchilari ham matnda uchragan olmoshlarni tushunishda, ularni boshqa so'z turkumiga oid so'zlar bilan aloqasini anglashda qiynalganlari kuzatildi. Olmoshlar ahamiyati kar o'quvchilar so'z birikmalari tarkibiga kiritib yuborgan holda tushiradilar, olmoshlar ma'nosini chegaralangan holda tushuriladi. Kichik sinfdagi eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar kishilik olmoshlarni ko'rsatish imo-ishorasi yordamida tushuntiradilar va kishilik olmoshlarini matnda ayirib tushunadilar. Uchinchi shaxs tushunchasini berishda ko'rsatkich imo-ishorasi qo'llaydilar yoki olmoshlarni ot turkumiga oid so'zlar bilan almashtiriladi. U – qiz bola, biz – odamlar, siz – O'qituvchi.

Yuqori sinfdagi bu kishilik olmoshlari chegaralangan, holda tushunish bartaraf etiladi va o'quvchilar kishilik olmoshlari mohiyatini tushunish va matn bilan aloqasini anglash malakalari

shakllanadi. Kishilik olmoshlarini tushunmaslik eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni yozma nutqda qo'llanishda xatolik yuzaga kelishga sabab bo'ladi. Kichik sinf o'quvchilari yozma ishlari kishilik olmoshlarini kam qo'llaydilar. Ular olmoshlar qo'llanilishi lozim bo'lgan o'rinlarda ham ot turkumiga oid so'zlarni qo'llaydilar. Aynan bir xil so'zlarni qo'llash eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar yozma nutqiga xos bo'lgan nuqsondir. Yuqori sinflarda eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar nutqida qo'llanayotgan olmoshlar miqdori ortadi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar yozma nutqida olmoshlar gapda kesim yoki vositali to'ldiruvchi vazifasida keladi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning bu kabi nutq nuqsonlari maxsus tashkil etilgan ta'lim jarayonida bartaraf etiladi.

Savol va topshiriqar:

1. J.I.Shif, T.V.Rozonova, A.M.Potilskiy qanday tadqiqotlar o'tkazishgan?

2. M.Kolberg eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar yozma nutqning qanday xususiyatlarini aytib bergan?

3. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar yozma nuqtida olmoshlarni qanday qo'llashadi?

4. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda og'zaki va yozma nutqini farqi qanday?

5. N.G.Morozova kar o'quvchilar matnni tushunish holatini tadqiq etib, o'qishni tushunishning nechta bosqichini ochib bergan?

ESHITISH QOBILIYATINI YO'QOTGANLARNING OG'ZAKI NUTQNI IDROK ETISHI (LABDAN O'QISH)

Reja:

1. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda og'zaki nutqining roli.
2. Labdan o'qish va uni rivojlantirish.
3. Labdan o'qish ko'nikmasini shakllantirishdagi qiyinchiliklar.

Tayanch tushunchalar: *So'z, labdan o'qish, idrok etish, mimika va imo-ishora.*

So'zlarni, gaplarni bir necha takrorlash ta'sirida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda fonematik eshituvni tovush analiz va sentizning yuqori shakli rivojlanadi. Bola ona tilining fonemalari farqlash, ayrim so'zlar, gaplarning tushunish, farqlashga o'rganadi. Bola ilk yoshida eshituvni yo'qotsa, og'zaki nutqni idrok etishda ko'ruv analizatori muhim o'rin to'radi. Bunda taktil vibratsion, harakat, eshitish qoldig'i kabi sezgilar yordamchi rolga ega bo'ladi.

F.F.Rau, V.I.Belyukov tomonidan o'tkazilgan tadqiqot natijalari tahlili ko'rsatishicha kar bola unga qaratilgan nutqni ko'rish yordamida qabul qilish, labdan o'qishga o'rgatish mumkin. Labdan o'qish murakkab ruhiy jarayon bo'lib, nutqiy apparat harakatlari ko'rish analizatori yordamida idrok etish asosiga qurilgan bo'ladi. Nutqni eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar tomonidan idrok etish, passiv nutqning o'ziga xos shaklidir. Labdan o'qish jarayoni kar, zaif eshituvchi bolalarda, kech kar bo'lganlar labdan o'qish jarayoni turlicha kechadi. U kar bolada ko'ruv idroklariga tayanadi. Zaif eshituvchi bolalarda eshitish darajasiga ko'ra bu jarayon nutqni eshitish orqali qabul qilishdan past turadi yoki yordamchi vosita sifatida qo'llanilishi mumkin. Kech kar bo'lgan bola labdan o'qishni qiyinlik bilan o'rganadi. Lekin uni labdan o'qishga o'rgatish kar bolada mavjud nutqni saqlab qolish, unga o'qish, boshqalar bilan

muloqotga kirish imkonini beradi. Agar bu bola labdan o'qishga o'rgatilmasa, u imo-ishora nutqini egallaydi, natijada u og'zaki nutqda so'zlashish malakalarini esdan chiqara boshlaydi. Ma'lum vaqtdan so'ng bu bola kar boladan farq qilmay qoladi. Kech kar va zaif eshituvchi bolani imo-ishora nutqda gaplashishuvchi nutqi mavjud bo'lmagan shaxslar jamoasida faoliyat ko'rsatish labdan o'qish jarayonini shakllanishga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

F.F.Rau e'tirof etishicha labdan o'qish jarayonini 3 bosqichda tasniflashi mumkin:

- a) so'zni artikulyator tasniflash;
- b) taqlidiy artikulyator obrazini ko'rish orqali idrok etish;
- c) anglangan idrok.

Bulardan tashqari eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar labdan o'qishining uch turi tasniflanadi:

- a) harakatli;
- b) ko'ruv;
- c) aralash.

Labdan o'qishni haraktli tipi og'zaki nutqi mavjud eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda uchraydi. Tovushni artikulyator harakatini yuzaga keltirish uchun uni talaffuzini egallash kerak.

Ta'limning boshlang'ich bosqichida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar umuman gapirmaydilar yoki kam gapiradilar. Bu bosqichda bola so'zni talaffuz qilolmasa ham so'zning umumiy obrazini ko'ruv orqali qabul qiladi. Og'zaki nutqni egallash darajasiga ko'ra eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar talaffuzni egallaydilar. Labdan o'qish jarayonida bolalarda nutqiy kinesteziya yuzaga keladi. Aralash tipda labdan o'qish ko'ruv va harakat tiplari bilan birgalikda amalga oshadi. Labdan o'qish jarayoni murakkabligi bizning nutqimiz fonemalari talaffuzda bir xil namoyon bo'ladi. Ayrim tovushlarni labdan o'qish oson bo'ladi. Nutqimizdagi har bir tovush xos bo'lish usuli, o'rni, ovoz va shovqin ishtiroki jarangli va jarangsizligiga ko'ra o'zaro farq qiladi.

Eshitish organi tovushning barcha xususiyatlarini qabul

qilish xususiyatiga ega, lekin ko'rish analizatori bu xususiyatlarni qabul qilish imkoniga ega emas, tadqiqotlar ko'rsatishicha kar bola ko'rish analizatori yordamida 12 guruhdosh tovushlarni yaxshi qabul qiladi. Artikulyator obrazlari bir xil bo'lgan tovushlar bir guruhga kiritilgan bo'lib, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar ularni o'qishda qiynaladilar. Masalan, sabzi – zabzi, barg – parg.

Labdan o'qishning ruhiy murakkabligi uni o'qish jarayoni bilan bir xil deb adashishlarda namoyon bo'ladi. O'qiladigan matnda harflar aniq ularning grafik belgilari bir xil bo'ladi. Jonli nutqda tovushning artikulyator obrazi ko'p omillarga avvalo tovushini so'zdagi o'rniga bog'liq bo'ladi. Xususan, unli tovush so'z urg'usiga bog'liq holda kuchli talaffuz etishadi. Har bir gapiruvchi talaffuzining individual xususiyatlari mavjud bo'ladi. Ayrimlar tovushlarni aniq talaffuz etadilar, ayrimlar tez lekin tovushlarni aralashtirib talaffuz etadi. Matndosh grafik obrazlar statik va kar o'quvchi tushunmasa, qaytadan matnni o'qishi mumkin. Jonli nutqda tovushlarning artikulyator obrazlari dinamik bo'lib doimo xarakterda va idrok etilmay qolgan tovush talaffuzini qaytadan idrok etib bo'lmaydi. Yozma nutqda so'zlar intervallar bilan ajratilgan, og'zaki nutqni kar bolaning o'zi bo'laklarga bo'ladi: gap – so'z – bo'g'in – tovush.

Matn o'qishda o'qish tempini biz belgilashimiz mumkin, og'zaki nutqni idrok etishda esa kar bola gapiruvchini talaffuz tempiga moslashishi kerak. To'g'ri tashkil etilgan ta'lim jarayonida kar bola lab o'qishning yuqori pog'onasiga chiqish mumkin. Unga qaysi omillar yordam beradi.

F.F. Rau, V.I. Belyukova A.I. Shept va boshqa olimlar tadqiqotlariga ko'ra bu shakl va ma'nosiga ko'ra kombinatsiyalashgan omillardir. Tadqiqotlar tahlili kar bola matndantashqari so'z, gaplarni labdan o'qishda ko'pxatoliklarga yo'l qo'yadilar. Kontekstga ko'ra o'qishni korrektsiyalaydi, so'zlarni tashlab o'qishni to'ldiradi. Masalan, kar bola matndan tashqari *stul* – *so'z*, *ona* – *ota* – *opa* so'zlarini tashlab o'qishi mumkin, chunki bu so'zlarning artikulyator obrazlari juda o'xshashdir.

Mimik gapda kar bola kerakli so'zni joyida talaffuz etadi va unga mos keluvchi grammatik shaklni tanlaydi. Mimik bunday kombinatsiya faqat so'zlashuv nutqi mavjud kar bolaga xosdir. Bu daraja qanchalik yuqori bo'lsa, labdan o'qish ham shunchalik yuqori darajada bo'ladi. Labdan o'qishda imo-ishora nutqi yordami vosita sifatida faoliyat ko'rsatadi. Nutq mazmuniga mos keluvchi yuz ifoda belgilari, imo-ishoralar labdan o'qish jarayonini yengillashtiradi yoki qiyinlashtiradi. Kar bola labdan boshqa narsani o'qishda, amalda boshqasini ko'radi. Bu uning labdan o'qishni murakkablashtiradi. Labdan o'qishni o'rganish uchun bir necha usullar qo'llanilgan – statik, dinamik, substitutsion va turli yordamchi vositalar. Statik metodi asosi tinch holatda lablar harakatini o'rganishdan iborat. Dinamik metodda tovushlar artikulyatsiyasi jonli nutqda o'rganiladi. Substitutsion metod tovushlarni aralashishi va almashishining variantlarini o'rganadi.

Labdan o'qish jarayonini yengillashtirish uchun yordamchi vositalar – daktilologiya, imo-ishora nutqi, tovush kuchaytirgich apparatlar yordamidagi eshitish qoldig'i, taktil vibratsion sezgilar qo'llaniladi. Eng tarqalgan yordamchi vosita bu yozma nutqdir. Agar o'quvchi bir necha urinishlardan so'ng so'zni labdan o'qiy olmasa, uni doskada yozadilar. Labdan muvaffaqiyatli o'qish uchun gapiruvchining holati, yorug'lik, temp va xakozolar bola nutqini rivojlanishining asosiy xususiyatlarini ko'rsatish mumkin:

Eshitishning yo'qotish kar bola nutqiy rivojlanishi o'ziga xosligini belgilovchi asosiy omildir. Eshitishni butunlay yo'qotgan holatida kar bola nutqi nutqiy amaliyotida rivojlanmaydi. U faqat surdopedagog rahbarligida maxsus tashkil etilgan ta'lim jarayonida rivojlanadi.

Kar bola nutqini rivojlanishning asosi ko'ruv harakat va taktil vibratsion sezgilardir. Kar bolada nutqiy amaliyoti eshituvchi bolaga nisbatan kambaqal va cheklangandir. Shuning uchun kar bolada nutqiy muloqot tamoyiliga ko'ra nutqini rivojlantirish maxsus maktabning bosh vazifasidir. Eshituvchi bola eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarga nisbatan nutqni erta

egallaydi. Unda 5-6 oyligida keyin faol nutq rivojlanadi. Kar bolada bu jarayon maktabga yoki bog'chaga borganidan so'ng amalga oshadi.

Eshitadigan odam atrofdagilarning og'zaki nutqini eshitish analizatori asosida idrok etadi, ko'rish obrazlari esa bu idrokni to'ldiradi, ishoralar, mimika va yuz ifodalarini tushunishga imkon beradi.

So'zlovchining aynan bir xil so'zlarni ko'p bor takrorlashi ta'sirida bolada asta – sekin fonematik eshitish – tovushli qobiqli analiz – sintezning oliy shakli shakllanadi. Bola ona tili fonemalarini, aloqida so'zlarni farqlay va tushuna farqlay boshlaydi.

Ilk bolalagida eshitish qobiliyatini yo'qotgan bola esa, og'zaki nutqni idrok etishda ko'rish analizatori yetakchi bo'lib qoladi. Boshqa sezgilar: taktil – vibratsiyali, harakat, qoldiqli eshitish yordamchi rol o'ynashi mumkin.

F.F.Rau, V.I.Belyukov va boshqalarlarning o'qitish tajribasi va tadqiqotlarida ko'rsatilishicha, kar bolani unga qaratilgan nutqni ko'rish orqali to'g'ri qabul qilish va tushunishga, ya'ni labdan o'qishga o'rgatish mumkin.

Labdan o'qish – kar odam tomonidan so'zlovchi nutqini nutq apparatining ko'rinadigan harakatlari va unga hamroh mimika – ishora harakatlari bo'yicha idrok etish murakkab psixologik jarayoni. Bu karlar tomonidan og'zaki nutqni idrok etilishining yagona yo'li, passiv nutqning o'ziga xos shakli.

Labdan o'qish jarayoni kar, keyin kar bo'lgan va zaif eshituvchilarda turlicha kechadi. karlarda u asosan ko'rish obrazlariga tayanadi. Zaif eshituvchilarda u zaif eshituvchilik darajasiga ko'ra og'zaki nutqni eshitib idrok etishga nisbatan ustun bo'lishi (masalan, zaif eshituvchilikning og'ir ko'rinishlarida) yoki yordamchi vosita (o'rta darajada zaif eshituvchilikda) bo'lishi mumkin. Nutqi saqlangan keyin kar bo'lgan bola bu jarayonni o'zlashtirishni kar bolaga qaraganda qiyinchilik bilan boshlaydi. Biroq uni labdan o'qishga o'rgatish uning mavjud nutqini parchalanishdan saqlash, unga ta'lim olish va atrofdagilar bilan muloqot imkonini berishning

yagona yo'lidir. Bunday bolani labdan o'qishga o'rgatilmasa, u mimikani o'zlashtiradi, unda hali saqlanib qolgan og'ziki nutqdan foydalanmay qo'yadi, natijada, og'zaki nutq asta – sekin unutiladi. Ma'lum vaqt o'tganidan keyin bunday bola kar – soqov boladan farq qilmaydi. Ayniqsa bunday bolaning nutqi bo'lmagan, asosiy muloqot vositasi mimika sanaladigan kar bolalar orasida bo'lishi katta zarar keltiradi.

Tayyorlov sinfi o'quvchilari – kar bolalar gapira olmaydi yoki juda kam gapiradi. Bu davrda bola so'zning umumiy ko'rish obrazini ilg'ab oladi, uni talaffuz qila olmasada, o'rtog'larining ismini, predmetlar nomini, ayrim frazalarni o'qib oladi (masalan, tur, taxta yoniga chiq, yoz, gullarga suv quy va sh.k.). Og'zaki nutqqa o'rgangani sari bolalar bu so'zlarni talaffuz qila boshlaydi. Shunda labdan o'qish chog'ida ularda nutqiy kinesteziyalar paydo bo'ladi.

Labdan o'qishning qiyinchiligi shundaki, tilimizdagi hamma fonemalarni ham talaffuzda ko'rib olish mumkin. Ayrim tovushlar (a, o, u, p, b, m, kabilar) nisbatan yaxshi ko'rinadi va kar bolalar ularni o'qiy oladi. Boshqa tovushlar esa juda yomon ko'rinadi yo umuman ko'rinmaydi (masalan, g, k, x, t, d, n). Eshitish yordamida tilimizda 31 ta fonemani farqlaymiz. Ularning har biri xarakterli belgilari bilan: jarangili – jarangsizligi, qosil bo'lish usuli va o'rniga ko'ra ajralib turadi. Qulog'imiz tovushlarning bu nozik qirralarini ilg'ab olishga qodir.

Ularning har biri faqat uning o'zi uchun xos bo'lgan ko'rish artikulyatsiya obraziga ega. Biroq ayrim guruhlar artikulyatsiya obrazlari deyarli bir xil bo'lgan tovushlardan iborat (masalan, p – b – m, sh – j). labdan o'qiganda bu tovushlarni ko'pincha qorishtirib yuborishadi. amaliyotda bola bobo o'rniga momo, tub o'rniga tup kabi o'qishini kuzatish mumkin.

F.F.Rauning fikricha, labdan o'qishning psixologik qiyinchiligi matnni o'qish oddiy jarayoni bilan solishtirganda ayniqsa sezilarli bo'ladi. O'qiladigan matnda alifbo aniq, harflar chizgilari bir xil. Jonli og'zaki nutqda tovushning artikulyatsiya obrazi ko'p narsaga, avvalo, so'zdagi pozitsion holatiga bog'liq.

Jonli nutqda tovushlarning artikulyatsiya obrazlari esa dinamik, doimo harakatda, idrokda o'tkazib yuborilgnini qayta tiklab bo'lmaydi. Yozma nutqda so'zlar intervallar bilan ajratilgan, jonli nutqda kar bola tarkibli birliklar: gap – so'z-bo'g'in – tovushni o'zi bo'laklashi kerak. Biror matnni o'qiganda o'zimizga o'zimiz sur'at belgilashimiz mumkin, kar bola esa so'zlovchining nutq sur'atiga moslashishi kerak.

Shunga haramay, o'qitish to'g'ri tashkil qilinsa, kar bola labdan o'qishda yuqori darajaga erishishi mumkin.

F.F.Rau, V.I.Beltyukov, A.I.Mett tadqiqotlarida ta'kidlanishicha, bunda kar bolaga ma'nosiga va shakliga ko'ra kombinatsiyalash yordam beradi. Labdan o'qishda kar bolaning tafakkuri sinov va xatolar tamoyili bo'yicha doimiy va keskin ishlaydi. Kuzatishlar kar bolalar alohida, matndan tashqari so'zlarni o'qib olishda ko'proq xato qilishlarini ko'rsatgan. Kontekst, vaziyat ularga o'tkazib yuborgan o'rinlarni to'ldirishga yoki o'qishni ma'noga ko'ra korreksiyalashga ko'maklashadi.

Mimika va ishoralar labdan o'qishda yordamchi vosita sanaladi. Nutq mazmuniga mos ishoralar va yuz ishoralari labdan o'qishni osonlashtiradi, aksincha, ular mazmunga qarama – qarshi bo'lsa (masalan, qayg'uli narsa haqida kulib gapirilsa va sh.k.), uning idrok etilishini qiyinlashtirib yuboradi. Kar bola birini eshitib, boshqasini ko'radi. Bu uni chalg'itadi.

Labdan o'qishga o'rgatish uchun turli metodlar qo'llangan: statik, dinamik, substitutsion, shuningdek turli yordamchi vositalardan foydalanilgan.

Statik metod asosini tinch holatda tovush talaffuzini o'rganish tashkil etadi. Dinamik metodda, aksincha, artikulyatsiya harakatda, jonli nutqda o'tganilgan va buni to'g'ri, deb hisoblash lozim.

Tovushning izolyatsiyalangan holatdagi talaffuzi uning jonli nutqda, harakatdagi obrazidan farq qiladi. Shu sababli tovushning statik holatda o'rganilgan obrazi labdan o'qishni va bog'lanishli nutqda tanib olishni kafolatlay olmasdi. Substitutsional metodda asosiy e'tibor tovushning almashinishi va almashtirilishi ehtimoliy variantlari qonuniyatlariga

qaratilgan.

Labdan o'qishni osonlashtirish uchun, odatda, yordamchi vositalardan – daktilologiya, mimika, ovoz kuchaytirgich yordamida eshitish sezgilari qoldiqlarini safarbar qilish, shuningdek taktil – vibratsiyali sezgilardan foydalaniladi. Yozuv keng tarqalgan va qulay yordamchi vosita sanaladi. O'quvchi bir necha urinishda ham so'zni o'qiy olmasa, uni sinf taxtasiga yoziladi. Labdan o'qishga o'rgatishda so'zlovchining holati, yoritish, nutq sur'ati va katta ahamiyatga ega.

Demak, kar bolaning nutqiy rivojlanishiga quyidagi asosiy xususiyatlarni ko'rsatish mumkin: eshitish qobiliyatining yo'qolishi kar bola nutqiy rivojlanishi o'ziga xosligini belgilaydigan asosiy omil sanaladi. Eshitish qobiliyati to'liq yo'qotilganda bolaning nutqi nutqiy amaliyot jarayonida spontan rivojlanishi mumkin emas. U faqat maxsus tashkil qilingan ta'lim jarayonida o'qituvchi raxbarligida shakllantirilishi mumkin.

Kar bola nutqiy rivojlanishining asosi, eshitadigan bolalardan farqli o'laroq, eshitish emas balki ko'rish, harakat va taktil – vibratsiyali sezgilar sanaladi. Kar bolaning nutqiy amaliyoti eshitadigani bilan solishtirilganda qashshoq va cheklangandir. Shu sababli kar bolalarda nutqiy muloqot tamoyili asosida nutqni shakllantirish maktabning juda muhim vazifasi sanaladi.

Eshitadigan bolalar nutqni kar bolalarga qaraganda ancha erta egallashadi. Eshitadigan bolada 6-8 oyligidan boshlab, passiv, bir yoshdan keyin faol nutq rivojlana boshlaydi. Kar bolalarda bu jarayon faqat MTM va maktabga kelganidan boshlanadi. Kar bolalarda eshitadiganlarida bo'lmagan o'ziga xos nutq shakllari: mimika, daktilologiya, labdan o'qish shakllanadi.

Savol va topshiriqlar

1. Og'zaki nutqqa nimalar kiradi?
2. Labdan o'qish davomida bola nimalarni o'zlashtirish kerak?
3. Necha turga bo'lingan?
4. Necha yoshdan labdan o'qish jadal rivojlanadi?

DAKTILOLOGIYA VA IMO - ISHORA NUTQI ESHITISHDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR NUTQI SIFATIDA

Reja:

1. Daktilologiya nutqining paydo bo'lishi tarixi.
2. Daktilologiya va jestologiya.
3. Daktilologiya va imo-ishoradan foydalanishda jamiyatning roli.

Tayanch tushunchalar: talaffuz, artikulyatsiya, imo-ishora, pantomimika, mimika.

Daktilologiya (qadimgi yunoncha: δάκτυλος [daktilo] — barmoq va qadimgi yunoncha: λόγος [logiya]) — nutq shakli; o'ziga xos tarzda qo'l barmoklari yordamida gaplashish. Muayyan alifbodagi har bir "harfni ifodalash uchun barmoqlarga turlicha shakl beriladi. Daktilologiyada bir yoki ikkala qo'l barmoqlaridan foydalanish mumkin (asosan o'ng qo'l barmoqlaridan foydalaniladi).

Daktilologiya kar, kar-soqovlarning oson va tez so'zlashuviga imkon beradi. Karvazaifeshituvchilar daktilologiya belgilarini ko'zi bilan qabul qiladi. Kar bolalar uchun bog'cha va maktabning boshlang'ich sinflarida daktilologiyadan asosiy o'qitish vositasi sifatida, shu maktabning yuqori sinflarida esa undan yordamchi o'qitish vositasi sifatida foydalaniladi. Kar-soqovlarga ta'lim berishda daktilologiya birdan-bir muomala vositasidir.

Daktilologiya — kar va zaif eshituvchi bolalarning nutqining o'ziga xos shaklidir. U so'zlashuv nutqiga imo-ishora nutqiga nisbatan yaqindir. U yozma xarakatga ko'ra yozma nutqqa o'xshab ketadi. Uning vositalari grafik belgilar harflar emas, balki qo'l, barmoq harakatlari hisoblanadi.


O'ZBEK DAKTIL ALIFBOSI

(1-rasm)

 A	 B	 D	 E	 F	 G
 H	 I	 J	 K	 L	 M
 N	 O	 P	 Q	 R	 S
 T	 U	 V	 X	 Y	 Z
 O'	 G'	 SH	 CH	 NG	

O'zbek tilining har bir harfi o'zining harakatli ifodasiga egadir. Daktil belgilarini uch guruhga tasniflash mumkin:


❖ chizuvchi harflar (z, k, d);



❖ harf shaklini ifodalovchi harflar (o, l, m, b);



❖ shartli belgilar (v, j, n).



Daktil nutqi so'zlashuv nutqining barcha qoidalariga ko'ra shakllanadi va uni kar bola egallashi mumkin. Bog'cha davrda kar bola daktilologiyaga savod o'rganish uchun murojaat qiladi. Tadqiqot ko'rsatishicha, daktilologiya eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar so'zlashuv nutqini shakllantirish uchun yordamchi vosita bo'lib xizmat qiladi.

E.N. Martsinovskaya tadqiqot natijalariga ko'ra, bu nutq formasining quyidagi belgilarini ochib beradi. Eshituvchi bolalarda daktillash 2,5 marta og'zaki nutqni bayon qilishga nisbatan orqada qoladi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda og'zaki nutqni bayon etish va daktillash tempi bir xil bo'ladi, ba'zan daktillash og'zaki nutqni bayon etishda oldindan o'tib ketish hollari ham kuzatiladi. Daktilologiya og'zaki nutqni o'zida

namoyon qiladi, lekin suhbat jarayonida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar daktil nutqiga nisbatan imo-ishora nutqidan keng doirada qo'llaniladi.

L.A. Novikova va E.N. Martsinovskaya tomonidan o'tkazilgan maxsus tadqiqotlarga ko'ra daktilologiya ham og'zaki nutq kabi kinestetik sezgilar asosiga ko'riladi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar fikrlash operatsiyalarida faqat artikulyator apparatlarda, balki qo'l, barmoq muskullarida ham impulsar yuzaga kelgani kuzatilgan. Lekin, artikulyator apparatdagi nutqiy kinestiziyalar, qo'l kinesteziyalariga nisbatan puxta bo'lib, tadqiqot ob'ekti sifatidan o'rganish talab etiladi. E.N. Martsinovskiy daktillash tempi og'zaki nutq talaffuzi yaxlitligiga ta'sirini o'rgatgan. Bu tajribalar ko'rsatishicha kar bola daktillash texnikasini yaxshi o'rganganda daktilologiya og'zaki nutq tempi va yaxlitligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Daktillash texnikasini yaxshi darajada egallamaslik, talaffuz to'g'riligi, nutqni tushunarligiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Daktilologiyani yaxshi egallagan o'quvchilar so'zning tovush sostavini to'liq egallaydi. Ularda so'zning tovush va daktil obrazi o'rtasida shartli aloqalar o'rnatiladi. Lekin so'zning talaffuzi yozilishdan uzoqlashsa tovush tarkibini o'rganishda daktilologiya ta'sir ko'rsatdi. Daktilologiyani va yozma nutqning o'zaro munosabati juda murakkabdir.

S.A. Zikov tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda, bu muammo tadqiq etilgan. Eshituvchi bola savodga o'rgatishning boshlang'ich etapida nutqni akustik va harakat obrazlariga tayanadi. Bolani so'zli yozishdan avval uni ichida yoki ovoz chiqarib o'qishini ko'rish mumkin. Kar bola og'zaki nutqqa ega bo'lganligi uchun savodga o'rgatish davrida daktilologiyaga tayanadi. So'ng bu jarayon bir vaqtda amalga oshadi, bola ham yozadi va daktillaydi. So'zlashuv nutqini egallash darajasiga ko'ra daktil kinesteziyalari asta-sekin siqilib, artikulyator kinesteziyalar bilan almashinadi. U ham bola singari so'zni talaffuz etib, so'ng yozadi.

Daktilologiya atrofdagilar nutqini labdan o'qishda ham muhim vosita sanaladi. Chunonchi, ayrim tovushlar labdan

yomon o'qiladi, shu o'qishda daktilologiyadan foydalanadi. Lekin labdan o'qish jarayonida daktilologiyadan foydalanish ham ijobiy samara beradi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar tomonidan keng qo'llaniladigan imo-ishora nutqi muloqotga ehtiyoj yuzaga kelish natijasida namoyon bo'ladi. Kar bola qo'llaydigan tabiiy dastlabki imo-ishoralar juda sodda bo'ladi. Masalan, u biror narsani xohlasa, uni qo'li bilan ko'rsatadi. Asta-sekin bu jarayon murakkablashib boradi, shartli harakterga ega bo'lib, muloqot funksiyasini bajara boshlaydi. So'zlashuv nutqidan farqli, imo-ishora nutqi ko'ruv va harakat sezgilari asosida namoyon bo'ladi. So'zning realizatsiya vositasi tovush yoki grafik qobiq bo'lsa, imo-ishora nutqining vositasi qo'l harakatlari va unga mos yuzning mimik ifodalari xisoblanadi. Bizning nutqimiz ikki funksiyani bajaradi: muloqot vositasi va tafakkur quroli. Bu funktsiya imo-ishora nutqi orqali ham bajariladimi?

Ma'lumki, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar imo-ishora yordamida muloqotga kirishadilar. Imo-ishora nutqi atrof-olamini tushunishga yordam beruvchi vosita sanaladi. Masalan, kar bola oilada kar bola imo-ishora nutqidan foydalangan holda tarbiyalanadi, lekin uning rivojlanish darajasi yuqori bo'ladi. Shunday qilib, imo-ishora eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun muloqot funksiyasi bajarishni ta'kidlash joiz. Bu jihatdan u og'zaki nutq shakliga o'xshashdir. Lekin u chegaralangan davrada, faqat kar shaxslar o'rtasida muloqot quroli sifatida namoyon bo'ladi. Nutq tafakkur quroli sifatida namoyon bo'ladi. U o'zini birinchi vazifasini bajara olmasligi, tafakkur quroli sifatida faoliyat ko'rsata olmaydi. Imo-ishora nutqining qurish materiali mimik belgilar foizidir. So'zdan farqli, imo-ishora belgilari bir qator o'ziga xosliklarga egadir. Ayrim mimik belgilar so'z kabi muloqot elementiga egadir. So'z qat'iy va universal ahamiyatga ega. Mimik belgilar esa qat'iy bo'lmaydi. Ko'p tushunchalar kar shaxslar o'rtasida bir xil ishora bilan ifodalanadi. Ularning harakteri ta'lim jarayonida so'zlashuv nutqi vositasida o'zgarishi mumkin. So'z tarkibida tovush kompleksi va ma'nosi bo'yicha mustahkamlash aloqasi

mavjud bo'lib, uni ixtiyoriy buzib bo'lmaydi. So'zning tovush tarkibi buzilsa, u o'zining funksiyasini bajarmay qoladi. Tovush kompleksi uning ma'nosi bilan umumiy bog'liqqa ega emas. Ayrim mimik belgilarda bu aloqa yaqqol namoyon bo'ladi. Ko'p olimlar mimik belgilarini tasniflashga harakat qilganlar (N.G. Morozova, R.M.Boskil, L.V.Zankov, G.L.Zaytseva, N.F.Slezina). Ularning ilmiy ishi natijalariga tayanib mimik belgilarni quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Ko'ruv sezgisiga asoslangan belgilari:

- ko'rsatuvchi ishning belgilari (burun, ko'z, stol, shkaf, u);
- predmet konturi yoki uning harakterli xususiyatlari ko'rsatuvchi mimik belgilar (yulduz, qor, ona);

- to'liq yoki qisman imitatsiya qiluvchi harakterlar.

2. Sezgilarga asoslangan belgilar.

3. Xid sezgilarga asoslangan belgilar.

4. Teri sezgilarga asoslangan belgilar.

5. Proprio sezgilarga asoslangan belgilar.

6. Organik sezgilarga asoslangan belgilar.

7. Ematsional sezgilarga asoslangan belgilar.

8. Mimiko-daktil sezgilar

- ❖ Tabiiy sezgilar

- ❖ Shartli sezgilar

- ❖ Sonni ifodalovchi sezgilar

- ❖ O'tkazuvchan mimik sezgilar

Mimik belgilar tarkibi qat'iy va bir turga ega bo'lmaydi. Karlar yangi tushunchalarni egallashi va nutqda yangi so'z paydo bo'lishi bilan mimik belgilar yuzaga kela boshlaydi (televizor, bomba). Ayrim mimik belgilar bir tomondan konkret va ko'rgazmaliligi, ikkinchi tomondan diffuzligi va differentsiallashtirmaganligi bilan harakterlanadi. Shuning uchun, uy belgisi ko'p qavatli uy, hovli joy ma'nosidagi ishlatilishi mumkin. Shu sababli, mimik belgilarda umumlashtirishlar ko'p uchraydi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning ta'lim tizimida so'zlashuv nutqi o'zgarib boradi va mimik belgilar yanada differentsiatsiyalanib boradi. Avval kar bola turli turdosh

qurilishlarni uy belgisi bilan markali mashinalarni belgisi bilan ifodalanmasa, so'zlashuv nutqi yordamida yangi differentsiallashgan belgilarni qo'llay boshlandi. Har qaysi mimik belgi qoidadir, ob'ektiv realligi ifodalasa ham, har shakllarni turli jamoalarida turlicha ma'noda kelish mumkin. Bu avvalo ko'rsatish, plastik va imititatsyalovchi belgilarga xosdir.

Mimik belgida emotsional belgi so'zga nisbatan yorqin ifodalanadi. Mimikada predmet xodisani belgilanish va unga munosabat bir vaqtda ifodalanadi. Nutqning ikki tomonini uning grammatik tomonida yordamida tilning ovoz qismi ma'noli harakter kasb etadi. Mimik imo-ishora nutqi o'zining grammatik tuzilishiga ega. Imo-ishora nutqi grammatik tuzilishga ega bo'lmagan, agrammatik nutqdir.

Imo-ishora nutqida ham gap tuzishning o'ziga xos qonun-qoidalari mavjud. Nutqda har bir so'z ma'lum grammatik shaklga egadir, u gapda boshqa so'zlar bilan muloqotga kirishishi bilan grammatik shakli o'zgaradi.

Mimik belgisini shakli esa o'zgaruvchan bo'lmaydi, u gapda boshqa ishoralar bilan kelganda ham grammatik jihatdan o'zgartirmaydi. Mimik belgi so'zga nisbatan grammatik jihatdan sodda bo'ladi, lekin mimik gap qurilishda nutq qismlarni qo'llashda o'ziga xos tendentsiyani ko'rish mumkin. So'zlashuv nutqida va imo-ishora nutqida ham gaplarda so'zlarni joylashish tartibi bir xil bo'ladi. Xususan, kesim, vositali to'ldiruvchidan iborat. Yoyiq gapni so'zlashuv va imo-ishora nutqida joylashish tartibi bir xildir.

Imo-ishora nutqida qo'shimcha gaplarga nisbatan sodda gaplar ko'p qo'llaniladi. Gap tarkibidagi yuklama qo'shimchalar imo-ishora nutqida kam qo'llaniladi. Imo-ishora nutqi egallash jarayoniga kar bolani so'zlashuv nutqini egallash darajasi ta'sir ko'rsatadi. Imo-ishora nutqi ham so'zlashuv nutqi shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi, lekin bu ta'sir salbiy ko'rinishga ega bo'ladi. Bazan yozma yoki og'zaki nutqda gap tuzish imo-ishora nutqidagi barcha nuqsonlarni o'zida ifodalaydi: gap bo'laklarini o'rnini almashib qolishi, so'zlarni grammatik

aloqasini buzilishi.

Shunday qilib, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni imo-ishora nutqi so'zlashuv nutqidan juda katta farq qiladi. Bu farq uning vazifasi, tarkibiy qismlari va mimikasiga ham xosdir. U asosan so'z va mimik belgini solishtirganda, gapdagi so'z bo'laklarini bu ikki turda nutq shaklida namoyon bo'lishida yaqqol ko'zga tashlanadi. Og'zaki nutqga nisbatan chegaralanganligi, takomillashmaganligiga qaramay imo-ishora nutqi kar shaxslari uchun asosiy muloqot qurolidir.

Pedagogik jarayonida imo-ishora nutqidan foydalanish ilk bosqichlarda yaxshi samara beradi. Lekin eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar maktabi ta'lim jarayonining bosh maqsadi ularning og'zaki nutqini shakllantirishdir. Quyida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar imo-ishora nutqi namunalari keltiriladi.

Kar bolada eshituvchi bolada mavjud bo'lmagan nutq shakllari imo-ishora nutqi, daktilologiya, labdan o'qish kabilar asosida shakllanadi va rivojlanib boradi.

Savol va topshiriqlar

1. Daktilologiya nima?
2. o'zbek daktil alifbosi harflarini ko'rsatib bering.
3. Daktil alifbosi necha xil guruhga bo'lib o'rganiladi?
4. Jestologiyaga asoslangan mimic belgilar necha turga bo'linadi?
5. Imo-ishorada gap qurulishi qanday tartibda bo'ladi?

ESHITISHDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARNI SHAXSINI O'RGANISHNING UMUMIY MASALALARI

Reja:

1. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar shaxsining rivojlanish bosqichlari.
2. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar bilan eshituvchi bolalar shaxsi rivojlanishi.

Tayanch tushunchalar: *shaxs, rivojlanish bosqichi, ideallik, muloqotchanlik*

Shaxs atrofdagi olamni, undagi xodisalarni faol anglovchi va qayta ishlovchi insondir. Shaxs jamiyatda o'z-o'ziga va boshqalarga nisbatan ma'lum pozitsiyada turuvchi, ma'lum qarashlar, fikrlar, ideallar tizimiga ega bo'lishi ko'zda tutiladi. Yangi tug'ilgan chaqaloq ijtimoiy mavjudot bo'lsa ham, uni shaxs deb bo'lmaydi. Bola shaxsi kattalar bilan muloqotda insoniyatning ijtimoiy tajribasini egallash jarayonida shakllanadi.

Kar bola shaxsining shakllanishi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Birinchidan, kar bola eshituvchi odamlar bilan muloqotda cheklangan bo'ladi, bu ma'lumotni egallash jarayonini sekinlashtiradi. Ikkinchidan eshitish analizatorining faoliyatini buzilishi emotsional rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan akustik olam (inson ovozi, qushlar sayrashi, musiqiy ovozlari) anglash imkonidan maqrum qiladi. Uchinchidan eshituvchi bolalardan farqli eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar insonlarning ijtimoiy tajribasini egallashdan maxrumdir. Maxsus bog'cha va maktablarga qadar eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar rivojlanishi sekin tempda amalga oshadi. Muloqot qiyinchiligi va eshituvchilar bilan muloqotining cheklanishiga ularning umumiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Xarakterning ayrim xususiyatlari, shaxs qirralari kabi maxsus tashkil etilgan ijtimoiy sharoitlarda amalga oshadi. Sog'lom odamlar ichida yashab kar bola eshituvchi

tengdoshlariga nisbatan o'zgacha munosabatni sezadi, bu unda shaxs qirralari shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

K.Obunovskiy tadqiqotlarida 80-130 sm dagi past bo'lyi odamlarning shaxs qirralarini shakllanish jarayoni o'rganiladi. Olim ularni shaxs qirralarini shakllanishda ma'lum darajadagi bir xillikni aniqladi, o'ziga xos bo'lmagan optimizmi, bevositalik, sharoitlarga chidamlilikni aniqlagan. Shuning uchun, tekshiruvchi atrofdagilar pakanaga boshqacha munosabatda bo'lganligi uchun unda shaxsning o'ziga xos qirralari shakllanadi deb xulosaga kelgan. Eshituvchi kattalar eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar maktab-interatidagi eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar quvnoqligi hayotga chanqoqligini ko'rib xayratga tushganlar. Ularning fikricha, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar o'z nuqsonidan uyalib, doimo xomush yurishlari kerak. Ma'lumki, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar o'z nuqsoni haqida kech biladilar, maxsus maktabdagi ta'lim-tarbiya jarayonida ularda kelajakka ishonch, faollik shakllanadi. Katta va o'rta sinf o'quvchilar eshituvchilar bilan o'zlari o'rtasidagi farqni toptirish uchun so'zlashuv nutqini egallashga juda intiladilar. Kar bola shaxsining rivojlanishini muammolari surdopsixologiyada to'liq tadqiq etilmagan, quyidagi bo'lim ushbu masala tadqiqiga qaratilgan.

Savol va topshiriqlar

1. Shaxs tushunchasi nima?
2. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda shaxs xususiyatlarini necha yoshdan shakllana boshlaydi?
3. Shaxs xususiyatlarini tekshirishga oid qanday metodikalarni bilasiz.
4. Shaxs rivojlantiruvchi metodikalarga nimalar kiradi.
5. Shaxsiyat va shaxs tushunchalari umumiylik va xususiyligini ayting.

ESHITISHDA NUQSONI BO'LGAN O'QUVCHILARNI KASBGA MUNOSABATI

Reja:

1. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar bilan kasb tanlashdagi qiyinchiliklar.
2. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar oldidagi kasblar tanlovi.
3. Kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirishda oila bilan hamkorlik.

Tayanch tushunchalar: kasb, hunarmandchilik, tanlov, mehnat.

Kar o'quvchilarda kasbga munosabat eshituvchi bolarlarga nisbatan erta shakllanadi. Bu maxsus maktab va kar bola ota-onali farzandlarini erta psixologik jihatdan kasbga tayyorlaydi. Shuning uchun yuqori sinf o'quvchilarida ko'p kasblarga nisbatan ma'lum munosabat shakllangan bo'ladi, ular kelajakda ishga joylashish haqida fikrlay boshlanadilar. Tadqiqotlarda kar o'quvchilarni turli kasblarga ijobiy va salbiy munosabati o'rganilgan tajribalar IV va VII sinf o'quvchilari bilan o'tkazildi. Bu tadqiqotda quyidagi metodlar qo'llanildi:

- ❖ Mehnat darslarini kuzatish;
- ❖ So'rov metodlari;
- ❖ "Men kim bo'lmoqchiman" mavzusida insho yozish;
- ❖ Aniq reja asosida individual suhbatlar.

Uy ishlari bo'yicha mashg'ulotlarda duradgorlik ishlarida o'quvchilarni kuzatish ularni ushbu kasbga munosabatini bilish imkonini beradi. So'rovnoma 25 kasb haqida savollar berilgan edi, ularni shartli ravishda uch turga tasniflash mumkin.

- Intellektual mehnat (injener, o'qituvchi, shifokor, artist).
- Jismoniy mehnat (tikuvchi, shofyor, durodgor).
- Xarbiy mehnat (uchuvchi, matros, chegarachi).

IV va VII sinf o'quvchilarni bu kasblarga turlicha munosabati namoyon bo'lgan. IV sinf kar o'quvchilari xarbiy

kasbga qiziqish bildirganlar. Ikkinchi o'rniga jismoniy mehnatni, uchinchi o'ringa intellektual mehnatni qo'yganlar. IV sinf o'quvchilari (26 %) nima uchun bu kasbni tanlaganlari sababini bilmaganlar. harakterli javob bera olmagan. IV sinf o'quvchilarining qolganlari o'zgacha javob berdilar. Ko'p bolalar (24%) kasbni tanlaganlarini sababi, bu kasbni osonligi uchun deb tanlaganlar. Ayrim bolalar (20%) kasb qiziqarli yoqimli bo'lgani uchun tanladik deb e'tirof etdilar. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning ba'zilari (13%) iqtisodiy jihatdan foydali kasbni tanlaganlar. Ba'zi bolalar kasbni xurmat qilish darajasiga ko'ra tanladilar. VIII sinf o'quvchilari tanlov motivlarini keng doirada izohladi. Ularda inson mehnatiga xurmat (19%), jamiyatga foyda keltirish (15%)ga ko'ra tanladilar. Ayrim sinf o'quvchilar shaxsining xislatiga ko'ra tanladilar: ular quyidagicha javoblar bayon etdilar "Shifokor uning chaqqon, oltin qo'llari bor", "o'qituvchi kasbi yoqadi. U mehribon sofdil inson. Men eshitmasam ham O'qituvchi bo'laman".

O'quvchilarni kasb tanlashi kasbning yengilligi (14%), uning foyda berishga ko'ra (4%), qiziqishlarga ko'ra (23%) ni tashkil etdi. VIII sinfning ayrim O'quvchilarni 6%i mehnat mazmuniga ko'ra tanlaganlarini aytdilar. Bir qator kasblarga nisbatan kar o'quvchilar salbiy munosabatda bo'lgani namoyon bo'ldi. V sinf o'quvchilariga nisbatan VIII sinf o'quvchilari tanlagan kasblarini ahamiyatga molik jihatlarini ko'rsatib berganlar. Bir vaqtni o'zida kar o'quvchilar bu mehnat faoliyatini bajarish uchun shaxsiy sifatleri yetarli ekanligini ham aniqlashga harakat qilganlar. Ular ma'lum kasblarni talab etilgan talablariga muvofiq qobiliyat o'zlarida yo'qligi sababli tanlay olmasligini ham gapirib o'tdilar.

Ma'lumki kichik yoshdagi kar o'quvchilar o'z nuqsonlari haqida bilmaydilar. Ular asta-sekin karlik boshqalar bilan muloqotnicheklashni tushunib boradilar. Eshituvanalizatorining hayotiy faoliyatda ular tomonidan kech tushuniladi. Ularni kasb tanlashga bo'lgan munosabatida bu holat yaqqol namoyon bo'ladi. Uchinchi sinfdagi eshitishda nusoni bo'lgan bolalar eshitishni talab qiluvchi kasblar (o'quvchi, chegarachi, shofyor)

ni tanlashdilar. Ular eshitish faoliyatini cheklanganligi kasb tanlashga to'sqinlik qilishini tushunib etmaydilar.

Yuqorida ko'rsatilgan so'z tajriba IV-VIII sinf o'quvchilari 25 kasbga o'z munosabatini bildirishi lozim edi, ulardan 10 tasi eshitish analizatori faoliyatini talab qiluvchi kasblardir. IV sinf o'quvchilari eshitish analizatori faoliyatini talab qiluvchi kasblarni inkor etdilar. Ko'p bolalar o'z nuqsonlari haqida bilmaganlar. o'z nuqsoniga munosabati faqat yuqori sinf o'quvchilarida tuzatilgan. VIII sinf o'quvchilari o'z nuqsoni haqida bilganlari, shu sababli tanlayotgan kasbga eshitish faoliyati pastligi va nutqning yo'qligi ta'sir qilishini bilganlar. VIII sinf o'quvchilari bilan "Kim bo'lishni ho'xlayman" mavzusidagi suhbatda eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar eshitishni talab qilmaydigan kasblarni tanlaganlar. Shu sababli VIII sinf o'quvchilari tanlagan kasblar V sinf o'quvchilari tanlagan kasblarga nisbatan o'zlarining bilimini va qobiliyatiga mos keladi. Ular agar eshitish qobiliyati mavjud bo'lganda ho'xlagan kasbini egallay olishlarini aytganlar: "Men eshitmayman, shu sababli eshitishni talab etmaydigan kasbni tanlay olishim kerak. Agar men eshitsam, uchuvchi kasbini tanlardim. Mening singlim aloqa institutida o'qiydi. Men shu kasbni tanlardim, lekin eshitmasligim uchun bu kasbni tanlay olmayman". Kuzatishlar ko'rsatishicha, yuqori sinf eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarini maktab ustaxonalarida tayyorlanadigan mutaxassislar doirasi qanoatlantirmaydi (tikuvchi, buyoqchi, oyoq kiyimlar tuzatuvchi). Shu sababli ular maktabda olgan bilimlariga tayangan holda boshqa kasb egasi bo'lishini orzu qiladilar. Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni umumta'lim tayyorgarlik darajasini o'rttirish bilan eshituv nazorati talab qilinuvchi yangi mutaxassisliklar tayyorlash imkoniyati beriladi. Eshitishda nusoni bo'lgan o'quvchilarni kasbiy tayyorgarligi amalga oshirishda eshitishda nusoni bo'lgan bolalarga nisbatan pedagogik munosabat ham muhim o'ringa egadir. Surdopedagog, tarbiyachi, ota-onalar eshitishda nusoni bo'lgan bolalarni kasb tanlash oldida turgan holatini, xoxishini yaxshi bilishi kerak. Har bir o'quvchi bo'lg'usi hayoti

va faoliyati, ular kelgusida ma'lum bir kasb egasi bo'lishi haqida tasavvurini shakllantirish muhimdir. Surdopedagog eshitishda nusoni bo'lgan o'quvchilarda kelajakda tanlaydigan kasbi ijodiy mehnat xursandchilik, quvonch, shodlik baxsh etishini tushuntirishi maqsadga muvofiqdir.

Savol va topshiriqlar

1. Qanday mehnat turlarini bilasiz?
2. Eshitishda nuqsoni bo'lgan shaxslar uchun qanday kasblar mos?
3. Qaysi vaqtdan boshlab eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar kasbga o'rgatila boriladi?
4. Kasb tanlashda oila bilan qanday hamkorlik masalalari olib boriladi.

ESHITISHDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARNING FAOLIYAT JARAYONINI O'ZIGA XOSLIGI

Reja:

1. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan faoliyat turlari.
2. O'yin faoliyati haqida ma'lumot.
3. Mehnat faoliyati haqida ma'lumot.
4. O'quv faoliyati haqida malumot.

Tayanch iboralar: faoliyat, jarayon, mehnat, o'yin, o'quv jarayoni.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar faoliyatida uni atrof-dagilarga faol munosabatni namoyon bo'ladi. Faoliyat ixtiyoriy xarakterli vositasida amalga oshiruvchi holatlardan tarkib topadi. Inson o'z xarakterlarini sezgi va idrok asosida nazorat qiladi. Shu sababli normal rivojlanuvchi bolada xarakter nazoratida katta rol eshitishga beriladi. Tovushlar, ovozlarni qabul qilib bola xarakterlarini bir ritmiligi, yaxlitligini nazorat qiladi. Bunday jarayonda eshituv va ko'ruv sezgisidan tashqari kinestetik sezgi-idrok muhim ahamiyat kasb etadi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bola o'z faoliyati, harakatlarini eshituv nazorati yo'qligi sababli aniq bo'lmaydi. Kar bola hayotida eshituvchi ma'lum darajada bosuvchi taktil-vibratsion sezgi rivojlanib boradi. Bola vibratsiyalarga ko'ra atrof olam haqidagi dunyo haqida bilimga ega bo'la boshlaydi. Shunday qilib, taktil-vibratsion nazoratga ko'ruv nazorat qo'shiladi. Bu kar bolaga o'z kinestetik sezgilarini to'liq anglashga yordam beradi.

Kar o'quvchilar oldiga qo'shilgan maqsad va uni amalga oshirish yo'llarini moslashtirishga qiyinaladilar. Ular maqsadga etishish sharoit va talablari mos taxlil qilishga qiyinaladilar, faoliyatni amalga oshirishni rejasiga ega bo'lmaydilar. To'siq va qiyinchilikka duch kelganda eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar ularni bartaraf etishga xarakter qilmaydilar. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar ayrim faoliyat turlarini faqat o'qituvchi

ko'rsatmasi yoki taqlid asosida amalga oshiradilar, chunki ular mustaqil xarakterlarni ketma-ketligi aniqlay olmaydilar. Xususan, amaliy ishlarda master faoliyatini kuzatib, kar bola uning xarakterlarini ketma-ketlikda bajara olmaydilar. Faoliyatni to'liq maqsadga qaratilmagani natijalarga tanqidiy yondashuvni yuzaga kelmasligiga olib keladi.

Kar o'quvchilarni ta'lim-tarbiyasida ularda ko'ruv, taktil-vibratsion va kinestetik nazoratni shakllantirishi talab etiladi. Bunday nazorat jismoniy, tarbiya, mehnat va rasm darslarida shakllantiriladi.

Kar o'quvchilar faoliyatini nazorat etib, o'qituvchi bolalar o'z faoliyatini anglanishni, ishning har bosqichida maqsad va usullarni moslashtirishni o'rgatadi. Kar o'quvchilarni o'z faoliyatini rejalashtirish va o'zini nazorat etishga o'rgatish muhimdir.

Kar bolaning predmet faoliyati.

Inson faoliyatining asosiy turi mehnatdir. Mehnat faoliyatni individual rivojlanishida boshqa faoliyat turlari tasniflanadi: predmetli, o'yin va o'quv faoliyat. Ishdan uch yilgacha bolaning asosiy faoliyati predmet faoliyat sanaladi. Xayotining 1 yilida bola qo'l xarakterlarni anglaydilar, predmetlar bilan takroriy xarakter bajaradilar. Eshituvchi bolaning ruhiy jarayonlarini shakllantirish, uni shaxsini rivojlantirish predmetli faoliyat asosida amalga oshadi, bunda nutqni rivojlantirish muhim o'rin to'radi. Predmetlar bilan xarakter kattalar boshchiligida, ular nazorati bilan amalga oshadi. Bu dastlabki kichik miqdordagi xarakterlar bo'ladi.

Kar bolalarni o'yin faoliyati.

Maktabgacha yoshdagi kar bolalarning asosiy faoliyati (3-7 yosh) o'yin faoliyati sanaladi. o'yinning xarakterli, didaktik va syujetli-rolli turlari tasniflanadi. Syujetli-rolli turlari tasniflanadi. Syujetli-rolli o'yin jarayonida Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar o'zlariga berilgan rollar asosida katta odamlar hayoti, ularning faoliyati va o'zaro munosabatini ifodalaydi. O'yin davomida atrof-olam haqidagi tasavvur aniqlanadi, chuqurlashadi, ularni bilimi kengayadi, qiziqishlari shakllanadi (xayvonlar, kitob, mehnat faoliyatiga qiziqish). O'yin jarayonida

bolalar ijtimoiy xulq qoidalarini egallaydilar. Syujetli-rolli o'yin jarayonida bola ijtimoiy tajribani anglaydi.

Syujetli-rolli o'yin bolani o'rganish vositasi sanaladi, xususan uyida bola o'z xususiyatlarini imkoniyatini ochib beradi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalareshituvchi bola singari barcha o'yin turlarini sevib o'ynaydi. Syujetli-rolli o'yinlar Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarva sog'lom bolalarda o'xshash xususiyatlarga ega bo'ladi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarsyujetli-rolli o'yinda kattalar faoliyati va o'zaro munosabati aks etadi. Bu jarayonda eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar o'ynaydi. Dunyoqarashni, dunyoni idrok etishni nutqiy muloqot chegaralanganligi sabali o'ziga xos bo'lgani uchun ularni syujetli-rolli o'yin faoliyati eshituvchi bolalarning o'yin faoliyatidan farq qiladi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar o'yinlari eshituvchi bolalarga nisbatan predmet protsessual darajada to'xtab turadi hamda juda sodda ko'rinishida bo'ladi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar o'yinida xaddan ortiq detalizatsiya, predmet xarakatlarini pedaktimi kuzatiladi.

Xarakatlarni o'yinda almashtirish bolalar nutqini rivojlanishi va shakllanishi bilan bog'liqdir. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarnutqini rivojlanmasligi sababli o'yin o'ziga xos ko'rinishga ega bo'ladi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarpredmetlarni almashtirishda qiyinchiliklarga uchraydilar. Kattalar qalamni qoshiq yoki kubikni dazmol o'rnida qo'llashni aytalar va bola buni amalga oshirsa, bu uni qalam bilan ovqat yeyishi va kubik bilan dazmol qilishni boshlaydi degani emas. Kar bola ko'p holatlarda kattalar tomonidan aytilgan predmet nomini nomlamaydilar, predmetning xususiyatlarini bevosita idrok etadilar.

Dunyoni idrok etishni chegaralanganligi eshituvchi idroki va izchilligi yo'qligi, untqiy muloqotni chegaralanganligi sababli kambaqal bo'ladi. Eshituv tasavvurlari yo'qligi ko'ruv idroki bilan to'ldirilmaydi, ko'ruv idroki atrof-olam haqida to'liq bilim bermaydi. Nutqni kech egallash tafakkur va tasavvurni rivojlanishida orqada qolishga sabab bo'ldai. Nutqiy rivojlanishdan orqada qolish tasavvur qilinayotgan o'yin sharoitini idrok etishni sekinlashtiradi.

Syujetli-rolli o'yin jarayonida umumiy va nutqiy rivojlanish darajasiga ko'ra murakkablashadi. Ular oddiy predmet xarakatidan inson o'zaro munosabat va sezgilarini tasvirlashga o'tadilar. Uning faoliyati pedagogik raxbarligiga bog'liq bo'ladi. Maxsus ta'lim jarayonida o'yin faoliyati o'zgaradi, turli mazmunga ega syujetli-rolli o'yinlar yuzaga keladi. Syujetli-rolli o'yinlar maktab yoshida ham saqlanib qoladi. O'quvchilarda turli qoidalarga ega intellektual o'yinlar katta o'ringa ega. Ba'zi o'yin usullari o'quvchilar o'quv faoliyatining asosiy qismi sanaladi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar o'quv faoliyati.

O'qish, o'quv faoliyati o'sib kelayotgan insonni mustaqil amaliy faoliyatga tayyorlaydi. Ta'lim – ikki tomonlama jarayonni ko'zda to'tadi: bilim beri shva egallash. Bilim egallash o'qituvchi raxbarligida amalga oshadi va o'quvchilarni ijodiy faoliyatini rivojlantirishga haratiladi. Kar bolalarni o'qitishda o'quv faoliyat va o'quv qiziqishlarini tarbiyalash katta kuch-quvvat talab qiladi, xususan kar bolada ta'lim olishning tor, chegaralangan motivlari bo'ladi. Bolalar faqat ota-onasini xafa qilmaslik uchun sinfdan obro'ga ega bo'lish, o'qituvchidan maqtov eshitish uchun ta'lim oladilar.

Asta-sekin eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar o'quv faoliyati mazmun va maqsadga muvofiqlik aksini oladi. Bu jarayonda bilim asosida nimalarga erishish mumkinligini namuna asosida ko'rsatish yaxshi natija beradi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar o'quv faoliyatini asosiy nuqsonlarida biri ular o'z oldiga qo'yilgan maqsadni anglay olmaydilar, mustaqil ishlash malakasiga ega bo'lmaydilar. Ta'lim o'quvchilarni mustaqil ta'limga tayyorlaydi. Maktab yoshida kar o'quvchilar xilma-xil faoliyat turiga ega bo'ladilar, ular navbatchilik qiladilar, to'garaklarga qatnashadilar, bog'larda ishlaydilar.

Psixologik tadqiqotlarda aniqlanishicha, kar bola yuqori maktab yoshigacha yagona tajriba, bilim va ommaviy malaka shakllanishida katta qiyinchiliklarga yuzaga keladi.

Kar bolalar shaxsini tushunish uchun yana ularning qiziqishlari, moyilliklari va qobiliyatlarini xarakterlash muhim. Maktabgacha yoshdagi va o'quvchi bolalarning qiziqishlari

N.G.Morozova tomonidan o'rganilgan.

Kichik maktab yoshida kar bolalarda turli o'yin va sport mashg'ulotlariga qiziqish va moyillik kuzatiladi (gimnastika, yugurish, sakrash va sh.k.). O'quv jarayoni asosan tashqi tomoni (sinf xonasida bo'lish, turli o'quv topshiriqlarini bajarish) bilan qiziharli. Bunda bolalar hamma o'quv fanlariga birday tirishqoqlik bilan munosabatda bo'ladi.

O'rta maktab yoshi boshlanishida o'quvchilar turli o'yin va sport mashg'ulotlariga moyillikni namoyon qilishda davom etadi. Bundan tashqari, kino, teatrdan bo'lish, rasm chizish, raqsga qiziqish yuzaga keladi. O'quv fanlariga differentsiatsiyalangan munosabat kuzatiladi. Kimdir matematikani, kimdir o'qish yoki mehnatni afzal ko'radi. Shu bilan birga, u yoki bu fanga qiziqish o'qituvchi va tarbiyachi shaxsi va faoliyati bilan bog'liq bo'ladi. Birlari mashg'ulotlari qiziqarliligi va har bir o'quvchi uchun tushunarli ekani tufayli butun sinfda, masalan, matematikaga qiziqish va moyillikni tarbiyalay oladi. Boshqalari, aksincha, qattiqqo'llik va formalizm bilan o'z mashg'ulotiga qiziqishni so'ndiradi.

13-15 va yiqiqa 16-18 yoshli kar o'quvchilarda adabiyot, geografiya, biologiyaga qiziqish ortadi, matematik fanlarga qiziqish kamayadi. Bu ko'proq tushunchali tafakkurning yetarlicha rivojlanmagani va boshlang'ich sinflarda matematika darslarida yo'l qo'yilgan kamchiliklar tufayli matematik bilimlarning kamligi tufayli algebra va geometriya kabi mavhum fanlarni o'rganishning qiyinligi bilan bog'liq.

O'quv faoliyati bilan uzviy o'zaro bog'liq to'garak ishlari yaxshi yo'lga qo'yilgan maxsus maktablarda o'quvchilarda tasviriy va amaliy - dekorativ, texnik ijodga qiziqish va moyillik shakllanadi. Ayrim o'quvchilarda mo'yqalam, rang tasvir, o'ymakorlik mashg'ulotlariga barqaror qiziqish yuzaga keladi. Ko'pchilik o'quvchilar, ayniqsa qizlar, badiiy buyumlar, kiyim tayyorlash, tikish, gipyur to'qish, gilamdo'zlikka qiziqishadi. har ikkala jins vakillari zo'r qiziqish bilan maketlar yasashadi (A.V.Melexina, Z.N.Latiy, M.Yu.Rau).

Maktablar ish tajribasini umumlashtirish ko'rsatadiki, pedagogning faoliyati bolalarda ijro malaka va ko'nikmalarini

va hamkorlikda original buyumlar yaratish malaka va ko'nikmalarini shakllantirishga haratilishi lozim. O'quvchilarga differentsiatsiyali yondashib, shu faoliyatga ko'pmi-kammi tayyorlanganlarini ajratib, har biriga kuchi yetadigan topshiriqlar berib, ularni mustaqillikka o'rgatish kerak (G.N.Penin).

Kar bolalarning qobiliyatlarini shakllantirish bola psizik rivojlanishi umumiy qonunlari bo'yicha kechadi. eshitishdagi kamchilik bolalar rivojlanishini faqat shu tomondan cheklaydiki, ularda eshitish qobiliyati yuqori darajada rivojlanishi asosida quriladigan (musiqiy, notqlik va sh.k.) qobiliyatlarni hakllantirib bo'lmaydi. Biroq nutqiy muloqotdagi qiyinchiliklar, tushunchali tafakkur rivojidagi sekinlanish barcha qobiliyatlarning shakllanishida jiddiy o'ziga xoslikni keltirib chiqaradi. Bu qobiliyatlarni yetarlicha psixik rivojlanmagan bo'g'inlarni to'ldiribgina rivojlantirish mumkin.

Kar bolalar bilan ishlaydiganlarning hammasidan (o'qituvchilar, tarbiyachilar, pedagoglar, ma'muriyat, ot-onalar) bu kabi nuqsoni bo'lgan bolalar psixik rivojlanishining o'ziga xosliklari va ularni kompensatsiyalash yo'llarini yaxshi tushunish, potentsial ko'p narsaga qodir bo'lgan har bir bolaga individual yondashuv talab qilinadi.

Karlarning mehnat, badiiy, ilmiy va pedagogik faoliyatning turli soqalarida erishgan katta-katta yutuqlari ularning qobiliyatlari va umuman psixikasi rivojlanishining keng imkoniyatlaridan dalolat beradi (A.P.Gozova va b.).

Savollar va topshiriqlar:

1. Qanday faoliyat turlari bilan tanishsiz?
2. Mehnat faoliyati nima?
3. O'yin faoliyatining afzalliklari nimada?
4. O'yin faoliyati samaradorligini oshirish yo'llari haqida gapirib bering.
5. O'quv faoliyati va o'yin faoliyatining bevosita aloqasi haqida gapirib bering.

SUDOPSIXOLOGIYA MAXSUS PSIXOLOGIYANING BO'LIMI SIFATIDA

Reja:

1. Maxsus psixologiya bo'limlari.
2. Surdopsixologiya bo'limi.
3. Surdopedagogika va surdopsixologiya o'zaro aloqadorligi.

Tayanch iboralar: *Psixologiya, surdopsixologiya, surdopedagogika, tarix*

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning psixik rivojlanish qonuniyatlari va shunday nuqsoni bo'lgan kattalar psixikasining xususiyatlarini maxsus psixologiyaning sohasi – surdopsixologiya o'rganadi.

Surdopsixologiya muammolarini sistemali ishlab chiqish XX asrning 30- yillarida boshlangan. Bu paytda L.S.Vigotskiy bolalarning normadan oqishgan psixik rivojlanish nazariyasini yaratgan. L.S.Vigotskiy birlamchi nuqson va uning bevosita (asoratlari) oqibatlarini (ikkilamchi nuqson) haqidagi tushunchani kiritdi. O'rganilayotgan toifa bolalarga nisbatan eshitish idrokining buzilishi birlamchi nuqson, normal bilan solishtirganda sekinlashgan va o'ziga xos rivojlanish esa ikkilamchi nuqson, yoki ikkilamchi oqibatlardir.

Avvalroq (XIX asr oxiri XX asr boshlarida) kar bolalar va kattalar psixologiyasining ayrim masalalari umumiy psixologiya va surdopedagogika, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitish va tarbiyalash haqidagi fan doirasida o'rganilgan.

XX asrning 30-70 yillarida va keyinroq eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar psixik rivojlanishi har tomonlama o'rganilgan. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning uchta guruhi aniqlangan: karlar (eshitishda chuqur nuqson bilan tug'ilganlar yoki ilk bolalagida eshitish qobiliyatini yo'qotganlar), keyin kar bo'lganlar (nutqni egallagandan keyin eshitish qobiliyatini yo'qotganlar), yaxshi eshitmaydiganlar,

ya'ni eshitish qobiliyatini qisman yo'qotganlar (R.M.Boskis, T.A.Vlasova va b.).

Ta'lim va tarbiyaning u yoki bu sharoitlarida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning psixik rivojlanish qonuniyatlari o'rganilgan, nutqning shakllanish, sezgi va idrokning, xotira, tasavvur va tafakkurning rivojlanish, shaxs qirralarining tiklanish bosqichlari kuzatilgan. (R.M.Boskis, L.V.Zankov, A.G.Zikeev, K.G.Korovkin, N.G.Morozova, M.M.Nudelman, T.V.Rozanova, I.M.Solovev, L.I.Tigranova, J.I.Shif, N.V.Yashkova va b.).

1930-1960 yillarda eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar psixikasining maktab yoshida rivojlanishiga aloqida e'tibor qaratilgan. 1950 yillardan eshitishda kamchiligi bo'lgan katta yoshlilarning psixik xususiyatlarini o'rganish muammolari (A.P.Gozova, V.N.Chulkov va b.), shuningdek maktabgachadan oldingi va maktabgacha yoshdagi bolalarning psixikasi rivojlanish muammolari (B.M.Korsunskaya, N.G.Morozova, A.A.Venger, E.I.Leongard va b.) ajratildi. Eshitishda murakkab nuqsoni bo'lgan, nafaqat eshitishda, balki u bilan bir qatorda boshqa birlamchi nuqsonga ega bo'lgan bolalar psixik rivojlanishini o'rganish 1970 yillarda yo'lga qo'yildi va keyinchalik keng tarqaldi S.A.Zikov, M.F.Titova, G.P.Bertin, M.S.Pevzner, T.V.Rozanova va b.). Murakkab nuqsonning bir varianti – eshitish va ko'rishning jiddiy buzilishi psixolog va pedagoglar tomonidan karlik kabi ancha ilgaridan, 1930 yillardan boshlab, maxsus yaratilgan ta'lim va tarbiya sharoitida (I.A.Sokolyanskiy, A.I.Meshcheryakov va b.) o'rganilgan.

Surdopsixologiya muamalarini ishlash bilan Evropa va AQSh olimlari (R.Konrad, X.Furt, E.Levin, R.Linder, X.Mayklbast, P.Oleron, Dj.Snayders, N.Snayders Omen, M.Templin, V.Tervort va b.) ham shuqullangan. Turli mamlakat tadqiqotchilari nafaqat e'lon qilingan va tugallangan ishlarni, balki tadqiqot ishlarini turli xalqaro anjumanlardagi uchrashuvlar, shuningdek tadqiqotchilik laboratoriyalarining bevosita muloqoti tufayli bu tadqiqotlar amalga oshirilayotgan jarayonda o'rganish imkoniga ega bo'lganlar.

Keyingi vaqtlarda surdopsixologiya Sharq mamlakatlarida (Yaponiya, Xitoy) jadal rivojlanmoqda.

Shunday qilib, kar bolalarda maktab yoshi davomida boshqa insonlarga munosabatlar ancha kengayadi va chuqurlashadi. Odatda, kar o'quvchi va bitiruvchilarning bu shaxslararo munosabatlarining rivojlanishiga; nafaqat ongliligi, balki ma'naviy xulqi yuksalishiga ham ko'maklashadi.

Biroq yaxshi ma'lumki, shaxslararo munosabat qonunlarini tushunish hamma vaqt ham har tomonlama axloqli shaxsning shakllanishini ta'minlayvermaydi. Bu muammo kar bolalar maktablari uchun ham ommaviy maktablar uchun ham bir xilda dolzarb. Bu muammoning yechimi nafaqat olimlar, psixologlar va sotsiologlar, balki amaliyotchi pedagoglardan ham katta mehnat talab qiladi.

Kar bolalarda shaxsning ma'naviy fazilatlarini tarbiyalashning umumiy yo'nalishi ular xulqining kattalar, sinfdoshlari, kattaroq bolalar tomonidan adolatla baqolanishi, bolalar uchun tushunarli tarzda nima uchun bu yaxshi, bu esa yomon ekanini tushuntirish; bolalarda ma'naviy xatti-harakatlarni uyqotish, ularga dastlab bunday xatti-harakatlarni bajarishda ko'maklashish, ularga undash va ularni jamoat tomonidan baqolanishi; o'qituvchi, tarbiyachi, maktabning butun katta yoshlilar jamoasining o'quvchilardagi ma'naviylikdan oqishgan biror xatti-harakatlarga sezgirligi, e'tibori, bunday xulqning asl sabablarini aniqlash, xulosa qilish va ayblashga shoshilmaslik, oiladagi sharoitni batafsil o'rganish, vrach-nevropatologga murojaat qilish va undan keyin o'quvchiga jamoaviy ta'sir haqida haror qilish, bu ta'sir xarakterini aniqlashdan iborat.

Savol va topshiriqlar

1. Maxsus psixologiya nimani o'rganadi?
2. Surdopsixologiya o'rganish nima uchun kerak?
3. Surdopedagogika va Surdopsixologiyani o'rni.

MAVZULAR BO'YICHA TEST SAVOLLARI

1. Surdopsixologiya fani nimani o'rganadi?

- a) Aqli zaif bolalarning ruhiy rivojlanishidagi umumiy xususiyatlarini;
- b) Ko'zi ojiz bolalarning ruhiy rivojlanish xususiyatlarini;
- c) Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning ruhiy rivojlanishidagi umumiy va maxsus xususiyatlarini;
- d) Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar diqqatini.

2. Surdopsixologiya fanining vazifalari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- a) Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar xotirasini o'rganish;
- b) Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar bilish jarayonlarini o'rganish;
- c) Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar ruhiyatining rivojlanishidagi umumiy va xususiyl tomonlarini normal eshituvchi bolalar bilan nisbiy tarzda o'rganish;
- d) Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar bilish jarayonlarining rivojlanish xususiyatlarini o'rganish va aniqlash, ular shaxsining shakllanishidagi pedagogik ta'sir etishning samarali yo'l va usullarini psixologik asoslab berish.

3. Eshitish analizatori necha qismdan iborat?

- a) 2 qism-tashqi va ichki;
- b) 1 qism-ichki;
- c) 3 qism-tashqi, o'tkazgich, markaziy;
- d) 4 qism-tashqi, o'rta, ichki va markaziy.

4. Eshitish qoldiqi qanday asbob yordamida o'lchanadi?

- a) Termometr;
- b) Barometr;
- c) Fonendoskop;
- d) Audiometr.

5. Zaif eshituvchilar qanday o'lchov birligida o'lchanadi?

- a) Gts;
- b) Db;
- c) Sg;

d) Sm.

6.Karlar qanday o'lchov birligida o'lchanadi?

- a) So;
- b) Db;
- c) Gts;
- d) Mm.

7.Ovoz kuchaytirgich apparatlar necha xil bo'ladi?

- a) Faqat qavo orqali o'tkazuvchi;
- b) havo orqali va suyak orqali o'tkazuvchi;
- c) Faqat suyak orqali o'tkazuvchi;
- d) Faqat individual.

8.Zararlanish sabablarini necha guruhga bo'lish mumkin?

- a) Nasliy;
- b) Orttirilgan;
- c) Jaroqat natijasida orttirilgan;
- d) Tug'ma, orttirilgan, nasliy.

9.Qanday qollarda karlik yuz beradi?

- a) quloq suprasining tug'ma rivojlanmasligi;
- b) Otit bilan oqrishi natijasida;
- c) Ichki quloq va eshituv nervining bir qismi zararlanganda;
- d) Tashqi quloq zararlanganda.

10.Qanday kasalliklar eshitishning buzilishiga olib keladi.

a) Meningit, entsefalit, qizamiq, surunkali quloq shamollashlari, yuqumli geppatit, ota-onalarning nasliy kasalliklari, bosh miya jaroqatlanishi;

- b) Giyohvandlik;
- c) Surunkali alkagol moddalarini iste'mol qilish;
- d) Gripp.

11.Surdopsixologiya faniga qissa qo'shgan olimlar qatorini ko'rsating.

- a) D.Veksler, V.Lubovskiy, Podobed.
- b) F.Rau, R.M.Boskis, S.A.Zo'kov, A.Dyachkov;
- c) P.Petrovskiy, E.Goziev;
- d) G.Shoumarov, N.Soginov.

12.Kompensator sezgilarga qaysi sezgilar kiradi?

- a) hid bilish sezgisi;
- b) Ta'm bilish sezgisi;
- c) Ko'rish va teri-taktil sezgilari;
- d) harakat va hid bilish sezgilari.

13.Teri-taktil sezgisi o'z navbatida qanday sezgilarga bo'linadi?

- a) Organik va harakat;
- b) Ko'rish va eshitish;
- c) Vibratsion va kinestetik;
- d) Ta'm bilish va hid bilish.

14.Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning o'qitishning tayyorlov davrida qaysi nutq yetakchilik qiladi?

- a) Imo-ishora;
- b) Daktil;
- c) Og'zaki;
- d) Yozma.

15.Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda tafakkurini qaysi turini rivojlantirish zarur?

- a) Ko'rgazmali-obrazli, so'z mantiq;
- b) So'z-mantiq;
- c) Ko'rgazmali-harakat;
- d) So'z mantiq, ko'rgazmali-harakat.

16.Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni diagnostika qilishda asosiy tasnif mezonlarini ko'rsating.

- a) Kar yoki zaif eshituvchi ekanligini aniqlash;
- b) Audiometr orqali aniqlash;
- c) Eshitishni yo'qotgan vaqti; eshitishni yo'qolish darajasi; nutqning rivojlanganligi darajasi, kar yoki zaif eshituvchi ekanligini aniqlash;
- d) Muassasalarga yuborish.

17.Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar muloqotga kirish uchun ko'proq qanday vositalardan foydalanadilar?

- a) Daktil, labdan o'qish, imo-ishorali nutq;
- b) Og'zaki, daktil;

- c) Yozma, og'zaki;
- d) Daktil, yozma.

18. Meyorida eshitadigan 1-3 oylik bolaning ovozga reaksiyasi qanday bo'ladi?

- a) Reaksiya qilmaydi;
- b) Emishdan to'xtaydi, cho'chiydi, ko'zini pirpiratadi, ovoz manbaiga ko'zini va quloqini haratadi;
- c) Ko'zini yumadi;
- d) Barcha javoblar to'g'ri.

19. Bilish jarayonlari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- a) Tafakkur, intellekt, xotira;
- b) Sezgi, idrok, tafakkur, ong;
- c) Sezgi, idrok, diqqat, xotira, tasavvur, tafakkur, nutq;
- d) Bilim, faoliyat, tafakkur, ong.

20. Zaif eshituvchilar karlardan nimasi bilan farq qiladi?

- a) Mustaqil nutq egallay olishi;
- b) Mustaqil nutq egallay olmasligi;
- c) Tafakkuri;
- d) Intellekti.

21. Daktil alifbosi qachon va kim tomondan yaratilgan?

- a) 9 asr, I.M. Solovev, J.I. Shif;
- b) 16 asrda, Dj. Karden, P. Ponse, X. Bonet;
- c) 19 asr M. Filleri;
- d) F. Rau 20 asr.

22. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar so'zlashuv nutqini rivojlantirishda qanday vositalardan foydalaniladi?

- a) *Ko'rgazmali qurollar, zond, shpatel, ovoz kuchaytirgich apparat;
- b) Kartochkalar;
- c) o'yinchoklar;
- d) Teri-taktil orqali.

23. Eng past absolyut eshitish chegarasi necha Gts ga teng.

- a) *20 Gts;
- b) 16 Gts;
- c) 32 Gts;
- d) 80 Gts.

24. Yuqori eshitish chegarasi necha Gts ga teng?

- a) *2000 Gts;
- b) 110 Gts;
- c) 35000 Gts;
- d) 500 Gts.

25. Eshitishning buzilishi vaqtiga ko'ra eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni necha guruhlariga bo'lish mumkin?

- a) Tug'ma nutqi buzilganlar; nutqi rivojlana boshlanguncha eshitishni yo'qotganlar; nutqi rivojlanishning ilk davrlarida yo'qolishi; nutq shakllanib bo'lgach eshitishning yo'qolishi;
- b) 1-3 yoshgacha davrda eshitishni yo'qotganlar;
- c) 6-7 yosh davrida eshitishni yo'qotganlar;
- d) 1-yoshgacha eshitishni yo'qotganlar.

26. Teri-taktil sezgisi o'z navbatida qanday sezgilarga bo'linadi?

- a) Organik va harakat;
- b) Ko'rish va eshitish;
- c) Vibratsion va kinestetik;
- d) Ta'm bilish va qid bilish;

27. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar og'zaki nutqini rivojlantirishda qaysi sezgilarga tayanamiz?

- a) Muvozanat va eshitish sezgisi;
- b) Eshitish va qid bilish sezgisi;
- c) Vibratsion va kinestetik sezgi;
- d) harakat va ko'rish sezgilari.

28. Kompensatsiya - bu ...

- a) Kamchiliklarni tuzatish;
- b) Nuqsonli a'zolar faoliyatini sog'lom a'zolar orqali to'ldirish;
- c) Kamchiliklarni bartaraf etish;

d) Tibbiy preparatlar yordamida tuzatish.

29. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda berilgan materiallar uzoq muddatli xotirada qanday eslab qolinadi?

- a) Ko'rish va eshitish orqali;
- b) Materiallarni assotsiativ tarzda bergan holda;
- c) Daktil orqali berilgan holda;
- d) Og'zaki tushuntirilgan holda.

30. Dars jarayonida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar diqqatining bo'linmasligi uchun surdopedagog qanday qoidalarga amal qilishi zarur?

- a) Daktildan foydalanmasligi;
- b) Sinfga yuzi bilan qaragan holda dars o'tishi, imkon qadar yurmasdan tushuntirish, ko'rgazmali qurollardan ko'proq foydalanish;

- c) Faqat ko'rgazmali qurollardan foydalanish;
- d) Barcha javoblar to'g'ri.

31. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda nutqning rivojlanishi xususiyatlarini o'rgangan olimlar qatorini ko'rsating.

- a) A.Zikov, V.Yakubovskiy;
- b) F.Rau, I.Shif, I.Solovev, R.Boskis, T.Rozanova, N.Morozova;
- c) Petrovskiy, V.Zankov;
- d) V.Lubovskiy, Galperin.

32.1-darajali zaif eshituvchilik necha diapozonni tashkil etadi?

- a) 90 db;
- b) 50 db;
- c) 60 db;
- d) 70 db.

33. O'rta quloqning yalliqlanishi qanday nuqsonni keltirib chiharadi?

- a) qech qanday;
- b) Zaif eshituvchilik va karlikni;
- c) Aqli zaiflikni;
- d) Ko'rish nuqsonini.

34. Normal eshitadigan bolalar nutqi nimaga ko'ra shakllanadi?

- a) Ko'ruv sezgisi;
- b) Eshituv idroki va taqlid;
- c) Teri-taktil sezgisi;
- d) Taqlid.

35. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda daktil nutqini rivojlantirishdan maqsad nima?

- a) Og'zaki nutqini rivojlantirish;
- b) Ongini rivojlantirish;
- c) Ko'ruv idroki va diqqatini rivojlantirish;
- d) Xotirasi va idrokini rivojlantirish.

36. Normal eshitadigan bolada og'zaki nutqning shakllanishi necha yoshga to'g'ri keladi?

- a) 1 yoshga;
- b) 3-4 yoshga;
- c) 5 yoshga;
- d) 6-7 yoshga.

37. Maktabgacha yoshdagi bolaning asosiy faoliyati nimadan iborat?

- a) Aqliy faoliyatdan;
- b) *o'yin faoliyatidan;
- c) Jismoniy faoliyatdan;
- d) Estetik tarbiya faoliyatidan.

38. «Kompensatsiya» so'zining ma'nosi qanday?

- a) To'ldirish, o'rnini bosish, yuklash;
- b) To'qirlash, yumshatish;
- c) Yo'lga qo'yish, moslashish;
- d) hayotga tayyorlash.

39. «Korreksiya» so'zi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- a) To'ldirish;
- b) *To'qirlash;
- c) Yo'lga qo'yish;
- d) Yumshatish.

40. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar ruhiyati bilan

qaysi mutaxassis shuqullanadi?

- a) Surdopedagog;
- b) Surdopsixolog;
- c) Okulist;
- d) Oligofrenopedagog.

41. Birlamchi nuqson oqibatida qanday kamchiliklar kelib chiqadi?

- a) Idrokni buzilishi;
- b) Tafakkur faolligini pasayishi;
- c) Nutqiy kamchiliklar;
- d) Barcha ruhiy jarayonlar.

42. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar tasavvur jarayonlari qanday kechadi?

- a) Passiv;
- b) Faol;
- c) Fragmentar;
- d) Verbal.

43. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda o'z-o'ziga baqo berish qanday?

- a) Salbiy;
- b) Ijobiy;
- c) qoniqarli;
- d) Yuqori.

44. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda tuyush qanday amalga oshiriladi?

- a) Barmoqlar orqali faol;
- b) Eshitish orqali;
- c) Oyoqlar harakati orqali;
- d) Taktil vibiratsion sezgilar orqali.

45. Surdopsixologiya metodlari qaysilar?

- a) Kuzatish, anketa, suhbat;
- b) Test, eksperiment, suhbat, kuzatish;
- c) Bolalar faoliyati maqsulini o'rganish metodi;
- d) Siyoq doqlari, Tangram.

46. «Reabilitatsiya» degani ...

- a) To'g'rilash, yo'lga qo'yish;
- b) Yumshatish, moslashish;
- c) hayotga tayyorlash, qayta tiklash;
- d) Cheklash.

47. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda faoliyat me'yordan qanday kechikadi?

- a) *2-3 yilga;
- b) 5-6 yilga;
- c) Kechikmaydi;
- d) 1-2 yilga.

48. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar qanday yozuvdan foydalanadi?

- a) Daktil yozuvlari;
- b) Ommaviy yozuvdan;
- c) Brayl shrifti yozuvi;
- d) Umuman yozmaydi.

49. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar ruhiyati qanday o'rganiladi?

- a) Adabiyotlar orqali;
- b) Texnika orqali;
- c) Diagnostik metodlar orqali;
- d) Meditsina orqali.

50. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda qanday qobiliyat ko'proq rivojlanadi?

- a) Matematik;
- b) Musiqiy;
- c) Sport;
- d) haykaltaroshlik.

51. Psixokorreksiya atamasi qanday ma'noni bildiradi?

- a) Ruhiyatni o'rgatish;
- b) Ruhiyatni tekshirish;
- c) Psixik jarayonlarni to'qirlash;
- d) Ruhiyatni to'ldirish.

52. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda qayol xususiyatlari qanday yuz beradi?

- a) Tor doirada;
- b) Keng doirada;
- c) Cheklangan;
- d) Nuqsondan kelib chiqib.

53.Qaysi uslubiyat bilan eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning ko'rgazma, harakat, tafakkurini tekshirish mumkin.

- a) Syujetli rasmlar;
- b) Segen doskasi;
- c) Klinets;
- d) Koss metodikasi.

54.Sezgi va idrok tushunchalariga izoq bering.

a) Moddiy olamdagi narsa va qodisalarning sezgi a'zolarining bevosita ta'sir qilish jarayonida kishi ongida aks etishi;

- b) Inson bilish faoliyatining eng yuqori darajalari;
- c) Maxsus ob'ektlarni o'rganadigan protsesslar;

d) Tajribada bo'lib o'tgan voqea qodisalarini qabul qilib saqlab qoladigan jarayonlar.

55.Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda nutq kamchiliklari kelib chiqish sabablarini ko'rsating.

- a) Ko'ruv analizatori funksiyasining buzilishi;
- b) Artikulyatsion apparat funksiyasining buzilishi;
- c) Eshitish analizatori funksiyasining buzilishi;

d) Bosh miya funksiyasining sust rivojlanishi natijasida barcha yoki alohida analizatorlarga salbiy ta'siri.

56.Qanday maqsadlarda bolalar nutqini tekshirayotganda ma'lum bir mavzu yoki ma'lum bir rasm asosida suhbatlar o'tkaziladi.

- a) Passiv lug'atni aniqlash uchun;
- b) Aktiv lug'atni aniqlash uchun;
- c) Nutqning grammatik tuzilishini aniqlash uchun;

d) Ishlatilayotgan so'zlar mohiyatini to'liq va adekvatligini tekshirish uchun.

57.Idrokni tekshirishda qo'llaniladigan eng oddiy metodni ko'rsating.

- a) Berilgan syujetli rasmlarning mazmunini aytib berish;
- b) Syujetli rasm asosida savollar tuzish;
- c) Syujetli rasm mavzusiga oid she'r aytib berish;
- d) Syujetli rasmda ifodalangan predmetlarni aytib berish.

58.Tafakkur tushunchasiga izoq bering.

a) Moddiy olamdagi predmetlarini sezgi organlarga ta'sir etish jarayonida inson ongida aks etishi;

- b) Borliqni umumlashgan shaklda bilish;
- c) Ma'lum bir ob'ektlarini o'rganuvchi protsess;

d) Tajribada bo'lib o'tgan voqea-qodisalarini qabul qilib saqlab qoladigan ruhiy jarayon.

59.Tafakkurning qaysi bir xususiyatlari eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarga xosdir.

- a) Mantiqiy qarash;
- b) o'z-o'ziga tanqidiy qarash;
- c) Notanqidiy qarash;
- d) Fragmentar qarash.

60.o'qituvchining o'quvchilar jamoasi bilan tanishish yo'llari.

- a) Meditsina ma'lumotlari;
- b) Ota-onalar bilan suhbat;
- c) Suhbat va bolani kuzatish;
- d) Barcha javoblar to'g'ri.

61.Eksperiment vazifalarini bajarish yordam usullari.

a) harakatlarini ma'qullash va raqbatlantirish, bola o'rniga vazifani bajarish;

b) Maslaqat, yordam berish, raqbatlantirish;

c) Yo'naltiruvchi savollar, tanqidiy fikrlar, bola o'rniga vazifani bajarish;

d) Maslaqat, yordam berish, yo'naltiruvchi savollar, tanqidiy fikrlar.

62.Birlamchi nuqson deganda nimani tushunasiz.

- a) Nutq kamchiliklari;
- b) Bilish jarayonlarini pasayishi;
- c) Eshitishni pasayishi;
- d) Bosh miyaning organiq jaroqatlanishi.

63. Zaif eshituvchi bolalarning ikkinchi guruhiga qanday bolalar kiradi.

- a) Sog'lom bolalar;
- b) Imbetsil bolalar;
- c) Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar;
- d) Kech kar bo'lgan bolalar.

64.O'z-o'zini baqolash jarayoni qaysi metodikalar bilan o'rganish mumkin.

- a) Piktogramma;
- b) Vekler uslubi;
- c) Dembo-Rubinshteyn S.Ya.;
- d) Segen taxtachasi.

65.Mehnat ta'limi davomida idrokning qaysi turi amalga oshiriladi.

- a) Sezgi, kinestetik;
- b) Ko'ruv;
- c) Eshituv;
- d) hamma javoblar to'g'ri.

66.Voqealar ketma-ketligi uslubiylatining maqsadini aniqlang.

a) Bolalarda fikrlash doirasini, ularning voqealarning o'zaro bog'liqligini tushuna olish, to'g'ri xulosa chihara olish malakasini aniqlash;

- b) Analiz va sintez malakalari xususiyatlarini o'rganish;
- c) Umumlashtirish ko'nikmasini aniqlash;
- d) Og'zaki va yozma nutqning o'ziga xos xususiyatlari, tekstlarni tushunish va eslab qolish malakasini aniqlash.

67.Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar psixologiyasi o'quv ma'ruzasining mualliflari.

- e) P.Pulatova, A.Sagatov;
- f) K.Mamedov, Z.Maxmudova;
- g) A.Smirnov;
- h) M.G.Davleti, E.Rogov.

68.Tadqiqot metodlaridan qaysi biri barcha fanlarda eng samarali metod hisoblanadi.

- a) Tajriba;

- b) Kuzatish;
- c) Suhbat;
- d) To'g'ri javob yo'q.

69.Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar idrokning o'ziga xos xususiyatlaridan birini ko'rsating.

- a) Ko'rgazmali-harakat;
- b) Noaniqlik;
- c) Segen;
- d) So'z-mantiq.

70.Idrok rivojlanganligini aniqlaydigan uslubiylat.

- a) Syujetli rasmlarni tushuntirish;
- b) Koos uslubiylati;
- c) Shulte jadvali;
- d) Segen taxtachasi;

71.Nutqning rivojlanmaganligi nima bilan bog'liq bo'lishi mumkin?

- a) Ko'ruv analizatori;
- b) Eshituv analizatori;
- c) Sezgi analizatori;
- d) To'g'ri javob yo'q.

72.Analiz va sintez malakalari xususiyatlarini aniqlash uchun qaysi uslubiylatdan foydalaniladi.

- a) Rahamlarni qaytarish;
- b) Tushunchalar orasida o'xshashlikni topish;
- c) Voqealar ketma-ketligi;
- d) Dembo-Rubinshteyn.

73.Tafakkurni o'rganuvchi uslubiylatni aniqlang.

- a) Predmetlarni taqqoslaganda farqlanish metodikasi;
- b) Kodlash;
- c) Koos uslubiylati;
- d) To'g'ri javob yo'q.

74.Maxsus maktab o'quvchilarining ko'rgazmali tafakkur xususiyatlarini kim o'rgangan.

- a) L.Vigotskiy;
- b) J.Shif;

- c) K.Mamedov;
- d) K.Levina.

75.Bolalar tafakkurining rivojlanishida qanday malaka va ko'nikmalar etishmaydi.

- a) Ko'rgazmali va eshituv tasavvurlarining kambaqalligi;
- b) O'yin tajribasining chegarasining chegaralanganligi, nutqning yaxshi rivojlanmaganligi;
- c) Predmetli harakatlar bilan yaxshi tanish emasligi;
- d) hamma javoblar to'g'ri.

76.Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda nisbatan yaxshi rivojlangan tafakkur turi.

- a) Mantiqiy;
- b) Ko'rgazmali-obrazli;
- c) Ko'rgazmali-harakat;
- d) hamma javoblar to'g'ri.

77.Tanlab eslab qolish nima?

- a) Bolalar eslab qolish oson bo'lgan narsalarni eslab qoladilar;
- b) Berilgan gapdan o'qituvchi aytgan so'zlarni eslab qolish;
- c) Xotirani mustaqamlash;
- d) Barcha javoblar to'g'ri.

78.Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda idrokning qaysi turi ko'proq buzilgan.

- a) Ko'ruv va ta'm bilish;
- b) Eshituv va kinestetik;
- c) Eshituv va vibratsion;
- d) To'g'ri javob yo'q.

79.Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning diqqatni o'rganadigan uslubiyatni ko'rsating.

- a) Korrektur sinov;
- b) Koos kubiklari;
- c) Pochta qutisi;
- d) Piktogramma.

80.Surdopsixologiya fanining metodologik tamoyilini ko'rsating.

- a) Determinizm;
- b) Dialogtignost;
- c) Onglilik;
- d) Rivojlanish.

81.Qaysi printsipga ko'ra, ong-inson xulq-atvorini, xatti-harakatini va faoliyatini boshharuvchisidir deb e'tirof etiladi.

- a) Determinizm;
- b) Rivojlanish;
- c) Komplekslik;
- d) Ong va faoliyat birligi.

82.Qaysi printsip klinik-psixologik-pedagogik ta'sirning yagona majmuasini ifodalaydi.

- a) Determinizm;
- b) Rivojlanish;
- c) Komplekslik;
- d) Ong va faoliyat birligi.

83.Surdopsixologiya qaysi fanlar bilan aloqada rivojlanadi.

- a) Maxsus psixologiya maxsus pedagogika, nevropatologiya;
- b) Defektologiya, tibbiy fanlar, maxsus psixologiya;
- c) Maxsus psixologiya, umumiy psixologiya, bolalar va yosh psixologiyasi;
- d) Psixologik, pedagogik va tibbiy fanlar majmuasi.

84.Surdopsixologiyaning predmeti:

- a) Tug'ma yoki ortirilgan nutq nuqsoniga ega bolalar;
- b) Nutq nuqsoniga ega bolalarni psixik rivojlanishi qonuniyatlari, psixik jarayonlarni namoyon bo'lishi;
- c) Kar va zaif eshituvchi bolalar;
- d) Nuqsonli bolalar.

85.Bola faoliyati maqsuli, bolalar chizgan rasmlar, applikatsiya, turli o'yinchoqlar yasagan narsalari, ular tomonidan yozilgan she'r va ertaklar qaysi metod yordamida o'rganiladi.

- e) Kuzatish metodi;

- f) Produktiv faoliyatni taqlil metodi;
- g) Tabiiy eksperiment va laborator metod;
- h) Sotsiometriya.

86.Qaysi metod orqali shaxslararo munosabat, bolalarni guruhdagi o'rnini o'rganish mumkin.

- a) Kuzatish metodi;
- b) Produktiv faoliyatni taqlil metodi;
- c) Tabiiy eksperiment va laborator metod;
- d) Sotsiometriya.

87.Nutqning funksiyalarini to'g'ri ko'rsating.

- a) Kommunikativ, emotsional, bilish;
- b) Kommunikativ, bilish, boshharish;
- c) Bilish, boshharish, mimikali;
- d) Imo-ishora, daktil, so'zlanishi.

88.Eshitishda nuqsoni mavjud bolalarning eshituv xotirasi xususiyatlari.

- a) Deyarli me'yorga to'g'ri keladi;
- b) Sezirlarsiz me'yordan farq qiladi;
- c) Umumiy pasayishi kuzatiladi;
- d) To'g'ri javob yo'q.

89.Bolalarda eslab qolishning nisbatan saqlanib qolishi

- a) Obrazli;
- b) Mantiqiy;
- c) Obrazli hamda mantiqiy;
- d) Barcha javoblar to'g'ri.

90.Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning xotira buzilishlari..... bog'liq.

- a) Nutq buzilishi xususiyatlariga;
- b) Miya yarim shar dominatligi tipiga;
- c) Ruhiy rivojlanish darajasiga;
- d) Barcha javoblar to'g'ri.

MUSTAQIL TA'LIM UCHUN KEYSLAR:



1 KEYS: Tasavvur qiling, Eshitishda yoki boshqa rivojlanishdagi nuqsoni bor inson bilan quidagi vaziyatlarga tushib qolganingizda nima qilgan bo'lar edingiz?



2 KEYS. Dars jarayonida sizning farzandizgiz, ukangiz, singlingiz bilan birga eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar dars jarayoniga qatnashmoqda, sizning harakatingiz va sababi.

- ❖ Menga farqi yoq;
- ❖ Birga o'tirishini xoxlayman
- ❖ Yoq, sababi diqqati buziladi
- ❖ Meni Boshqa sababim bor.
- ❖

PSIXOGEOMETRIK TEST



Ko'rsatma: yuqorida ifodalangan beshta shaklga qarang. Siz quyida berilgan shakllarni birini tanglang, faqat xech qanday mantiqiy tahlil va keraksiz aqliy xarakatlar bilan siz o'zingizni shaklingizni xis qilishga xarakat qiling. Agar juda qiynalyotgan bo'lsangiz, shakllar ifodalangan varaqni kuzatganingizda

birinchi bo'lib sizning diqqatingizni jalb qilgan shaklni tanlang. Bu shaklning nomini birinchi raqam bilan yozib quying. Endi qolgan to'rtta shaklni ushbu tartibda o'zingizga ma'qulligi asosida uylaringizga joylashtirib chiqing. Marxamat, uzoq o'ylamasdan bu ishni amalga oshiring.

Agar qiynalsanigiz quyidagi strategiyadan foydalaning: tasavvur qilingki qolgan to'rtta, keyin 3 ta keyin 2 ta shakl orasidan o'zingiz tanlashingiz kerak. Biz tajribaning boshidanoq sizga beshta emas, balki to'rtta, uchta shakl taklif etishimiz xam mumkin edi-ku. Oxirida qolgan, ya'ni nomini siz beshinchi raqam bilan belgilab qo'yadigan shakl, yaqqol sizniki bo'lmagan, ya'ni sizga to'g'ri kelmagan shakl bo'ladi.

Ishning birinchi, eng og'ir bosqichi yakunlandi. Oldingizda sizning sub'ektiv intilishingiz aks etgan geometrik shakllarning tartibli qatori turibdi. Siz birinchi o'ringa qaysi shaklni qo'yganingizdan qat'iy nazar bu sizning asosiy shaklingiz, yoki sub'ektiv shaklingiz. Aynan shu sizning xarakteringizda va xulq-atvoringizdagi asosiy, ustun belgi va xususiyatlarning o'zida aks ettiradi, sizning xulq-atvoringizdagi yetakchi oxangni bezab turadigan o'rin egallab, uning xususiyatlari ortib borishi bilan pasayib boradi. Agarda ikkinchi o'rinda turgan shaklning ayrim xarakteristikalarini siz o'z xulq-atvoringizda ko'rishingiz mumkin bo'lsa, oxirida beshinchi o'rinda turgan shakl siz yaqqol o'zingizda bo'lmagan (o'zingizga yoqmay turgan) vaqtingizda namoyon bo'ladi. Oxirgi shaklning boshqacha axamiyati siz uchun muximroq – u sizga o'zaro munosabatga kirishishingiz eng qiyin kechadigan odamning shaklini ko'rsatadi (ishonchimiz komilki, siz psixogeometrik test yordamida bu qiyinchiliklarni muvaffaqiyat bilan bartaraf etasiz). Keling, endi psixogeometrik testni tushunish bilan shug'ullanamiz.

Shaxs asosiy shakllarining qisqacha tavsifi.

Kvadrat. Agar sizning asosiy shaklingiz bo'lsa, demak – siz xormas-tolmas mexnatkashsiz! Mexnatsevarlik, tirishqoqlik, boshlangan ishni oxiriga yetkazishga bo'lgan extiyoj, ishini tugallashga erishishga imkon beradigan qat'iyatlilik – bular

xaqiqiyiy. Kvadratlarni mashxur qiladigan narsalardir. Chidamlilik, toqat va ishni ko'zini bilishlik odatda Kvadratlarni o'z soxasida yuqori malakali mutaxassis bo'lishini ta'minlaydi. Kvadratlarda emotsiyaga nisbatan juda kuchli extiyoj mavjud. Ular turli-tuman ma'lumotlarning kolleksionerlari xamdirlar. Chunonchi bu kolleksiya qayerda – miyadami yoki maxsus kartotekadami saqlanishdan qat'iy nazar, u juda tartibli saqlanadi. Barcha ma'lumotlar sistemalashtirilgan, javonlarga ajratilgan. Kvadrat zarur informatsiyani shu zaxotiyoq bera oladi. Shuning uchun xam Kvadratlarni xaqli ravishda erudit (juda bo'lmaganda o'z soxasida) deb xisoblashadi.

Fikriy taxlil – Kvadratning eng kuchli tomonidir. Agar siz o'zingiz uchun To'g'ri chizikli shakl bo'lmish Kvadratni qat'iy tanlagan bo'lsangiz demak – shu narsa aniq-ki, siz fikrlovchilar, informatika tili bilan aytganda informatsiyalarni: a-b-v-g va xokazo ketma-ketlikda qayta ishlovchilar toifasiga kirasiz. Kvadratlar natijani taxmin qilishdan ko'ra ko'proq «xisoblab» chiqaradilar. Ular fikrlash zanjirida birorta xalqani xam o'tkazib yubora omaydilar, boshqalar bu narsani qilsalar, tushunishda qiynaladilar, buning natijasida dezkomfort sezadilar. Kvadratlar mayda iker – chikirlarga xaddan tashkari e'tiborlilar. Aynan proektlar va rejalarining barcha konkret detallarini ishlab chikadilar.

Kvadratlar o'zgarimas tartibni yaxshi ko'radilar: xar bir narsa xam foydali bo'lishi va o'z vaqtida amalga oshishi zarur. Xaqiqiyiy Kvadrat «Stoldagi tartibsizlik miyadagi tartibsizlikdir» degan maqolga chin dildan ishonadilar. Kvadratning ideali – rejalashtirilgan, oldindan aytish mumkin bo'lgan xayotdir, unga turli «syurprizlar» va voqealarning borishi odatining buzilishlari sira yoqmaydi. U doimo odamlarni va narsalarni uz atrofida «tartiblashtiradi» va tashkil etadi.

Ushbu barcha sifatlar shunga olib keladiki, Kvadratlar juda yaxshi administrator bo'lishi mumkin (bo'ladi xam), lekin afsus ular kamdan-kam yaxshi raxbar, menedjer bo'lishlari mumkin. Tabilyki Kvadratning yuqorida ko'rsatilgan barcha ustunliklari undagi ojiz tomonlar bilan yonma-yon kechaverishi mumkin.

Ikir-chikirlarga xaddan tashqari berilganlik («daraxt ortidagi o'rmonni ko'rmaydi»), qaror qabul qilish uchun qo'shimcha, aniqlovchi informatsiyalarga bo'lgan extiyoj Kvadratni tezkorlikdan maxrum etadi.

Saranjom – sarishtalik, tartib qoida va odatlarga rioya qilish xaddan tashqari ortiqcha bo'lib ketishi mumkin. Qachonki qaror qilish vaqti kelsa ayniqsa bu qaror tavakkalchilik bilan yoki o'z obro'siga putur yetkazish bilan bog'liq bo'lsa, kvadrat xoxlab yoki xoxlamay bu qarorni qabul qilish muddatini cho'zaveradi. Bundan tashqari, ratsionallik xissiy quruqlik va sovuqlik Kvadratga turli, ayniqsa qo'rqmaydigan shaxslar bilan kirishishga xalaqit beradi. Kvadrat amorf, ya'ni «chap qo'l nima qilayotganini o'ng qo'l bilmaydigan» xolatda samarasiz xarakat qiladi. Ammo yaxshi tashkillashtirilgan, ijro muddatlari belgilangan, ma'lumotlar va asbob-uskunalaridan foydalanish aniq bo'lgan, aniq talablar shakllantirilgan va xarakatning aniq ko'rsatmalari berilgan sharoitlarda kvadrat qolgan barcha shakllardan ustun bo'ladi.

Uchburchak. Bu shakl liderlik belgisidir, ko'pchilik uchburchaklar o'zlarining Ushbu xususiyatlarini sezadilar: «ular lider bo'lish uchun tug'ilganlar». Xaqiqiy uchburchakning eng xarakterli xususiyati – bosh maqsadga o'z diqqatini qarata olish qobiliyatidir. Uchburchaklar – xarakatchan, tutqich bermas, kuchli shaxslar bo'lib, ular aniq maqsadlar qo'yadilar va odatda, ularga erishadilar.

Albatta, uchburchaklar o'zlarining asosiy maqsadi nima ekanligini xar doim biladilar, shuning uchun xam ular kvadratlardan farq qilib – juda qat'iyatli odamlardir. Ular, o'zlarining qarindoshlari kvadratlar singari, To'g'ri chiziqli shakllarga xos va yo'nalishiga ko'ra xam «chap yarim Sharli» fikrlovchi, ya'ni sharoitni chuqur va tez taxlil qila oladigan toifaga kiradilar. Ammo, o'z diqqatini ikir-chikirlarga qaratuvchi kvadratlariga karama-karshi ularoq uchburchaklar asosiy narsaga, muammoning mazmuniga o'z diqqatini qaratadilar. Ulardagi kuchli foydaga yo'nalganlik ularning fikriy taxlilini yo'llab turadi va mazkur sharoitda muammo yechimining

samarali (ko'pincha foydali) yo'lini topishga karatadi. Bundan yo'nalganlik uchburchaklarni eng yaxshi yechimini izlashda turli – tuman variantlarni berilib taxlil qilishdan asraydi. Bu narsa boshqalarda, o'ziga unchalik ishonch bo'lmagan kishilarda kuchli taasurot paydo qiladi va ular uchburchakka erishadilar.

Uchburchak – bu juda o'ziga ishongan, barcha narsadan uzi xak bo'lishni xoxlovchi odam, xama narsada xak bo'lishga va sharoitni boshqarishga, faqat o'zi uchun emas, balki imkon darajasida boshqalar uchun xam qaror qabul qilishga bo'lgan kuchli extiyoj Uchburchakni boshqalar bilan doimo raqobatlashuvchi, ko'rashuvchi shaxsga aylantirib qo'yadi. Uchburchak kirishgan xar bir ishda yetakchi ustanovka – bu g'alabaga, yutukka, muvaffaqiyatga bo'lgan ustanovkadir. U juda tez-tez tavakkal qiladi, qaror qabul qilishda ikkilanuvchi odamlarga nisbatan chiday olmaydigan va yoqtirmaydigan bo'ladi.

Uchburchaklar ilxaq bo'lib qolishni juda yoqtirmaydilar va o'z xatolarini juda qiyinchilik bilan tan oladilar. Aytish mumkinki, ular ko'pincha o'zlari kurishni xoxlagan narsani ko'radilar, shuning uchun xam o'z qarorlarini o'zgartirishni yoqtirmaydilar, e'tiborlarini qabul qilmaydilar va ko'pchilik xollarda o'zlaricha ish tutadilar. Lekin ular o'zlarining pragmatik yo'nalishlariga mos keladigan, bosh maqsadga erishishga yordam beradigan narsalarga juda muvaffaqiyatli o'rganadilar. Foydali informatsiyalarni xuddi surgichdek o'ziga surib oladilar.

Uchburchaklar – izzat – nafsli odamlar. Agar kvadrat uchun or-nomus ishi bajarilayotgan vazifani yuqori sifatiga erishish bo'lsa, Uchburchak esa yuqori sifatiga erishish yuksak status egallashga boshqacha aytganda, karyera qilishga intiladi (buni Uchburchakning salbiy sifati deb qaramaslik kerak). Biron-bir ishni boshlash yoki qaror qabul qilishdan oldin Uchburchak ongli yoki ongsiz xolda uz oldiga «Bundan nima foyda ko'raman?» degan savolni qo'yadi. Ishonavering Uchburchak qanday qaror qilmasin, bunda albatta Uchburchakning shaxsan o'zi uchun foyda (xar doim xam moddiy emas) aks

etgan bo'ladi. Uchburchaklardan boshqarishning eng «yuqori» darajasida turadigan zo'r menedjerlar chiqadi. Ular aynan «yuksaklikka» intiladilar xam. Bundan ularga yana bitta sifat – «siyosiy fitnachilik» malakasi yordam beradi. Ular o'zidan yuqori turgan raxbariyatga o'zining va qo'l ostidagilar ishining axamiyatligini ustalik bilan yetkaza oladilar, foydali ishning xidini bir chakirimdan sezadilar va bu narsa uchun ko'rashda o'z raqiblarini «bir-birlari bilan peshonasini urishtirib» qo'ya oladilar. Mana shu yerda uchburchak shaklining bosh salbiy sifatiga e'tibor berish kerak, bu o'ziga yo'naltrilgan kuchli egasentrizm. Bu narsa shunga olib keladiki, Uchburchaklar xokimiyat tepasiga intilayotib axloqiy normalarni unchalik pisand qilmaydilar va o'z maqsadi sari boshqalarning boshlarida yurib borishlari xam mumkin. Bu xolat boshqalarda kurkuv va shunga asoslangan xurmat yuzaga keltirish mumkin, lekin xech xam ularga nisbatan moyillik va muxabbat xosil qilmaydi. Shunday bo'lsada..... qo'rqmang! Bu «ashaddiy», ya'ni vaqtida boshqalar tomonidan to'xtatilmagan uchburchaklargagina xosdir. Umuman olganda Uchburchaklar kelishgan, o'ziga jalb qiluvchi odamlar bo'lib (shunday bo'lmasa kim xam ularga ergashar edi!) Xamma narsani va xammani o'z atrofida aylanishga majbur qiladilar, ularsiz bizning xayotimiz o'z keskinligini yo'qotgan bo'lar edi.

To'g'ri to'rtburchak. To'g'ri to'rtburchaklar sizlar uchun xozir o'qiydigan narsangiz kutilmagan xodisa bo'lmasa kerak. Shundoq xam siz o'zingiz to'g'ringizda xamma narsani bilasiz.

Gap shundaki To'g'ri to'rtburchak o'tish va o'zgarish xolatini aks ettiradi. Bu aytish mumkinki, shaxsning vaqtinchalik shakli bo'lib qolgan to'rtta nisbatan turgun shakllar xayotning xech xam bir davrda bu shaklni o'ziga yokip yurishi mumkin. Bular xozirgi kunda o'zlari kechirayotgan xayot tarzidan ko'nikmayotgan, shuning uchun xam yaxshi xolatni izlash bilan band bo'lgan odamlardir. Mumkin sizlardan kimdir yaqindagina kasbiy statusini o'zgarishini boshidan kechirgandir (moslashuv talab qiladigan xolatlar: yangi ishga o'tish, lavozimda ko'tarilish yoki pasayish) kimdir shunaqa o'zgarishlarni oldindan

ko'rayotgan, sezayotgan bo'lishi mumkin. Kimningdir shaxsiy xayotida o'zgarishlar bo'lgandir. Umuman To'g'ri to'rtburchak xolatining sabablari turli – tuman bo'lishi mumkin. Lekin ularni bir narsa birlashtiradi – o'zgarishning ma'lum odam uchun axamiyatligi.

To'g'ri to'rtburchakning asosiy psixik xolati muammolardagi chalkashganlik va ayi shu payt o'ziga nisbatan noshudlidir. Bu bilan parallel ravishda unda ichki qo'zg'alish oshib boradi va bu uning xulq-atvoriga aks etmay qolmaydi.

To'g'ri tutrburchakning eng xarakterli belgilari – o'tish davri davomida xatti-xarakatlardagi izchilligi yo'qligi va ularni oldindan bilish qiyinligidir. Siz, To'g'ri to'rtburchaklar, kundan-kunga, xatto bir kunning ichida xam kuchli o'zgarishlaringiz mumkin. Bu tabiiy xol, chunki To'g'ri to'rtburchaklarning o'z-o'ziga berilgan baxosi past bo'ladi, nimadadir yaxshiroq bo'lishga intiladilar, yangi ish metodlarni, xayot ulublarni izlaydilar. Agar To'g'ri tutrburchakning xulq-atvoriga diqqat bilan razm solinsa, butun davr davomida uning gox «uchburchak», gox «aylana» va xakozo shakllarning kiyimini kiyib yurganligini payqash mumkin. To'g'ri to'rtburchak xulq-atvoridagi birdaniga, kutilmaganda va oldindan bilib bo'lmaydigan darajada o'zgarib turishi odatda boshqa odamlarni uyaltiradi va xavfsiratadi, ular ongli ravishda «uzag'i yo'q odam» bilan muloqotdan qochishlari mumkin. Tushunarli, Kim xam, axmoqona xolatga tushib qolishni istaydi! To'g'ri to'rtburchaklarga boshqa odamlar bilan muloqotga kirishish juda zarur, o'tish davrining yana bita murakkabligi shundan iborat.

Shunday bo'lsada, boshqa odamlardagi singari To'g'ri to'rtburchaklarda xam atrofdagilarni o'ziga jalb qiluvchi ijobiy fazilatlarini ko'rish mumkin. Bu eng avvalo –qiziquvchanlik, sinchkovlik bo'layotgan barcha xodisalarga jonli qiziquvchanlik va botirlik, To'g'ri to'rtburchaklar oldinlari xech qachon qilmagan ishlarini qilishga intiladilar, oldin so'rashga yuragi betlamagan narsalarni so'raydilar. Mazkur davrda yangi g'oyalar, qiymatlar, tafakkur va xayot uslublari uchun ochiqdirlar, barcha yangilikni osonlikcha o'zlashtiradilar. To'g'ri bularning

orqa tomoni – xaddan tashqari ishonuvchanlik, soddalikning mavjudligidir. Shuning uchun xam To'g'ri to'rtburchaklardan osonlikcha foydalanish yo'lida axloq qoidalarini unchalik pisand qilmaydigan odamlar albatta bundan foydalanadilar. Agar siz xaqiqatdan xam To'g'ri to'rtburchak shaklini olgan bo'lsangiz extiyot buling! Shuni bilingki «To'g'ri to'rtburchaklik» - bu bir bosqich xolos. U albatta o'tadi, va siz bu davrda o'zlashtirilgan tajriba bilan boyib, shaxs rivojining kungi bosqichiga chiqasiz.

Aylanma. Geometrik jihatdan Aylana – bu garmoniyaning afsonaviy simvolidir. Ishonch bilan o'zining asosiy shakli sifatida Aylanani tanlagan odam eng avvalo yaxshi shaxslararo munosabatlar tarafdoridir. Aylana uchun eng yuksak qiymat – odamlar ularning baxti aylana beshta shakl orasida eng ochiq ko'ngilidir. U ko'pincha ish jamoasini xam, oilani xam mustaxkamlab turuvchi «yelim» vazifasini bajaradi, ya'ni guruxni stabillashtiradi.

Aylanalar beshta shakl orasidagi eng yaxshi kommunikatorlardir, chunki ular eng yaxshi tinglovchilar xamdir (Uchburchaklar xam yaxshi kommunikatorlar, lekin ular boshqalardan ko'ra uzlarini ko'proq tinglaydilar). Ular yukori sezgirlikka egalar, rivojlangan empatiyaga xamdard bo'la olish, boshqa odamlarning kechinmalariga xissiy sherik bo'la olish qobiliyatiga egalar. Aylanalar boshqalarning quvonchini, boshqalarning qayg'usini o'zinikidek xis kila oladi. Tabiiyki, odamlar aylanaga intiladilar. Aytish kerakki, aylanalar odamlarni juda yaxshi ukib oladilar va bir daqiqadayoq mug'ombirlarni aldoqchilarni bilib oladilar.

Aylanalar uz jamoasi (uz komandasi) uchun ko'rashadilar va xamkasabalari orasida yuqori mavqega ega bo'ladi. Ammo ular, odatda, biznes soxasida kuchli menejer va raxbar bo'la olmaydilar.

Birinchidan, Aylanalar ishdan ko'ra ko'proq odamlarga yo'nalganliklari uchun xar bir odamga yoqishga juda xarakat qiladilar. Ular tinchlikni saqlashga xarakat qiladilar va shuning uchun xam ba'zida «qattiq» pozitsiyani egallashdan xamda xammaga xam ma'qul kelavermaydigan qarorlarni qabul

qilishdan qochadilar. Aylana uchun shaxslararo konfliktga kirishdan xam og'ir narsa yo'q. xamma odam bir-birlari bilan kelishib yursa Aylana baxtli bo'ladi, shuning uchun xam AAylana kim bilandir konfliktga kirishsa, aynan Aylana birinchi bo'lib yon berishi extimoli kuchli. Boshqalar bilan yarashish – xulq – atvorning tipik «aylanaviy» belgisidir. Bu belgi boshqalarga xursandchilik keltirsa Aylana esa uz xamkasblari orasida taniqli qilsada, xaddan ziyod yon berishlar Aylananing o'ziga bo'lgan xurmatining ko'rinishi o'z-o'zini ayblash tendensiyasining kuchayishiga olib kelishi mumkin.

Ikkinchidan, Aylanalar qat'iyatlilik bilan ajralib turmaydilar. Agar ularga boshqaruv To'g'ri kelib qolsa, ular raxbarlikning yaqqol demokratik uslubini ustun kuyadilar va xar bir qarorni ko'pchilik bilan muxokama qilishga xamda ularning kullab-kuvvatlashlarina tayaniga intiladilar. Ma'lumki bu narsa xar doim xam uzini oklamaydi: yaxshi imkoniyatni boy berish mumkin. Bundan tashkari Aylanalar «siyosiy uyinlarda» ojizlar, ko'pincha uzlarini va «uz komandalarini» zarur tarzda kursata olmaydilar. Bu xammasi shunga olib keladiki, ko'pincha Aylanalarni kuchli shaxslar masalan, Uchburchaklar o'ziga qaratib oladilar, natijada ularni manipulyatsiya qila oladilar. Aylanalarning baxti shundaki, ular xokimiyat kimni qo'lida ekanligidan unchalik xavotir olmaydilar. Asosiysi, xammaning ko'ngli tuk bo'lsa va atrofdagi tinchlik xukm sursa bas.

Ammo bitta narsada Aylanalar xavas kilgudek qattiqqo'llik namoyon kiladilar. Agar masala axloq va xaqiqatning buzilishiga borib takalsa, Aylanalar odamlarning extirosli ximoyachisiga aylanadi. Bunda Aylanalar, agar xoxlasalar, juda ishonarli bo'lishlari mumkin.

Odatga ko'ra, ularning shaxslararo konfliktlarni a'lo darajada yechishlarida aloxida fikrlash shakli «aybdor».

Aylana – bu To'g'ri chizikli bulmagan shaklni ishonch bilan Aylanaga taaluqli deb xisoblaganlar, «ung yarim sharli» Aylanalarga xosdir. «ung yarim sharli» tafakkur – obrazlirok, emotsional tusli bo'lib, unda taxlil kiluvchanlikka nisbatan integrativlik ustundir. Shuning uchun xam Aylanada

informatsiyani qayta ishlash Kvadratdagi (Uchburchakdagi) singari ketma – ketlikda bulmay, balki ko'proq mozaik, uzuq-yuluqroq, ayrim zvenolarni tushirib qoldiradigan (masalan a... -...d...) shaklda bo'ladi. Bu Aylanalar mantiqni yoqtirmaydigan degani emas. Ular xayotiy muammolarni xal etishda formalizmlar yetakchi emas... Insoniy munosabatlar soxasida ular uchun asosiy narsa muammoning sub'ektiv omillariga e'tiborni qaratish, ya'ni xatto qarama-qarshi nuqtai nazarlarda xam umumiylikni topishga intilishdir.

Aytish mumkinki, Aylana tugma psixolog. Ammo, katta jiddiy biznesni boshida turish uchun Aylanaga tashkilotchilik ko'nikmalari yetishmaydi.

Zigzak. Bu shakl kreativlik, ijodkorlik simvolidir. Chunki beshta shakl ichida bu eng nodir va yakkayu-yakka yopilmagan shakldir.

Agar siz asosiy shakl sifatida Zigzagni kattik tanlab olgan bo'lsangiz, siz xaqiqiyiy «ung yarim sharli» fikrlovchi, boshqacha fikrlovchisiz, chunki chiziqli shakllar uzlarining mikdori bilan sizdan ustunlikka ega. Kvadrat yoki Uchburchak ko'pincha sizning belgizga e'tibor berishmaydi. Psixologning : Bu shaklni kaerga joylashtirasiz? – degan savoliga: «Bu xam shaklmi? Men buni kimdir chizib tashlagan narsa deb uylabman» degan javobni olish mumkin. Nixoyat, zigzaglar orasida boshqalarga qaraganda ko'proq chapaqaylar uchraydi. Bu xam ularning «ung yarim sharli» ekanligidan dalolat.

Shunday kilib, eng yakin karindoshingiz Aylana singari sizga (faqat ko'proq mikdorda) obrazlilik, intuitivlik, integrativlik, jimjimadorlik xos. Kat'iy, izchil deduksiya – bu sizning uslubingiz emas. Zigzagning fikri juda kuchli: xatto A dan Y gacha sakrashlar qiladi. Shuning uchun xam ko'pchilik chiziqli «chap yarim sharli» shakllar uchun Zigzagni tushunish qiyin. «Ung yarim sharli» tafakkur mayda bo'lakchalarda to'xtalmaydi: shuning uchun xam u Dunyo aksini nimalardir xisobiga soddalashtirib, yaxlit, garmonik konsepsiyalar va obrazlarni xamda go'zallikni ko'ra oladi. Zigzaglar odatda rivojlagan estetik xisga ega bo'ladilar.

Zigzag tafakkurida xar doim – «Qanday bo'lar ekan agar?....», «Qanday bo'lar ekan agar bu fikrlarni birlashtirsak? Buning natijasida nimaga ega bo'lamiz?» degan savol ustun bo'ladi. Butunlay boshqa – boshqa bir – biriga o'xshamaydigan fikrlarni qo'yish va shuning asosida yangi, original fikrni topish – mana Zigzaglarga eng yoqadigan narsa Aylanadagidan farq qilib Zigzaglar kelishuvchanlikni xush ko'rinmaydi, aksincha – ularda fikrlar konfliktini keskinlashtirish va yangi konsepsiya tuzish orqali ushbu konfliktlar o'z yechimini topadi. Ular o'zlarining tabiiy aqli. O'tkirligini ishlatib, juda zaxarxanda bo'lishlari, yangi yechimlar imkoniyatiga «boshqalarning ko'zini ochishlari» mumkin, Zigzaglar dunyoni doimiy o'zgaruvchan xolda qurishga odatlanganlar.

Zigzaglar yaxshi tashkillashtirilgan sharoitlarda samarali mexnat qila olmaydilar. Aniq vertikal va gorizontal aloqalar, qat'iy belgilangan vazifalar va ish joyida katta rang – baranglik va rag'batlantirishning yuqori darajasi bo'lishi zarur. Ular shuningdek, o'z ishida boshqalarga tobe bo'lishni xoxlamaydilar. Bunday xolda Zigzag jonlanadi va o'zining asosiy vazifasini bajara boshlaydi – yangi fikrlar va ish uslublarini o'ylab topa boshlaydi. Zigzaglar xech qachon narsalar xosil qilishga doir qilinayotgan yoki oldin qilingan uslublardan qoniqmaydilar. Xech narsa Zigzagni Kvadratning «Biz buni xar doim shunday qilardik» deydi nasixatomuz gapchalik jaxlini chiqarmaydi. Zigzaglar kelajakka intiladilar va borliqqa qaraganda imkoniyatga ko'proq qiziqadilar. Boshqalar uchun narsalar olami qanchalik real bo'lsa, ular uchun fikrlar, g'oyalar olami xam shunchalik real. O'z xayotining ancha qismini ular Ushbu xayotiy dunyoda o'tkazadilar, shuning uchun xam ular amaliyotda no'noq, noreal va ishonuvchanlar.

Zigzag beshta shakl orasida eng xayajonlanuvchani eng qo'zg'aluvchanidir. O'zida yangi va qiziq fikr tug'lsa, uni butun dunyoga yoyishga tayyor. Zigzaglar – o'z fikrlarini charchamas tarqatuvchilaridirlar va o'z atrofida barchani bunga qiziqtirish qobiliyatiga egadirlar. Ammo ularga siyosiylik yetishmaydi: ularda bosiqlik yo'q, «xaqiqatni yo'ziga aytadilar», ulardagi

g'alatilik bilan qo'shilgan xolda bu xususiyatlar o'z g'oyalarini xayotga tatbiq etishga xalaqit beradi. Bundan tashqari ular konkret detallarni ishlashda va boshlagan ishlarini oxiriga yetkazishda unchalik kuchli emaslar.

Lekin Zigzaglar juda jozibador odamlar bo'ladilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. "Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya" D.Saliyeva, D.Yo'Ichiboyeva, Qo'qon-2020
2. Mamarajabova Z., "Surdopedagogika", o'quv metodik qo'llanma T.:Toshkent-2012
3. Nurkeldiyeva D.T. va b.q "Maxsus psixologiyasi", T.:Toshkent-2015
4. Davletshin M.G., To'ychieva S.M. Umumiy psixologiya, Toshkent 2002.
5. Psixologiya. Qisqacha izohli lug'at .Toshkent, 1998.
6. Yosh va pedagogik psixologiyadan praktikum. T.1991.
7. M.G. Davletshin, Sh.Do'stmumedova, M.Mavlanov, S.To'ychieva. «Yosh va pedagogik psixologiya» o'quv metodik qo'llanma Toshkent 2004 yil
8. G'oziyev E. Umumiy psixologiya. -T., 2003
9. Xaydarov F.I., Xalilova N.I. Umumiy psixologiya. T.:Toshkent

MUNDARIJA:

KIRISH	3
1 Surdopsixologiyani nazariy asoslari.....	5
2 Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar ruxiy rivojlanishining o'ziga xosligi.....	13
3 Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning pedagogik tasnifi..	17
4 Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar sezgisining o'ziga xos xususiyatlari.....	22
5 Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar idrokining o'ziga xos xususiyatlari.....	28
6 Eshitish qobiliyati buzilgan shaxslarning diqqat xususiyatlari.....	32
7 Eshitishda nuqsoni mavjud bolalar xotirasining o'ziga xos xususiyatlari.....	38
8 Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning tasavvuri va uning xususiyatlari.....	47
9 Eshitish qobiliyati buzilgan bolalarning hayol xususiyatlari	56
10 Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar tafakkurini rivojlantirish	60
11 Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni og'zaki nutqining psixologik asoslari.....	75
12 Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning hissiy emotsional iroda sferasi tavsifi	80
13 Surdopsixologiya bilan surdopedagogikaning o'zaro aloqadorligi. Surdopsixologiya psixologiyani Boshqa soxalar uchun ahamiyati.....	87
14 Kar bolalarning og'zaki nutqiga psixologik tavsif.....	97
15 Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda yozma nutqni shakllantirishning psixologik asoslari.....	111
16 Eshitish qobiliyatini yo'qotganlarning og'zaki nutqini idrok etishi (labdan o'qish).....	116
17 Daktilologiya va imo-ishora nutqi eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar nutqi sifatida.....	124
18 Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni shaxsini o'rganishning umumiy masalalari	132

19 Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni kasbga munosabati.....	134
20 Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning faoliyat jarayonini o'ziga xosligi.....	138
21 Surdopsixologiya maxsus psixologiyani bo'limi sifatida .	144
Mustahkamlash uchun test va keyslar	147
Psixologik keyslar.....	163
Foydalanilgan adabiyotlar	175

**F.U.QODIROVA, D.A.PULATOVA, M.G'.DEHQANOVA,
SH.N.IBADULLAYEVA**

SURDOPSIXOLOGIYA

(O'quv qo'llanma)

Muharrir: X. Tahirov
Texnik muharrir: S. Meliquziyeva
Musahhih: M. Yunusova
Sahifalovchi: A. Isxoqov

Nashr. lits № 2244. 25.08.2020 y.
Bosishga ruxsat etildi 10.12.2023 y.
Bichimi 60x84 1/16. Ofset qog'ozi. "Cambria"
garniturası. Hisob-nashr tabog'i. 11,125. Adadi
100 dona. Buyurtma № 1814182 .

«Yangi chirchiq prints» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.